

821  
K 93

The book cover features a full-length illustration of a woman standing with her hands clasped in front of her. She is wearing a long, flowing blue dress with a high collar and long sleeves. The background of the illustration is a rich, textured red. In the top right corner, there is a small white label with the handwritten text '821 K 93'.

ALEKSANDR KUPRIN  
SO'NGGI IJRO

*Salinada yafsan tojagan hayot*

JA'HON ADABIYOTI TURKUMIDAN

821  
3493

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

ALEKSANDR KUPRIN

SO'NGGI IJRO

Hikoyalar

- 0423 -



ZIYO NASHR

Toshkent  
2020

0286KISTOM RESPUBLIKASI  
OLIV VA OVIYTA MAYSUS TALLAM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIROGHO  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.161.1-3  
K BK 84(2Ros)  
K 93

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Savon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Nurboy Jabborov, Dilmurod Quronov,  
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Aziz kiobxon! Qo'lingizdagi to'plamdan jahon miyosida e'tirof  
etilgan adiblarning eng sara hikoyalari o'tin olgan. Hikoyalar o'zining  
uslub, mukammalligi va kuilmagan voqealarga boyligi bilan e'tiborga  
molik. O'ylaymizki, ularni o'qib zerikib qolmayisiz.

ISBN 978-9943-6342-7-5

© O'. Hoshimov va b. (tarj.).  
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan  
hisssa qo'shgan, uni o'zgaritra olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq,  
falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan  
meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomoni-  
dan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy,  
Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu  
Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin  
Naqshband, Abullays Samargandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yuna-  
kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin  
Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz  
borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miyosidagi mutafakkirlar  
deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati,  
tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilanagina cheklanib qolmasligi lozim.  
Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot  
tarziga doimo hushyor nigoz va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga  
muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafak-  
kir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy  
tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan  
birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi  
bobolarimiz nazariidan chetida qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib,  
uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan  
ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari,  
xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l  
kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namu-  
nalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi  
nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kiobxonlik madaniyatini tako-  
millashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda  
yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz,  
jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli  
tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehti-  
yojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayri ishga qo'l urishga  
bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz  
jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dickens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O. de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Tsyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dunder, Dino Butsati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chander, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muvassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissiini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zunder, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhammedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'g'irgan asarlar qatorida umiddi yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahorati tarjimonlar o'g'irmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislardan tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayri niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarning, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini aynamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayri, afj-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaati qilsin!

## Ye SHEN-TAO (Xitoy)

### A-FEN

Qo'shimizning xizmatkori Yan xola xo'jayinlarining topshirig'iga muvofiq shaharga sovg'alalar olib borish uchun otlandi. U ikki kundan keyin qaytib kelishi kerak edi. Bunga xizmatkorimning havasi kelib:

— Uning rosa omadi kelibdi-da, shaharda ko'p ajoyib, qiziq narsalarni ko'radi! — dedi.

Men bu so'zlarni tasodifan eshitib, o'ylab qoldim: „Bu, Yan xolaning omadi kelganidan emas, balki bo'lajak kelini — A-fenning baxti kulganidan bo'lsa kerak“.

Bu yil A-fen o'n ikki yoshga to'ldi. Uning qisqa, unchalik e'tiborga arzimaydigan qissasini Yan xolaning o'zidan bilib oldim. A-fen baliqchi oilasida tug'ilgan. U dunyoga kelgan dastlabki kundan boshlab to'rga tushgan baliqlar bilan birga bir qayiqda yotar edi. Ko'p vaqt o'tmay otasi o'lib, baliq ovlaydigan qayiq o'miga tobutdan joy oldi. Onasi temiryo'lda yuk tashuvchi bo'lib ishlaydigan kishiga turmushga chiqdi. Ikkinchi eri bir joyda doimiy turib ishlamas, bolani o'zlari bilan birga, u yerdan bu yerga olib yurish mumkin emasdi, buning ustiga, qiz tufayli ko'proq xarajat qilish kerak bo'lardi. O'sha yerdagilarning maslahatiga ko'ra A-fenni tarbiyalash uchun Yan xolaga berishdi. Yan xolaning o'g'li bor, u hozir yigirma to'rt yoshga kirgan. Qiz bu vaqtda endigina olti yoshga to'lgan edi. O'sha paytdayoq Yan xola bir vaqt keladiki, o'g'li uylani-

shi kerak, shunday bo'lganidan keyin shu qizni hozirdanoq tayyorlab qo'yish qulay emasmi? A-fen boshqa onalik ham bo'lib qoldi.

Yan xola bilan qiz qo'shnilarimiznikiga xizmat qilish uchun yollanib kelishdi. Qizchaniy vazifasi quduqdan suv olib kelish, mayda bozor-o'char ishlarini bajarish va xo'jayinning besh yoshlik qizini boqish edi. A-fening bo'rtib turgan anordek sog'lom yuzida quvnoq tabassum jilolanib turardi. Lekin Yan xolaniy qorasini uzor-yaqindan ko'rishi bilanor tabassum g'oyib bo'lardi: A-fen boshiga qattiq qo'lining kelib tushishini yaxshi bilardi. Shunday bo'lganidan keyin u bilan o'ynashib bo'ladimi?

Yan xola hamisha biror narsadan norozi bo'lib yurar, og'zidan qarg'ish tushmasdi. A-fen undan hamma vaqt dakti yer edi. A-fen ovqatni sekin yegan paytlarda Yan xola:

— Joning bormi, yo'qmi! Senga nima bo'ldi, tezroq chaynasang o'lasami? — derdi.

Agar qiz biron yerga shoshilib, qattiqroq depsiinsa bormi, Yan xola yana:

— Ajal quvlayaptimi, nega buncha shoshasan!? — deb baqirardi.

Ammo, shuni aytish kerakki, u qizga hech jahl qilmas, hatto qarg'ayotgan paytlarida ham o'zini qiyinamas, pingini buzmasdi. U javrab-javrab yana hech narsa bilmagandek o'z ishini davom ettiraverardi; sotib olib kelgan narsalarini hisob-kitob qilardi, ish orasida qo'pol hazillar bilan xo'jayinning ko'nglini olardi, lekin shu hazil orasida ham odatdagidek beadab so'zlarni ishlataverardi. Yan xolaniy og'ir, qo'pol qo'llari qizchaniy boshiga damba-dam tushib turardi. Biroq uning kaltagi ham qarg'ishi singari beg'araz edi.

Xo'jayinning qizi to'stadan qattiq yig'lab yuborgudek bo'lsa bormi, Yan xola A-fenni shu zahotiyor tarsaki bilan „mukofotlardi“. A-fen quduqdan yog'och paqir-da to'ldirib olib kelayotgan suvdan yo'l-yo'lakay ozroq to'kib kelsa ham xuddi shunday hol yuz berardi. Yan xola ishdan bo'sh vaqlarida A-fening sochlarini tarardi. Ko'pdan beri taroq ko'rmagan sochlar paxmoq bo'lib qolgandi. Yan xola yog'och tarog'ini olib, xuddi xaskash bilan yerni tinmayotgandek qizning sochlarini taray boshlaydi. A-fen ozor chekar, yig'lagisi kelardi. Ammo nochor, chidardi. Yan xola qayrilib, u yoq-bu yoqqa qaradi deguncha, A-fening qip-qizil yuzlarida yana tabassum paydo bo'lardi. Qarg'ish va kaltaklash uning uchun xuddi uyqu va ovqat kabi odat tusini olgandi. Xotiramda bir hodisa shunday o'mashib qolganki, hali ham unuta olmayman.

Bir kuni tushki ovqatdan keyin Yan xola sirlangan kas-trulkani tozalab o'tirgan edi. Birdaniga kas-trulka qo'lidan sing'aniy tushib ketdi. Qattiq qo'rqib ketgan xola kas-trulkani qo'lga oldi-da, hamma tomonlarini sinchiklab ko'zdan kechirdi va o'ziga tasalli berib:

— Ha o'lsin, hech narsa bo'lmadi! — dedi.

Bu vaqtda A-fen kir yuvib o'tirgan edi. Hech qachon, hech narsa haqida o'ylamagan A-fen, shu payt haqiqat va norozilik haqida fikr yuritdi. U ishini to'xtatmay ohistalik bilan dedi:

— Agar shu ishni men qilganida, meni urardingiz.

A-fen bu so'zlarni eshitilar-eshtilmas aytdi-yu, ammo Yan xolaniy qo'llarini harakatga keltirish uchun, shivirlashning o'zi ham kifoya edi. Biri! Ikki!.. Har bir musht tushgan sari A-fen tishini-tishiga qo'yardi, ko'zlarini borgan sari chirt yumardi, ko'zlarini ochgandan keyin yum-yum yosh oqardi. Qizning xati-harakatida chidam, qat'iylik,

jasurlik bor edi. Nam qo'llari bilan og'rigan yerlarini silar, sochlaridan tomayotgan suvlar ko'zyoshlari bilan aralashib yuziga oqib tushar, lekin ho'ngrab yig'lashga jur'at qilmasdi. Xuddi shu paytda uch yoshlik o'g'il-cham, men o'tirgan stul yonida turardi, ko'zlarini javdiratib Yan xola bilan A-fenga tikilib qarar, jiddiy yuzida esa qo'rqinch va qochib ketish alomatlari sezilib turardi: u qayrilib qo'lchalarini tizzamga qo'ydi-da, pastki labini cho'chaytirdi.

Biri! Ikki!.. Uning qulog'iga kaltak ovozlari to'xtovsiz eshitilib turardi. Oxiri u o'zini tuta olmay yig'lab yubordi. Men shundagina kishilarning bir-birlariga hamdard ekanliklarining ma'nosiga tushundim. Bola yuzini tizzalarim orasiga yashirdi. Birozdan keyin A-fen kirlarni quritish uchun ketdi, Yan xola bo'lsa kulimsirab, bunday dedi:

— Bolam! Nahotki shunga ham yig'lasang?

A-fen kirlarini quritib qaytib kelganidan keyin xo'jayining qizi bilan ovora bo'ldi. Yaqin atrofda Yan xolaning yo'qligini sezgach, u, odatda, maktab o'quvchilari aytadigan „Vaqir-vuqur qurbaga“ degan ashulani zavqlan kuylay boshladi.

Yan xolaning harakatlari qandaydir g'ayritabiiylik sezilardi. Lekin o'zi haqida menga hikoya qilib bergan gaplaridan ma'lum bo'ldiki, turmushning o'zi uni shu holda solib qo'ygan.

Uning o'g'li duradgorga shogird tushgan edi. Lekin u randa bilan boltadan ko'ra vino ichish va oshiq o'ynashni afzalroq ko'rardi. Bir kuni u qimorga bor-budini boy berib, yana qarz bo'lib qoldi. Uydin pul topolmay janjal boshladi. Uni qamashdi. Politsiya undan pul talab qila boshladi, ammo unda pul yo'q edi. Shunda rosa do'pposlashdi. Yan xolaning jahli chiqib tashvishlandi, ammo

nima ham qila olardi? Kaltaklangan o'g'lini qutqarib olish uchun, yemay-ichmay to'plagan pullarni olib borib berishi kerak. O'g'lini uzok vaqt, oyoqqa turib ketgunigacha davoladi. Yan xola o'g'lidin qunt bilan ishlashni va bundan buyon qimor o'ynamaslikni ko'p marta so'radi. Lekin uch kun ham o'tmay, o'g'lining yana qimorxonada ekanligini aytishdi. Yan xola yugurganicha o'sha yerga borib, o'g'lini olib keldi va uning oldida uvvos solib yig'ladi. Ko'p vaqt o'tmay unga yana shu to'g'rida xabar berishdi.

Xolaga bu haqdagi xabar qayta-qayta yetib kelar, har safar g'azablanardi. Lekin o'g'lini ko'rdi deguncha ko'yish o'tmiga o'ynab-kulsin, deb unga tez-tez pul berib turardi. Ehtimol, shularning hammasi o'g'lini shunday qilib qo'ygandir.

Xolani shaharga jo'natishgandan keyin uning hammasi ishlari o'z-o'zidan A-fenga qoldi. Shu kunlarda A-fen Yan xola bor vaqtdagidan ko'ra halol va chaqonroq xizmat qildi. Uning beparvoligi, yalqovligi, xatolari qayoqqa keldi? Go'yo mehnatdan quvonar, u bilan zavqlanardi. Qiz soat uch bo'lmayotgan kuni bo'yi qilinishi lozim bo'lgan ishlarning hammasini bitirdi, faqat kechki ovqatni tayyorlashi qoldi, xolos. U xo'jayining qizini qo'lga olib alla ayt boshladi. A-fen ashulaning so'z va ohangida yanglishar: ammo uning nozik tomoghasidan chiqayotgan tovushlar to'xtovsiz yangradi; tovushining goh sekinlashib, goh ko'tarilishi ham tabiiy bir go'zal ohang bag'ishlardi. Xo'jayining qizi ohistagina kulib, A-fendan yana qo'shiq aytib berishini so'ray boshladi. U hech qachon shunday berilib ashula aytmagan edi. Odatda, Yan xola shu yaqin atrofda bo'lmasa ham A-fen juda sekin ashula ayardi. Qattiqroq ashula aytganini xola eshitib qolsa bormi, mush-ti yelkaga tushib qolardi. Lekin shu tobda qiz qandaydir

bir alohida quvonch bilan ashula aytayotgan edi, biroz kuylagandan keyin o'zi juda zavqlanib ketdi. Kuy kulgi bilan qo'shilishib, oxiri bu sof va soddakulgi, ashuladan ustun keldi. Yan xolaning qarg'ish va kaltaklari, kuchi yetmaydigan og'ir va qo'pol ishlari – hammasi unutildi, qizdan juda uzoqlashdi. A-fen o'z hayotini go'zal, erkin va abadiy deb his qildi. Shuning uchun ham butun g'amlarini unutilib, ich-ichidan shodlanib kular va kulgisi har qanday qo'shiqdan ham atfzal edi.

Uning oyog'i ostiga bir oq mushukcha kelib o'tirib oldi. A-fenning fartugi ohista silkindi. Shunda mushukcha fartukning barini ushlab olmoqchi bo'lib, goh tirmog'i bilan timdalanar, goh chirmashar edi. A-fen ataylab fartugini ko'tardi. Mushukcha orqa oyog'ida tirmoqchi bo'lib oldingi oyoglarini ko'tardi-yu, ammo o'zini tutolmay yiqildi, keyin yana sapchidi. U kishining ko'nglini ochuvchi, biram yaxshi, oppoq, semizgina edi. U „Meni sev“, degandek A-fenga muloyimgina ko'zlarini suzib termilardi. A-fendan shu vaqtgacha biror kimsa sevgi degan narsa to'g'risida so'raganni o'zi? Lekin xuddi shu tobda mushukchaga A-fenning sevgisi kerak bo'lib qoldi va mushukchani yaxshi ko'rib qoldi. Uzoq vaqtdan beri saqlanib kelayotgan his-tuyg'u nihoyat otilib ro'yobga chiqdi. A-fen mushukchani ilgari tez-tez ko'rib turgan bo'lsa ham ahamiyat bermasdi. Lekin bugun, shu daqiqadan boshlab mushukcha haqiqiy do'sti bo'lib qoldi. U qo'lidagi kichkina qizni stol yonida turishga undab yerga qo'ydi, o'zi esa fartugining bog'ichini yerda sudrab, mushukchani e'tiborini jalb qilishga urindi. Mushukcha bo'lsa yashirilib, ziyraklik bilan qarab turdi-da, tasmani ushlab olish uchun birdaniga oldinga tashlandi. A-fen uy ichida tez aylanar, mushukcha bo'lsa uning ketidan sakrardi-yu, lekin tasmani hech ushlay olmasdi. Mushukchani

chaqon harakatlari raqs tushayotgandek, juda ham jozibali edi, A-fen zavqlanib u bilan yana o'ynagisi keldi. U uy ichida uchayotgandek tez aylanar, kulib mushukni „Manal, Manal!“ deb chaqirardi.

Uning yuzida odatdagiday, ter tomchilari paydo bo'ldi. Qiz xuddi hozirgina quduqdan suv olib kelgandek qisqa-qisqa va tez-tez nafas olardi. Biroq u to'xtay olarmidi? Shu onda qarg'ishni ham, kaltakni ham, og'ir yumushlarni ham, hatto o'zini ham esidan chiqargan edi. Agar olam eng asosiy narsa – muhabbat, hayotga intilish va quvonchdan iborat bo'lsa, ayni vaqtda A-fenning qalbida butun olam mujassam bo'lgan edi.

*Rus tilidan  
T.Yunusxo'jayeva tarjimai*

*Sol'inggi yil*

**Dobri JOTEV**  
(Bolgariya)

**YAXSHI ODAM**

Pyotrning gaytishini orziqib kutdik. Chunki yaqin orada hech birimiz yorug'likka chiqib ko'rmagan edik. Pyotrning omadi bor ekan. Hujjatlardagi chalkash joylarga aniqlik kiritish uchun hakamning o'zi uni yo'qlabdi. Unga havasimiz keldi. Qamoqxonadan bir qadam bo'lsa-da tashqari-ga chiqish, qo'l-oyoq'iga kishan urilmagan ozod odamlar-ni ko'rish, quyosh nurgiga to'yish – barchamizning necha yillik orzuymiz edi. Bu baxtiga Pyotr musharraf bo'ldi.

Baxtiyor hamxonamiz peshinga yaqin qaytdi. Og'ir eshikni yopishlari bilan uni o'rtaga oldik.

– Qani, nimalarni ko'rding? – deb uning hikoyasiga il-haq bo'ldik.

Pyotr yog'och karovotiga o'tirdi-da, zax devorga suya-nib, jilmaydi.

– Avval oyog'imga og'ir kishan urishdi, – deya hi-koyasini boshladi Pyotr. – Keyin bu „marvarid shodalari“ni sudrab, boshliqning xonasi tomon yurdi. Shu yerda soqchi almashishi kerak ekan. Bir mahal ichkaridan boshliqning ovozi eshitib qoldim. U mening farishta mulozimlarimga yo'l-yo'riq ko'rsatayotgan ekan:

– Kiprik qoqmay kuzataring. U o'lim jazosiga loyiq, nihoyatda xavfli jinoyatchi. Ko'zlaringni shang'alat qilib qochib ketmasin, ziyarak bo'llaring. Mutlaqo gaplashma-laring. Agar qochguday bo'lsa, o'miga o'zlaringni qamab qo'yaman. U qdlaringmi?

Boshliq bu bilan kifoyalannmay, yana mening o'zimga ham ma'lum bo'lmagan bir qator fazilatlarimni aytib berdi. Xullas, uning tasvrida men salkam yovuz, qonxo'r maxluq-qa aylandim-qoldim. Lekin qosh qo'yaman deb ko'z chiqa-rib qo'ydim. Soqchilar ko'zimga qarashga botina olishmadi. Qamoqxonadan chiqib o'zgina yurgach, organga qa-radim. Soqchilar miltiqlarini shay qilib, boshliq aytganday kiprik qoqmasdan kelishayotgan ekan.

– To'g'riga qara, bo'lmasa otib tashlaymiz! – deb po'pisa qilishdi.

Soqchilarning bu ahvolidan kulib, hazillashgim keldi.

– Yaxshi, – dedim men, – odamga o'xshab muomala qi-lishni bilmasalaring, o'zlaringdan ko'rilaring. Yana oltmish bir qadam qo'yganimdan so'ng izimni qidirib qolasanlar.

Gapim og'zimdagi qoldi. So'zim tugamay ikkala miltiq ham kuraginga tiraldi. Ko'chadagi odamlar hayron bo'lib qarashadi. Yigirma qadamcha bosdim. Birdan yuraginga g'ulg'ula tushdi. „Juda bema'ni hazil qildim-da. Vasvasaga tushib tepkini bosib yuborsami, tamom...“ – dedim o'zim-ga o'zim. Baxtinga soqchilarning biri horg'in tovushda gapirib qoldi:

– Sen-ku, joningni huzurini ko'zlab qochib ketarsan. Senga balo ham urnaydi. Ammo biz bechoralarga kim rahm qiladi? Bolalarimiz tirik yetim bo'lib qolishadi-ku! Biz bir omi odamlarmiz. Boshliqlar aytgan ishini qilamiz.

– Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqarkan. Agar odamga o'xshab muomala qilganlaringda shuncha qiynalmasdila-ring. Bo'pti, endi xavotirga tushmalaring. Qoqmayman.

Shunday deb to'xtadim-da, ularga qarab kuldim. Soqchi-lar gapimga bir ishonib, bir ishonmay turib qolishdi. Keyin ularning biri miltig'ini yelkasiga osdi-da, jilmayib qo'ydi. Ik-kinchisi ham kuraginga tirab turgan miltig'ini oldi. Qolgan yo'lda hangomalashib ketdik. Ular g'arbiy muzofotdan ke-

lishgan ekan. Bilim yurtini tugatishga qo'yishmabdi. Politisiya xizmatiga olishibdi. Ikki o'ylam ham diltash yigilar ekan. Men ularga bisotimdagi latifalarning hammasini aytib berdim.

Hakam bor-yo'g'i otamning ismini aniqlamoqchi ekan. Bir nafasda qaytib chiqdim. Sogchilar bilan eski qadrdonlar kabi yonna-yon yurib borayotganimizni ko'rib ko'chadagi odamlar hayron qolishadi. Sogchilar menga hatto aroq ham quyib bermogchi bo'lishdi. Ko'nmadim. Keyin qo'yarda-qo'ymay yemakxonaga boshlashdi. Tamaddi qilib, bo'za ichdik.

— Shaharda qarindosh-urug'laring bo'lsa, kirib chiqmaymizmi? — deb qoldi sogchilardan biri.

Qarindosh-urug'laring borlikka bor-a, lekin kishanlarni sharaqlatib kirib borish to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun hech kimim yo'q deb qo'ya qoldim.

Qamoqxonaga yaqinlashganimizda ular yana qoidaga binoan miltiqlarini o'qalib orqaroqqa o'tishdi. Boshliqning xonasiga kirib ketishayotganda ularning biri ikkinchisiga:

— Boshliq aldabdi, bu yaxshi odam ekan...

Pyotrning hikoyasini eshitib, unga „Yaxshi odam“, deb nom berishga qaror qildik.

— Marhamatlaring uchun minnatdorman, — dedi u o'rnidan turib, — ammo bir narsani aytib qo'yay: keyingi kunlarda tushimga qiziq bir odam kiradigan bo'lib qoldi. U ro'paramga o'tirib olib, ko'zinga tik qaraydi. „Pyotr, agar sen bir o'zingni yaxshi odam deb bilsang, yangilishasan, — dedi u. — Bu dunyodagi odamlarning barchasi yaxshi. Lekin ba'zilar qachondir, qaydadir, qandaydir baloga yo'liqib qoladilar. Bunday bedavo baloga duch kelganlar yomon odamga aylanadilar. Men ularning ko'pini ko'rdim. Siz ularning yuragiga yo'l topsangiz, topganingiz, bo'lmasa holingizga voy“.

*Bolg'ar tilidan*

*Tohir Malik tarjimasi*

## *Xusrav SHOHONIY* (Eron)

### QARZ

Doimo quvnoq kayfiyatda yuradigan, yoqimtoy va qad-di-qomati kelishgan bir oshnam bor. Subhati jonon bu yigit bilan uchrashgan har qanday kishining ko'ngli birdan yorishib ketadi. Xullas, negadir u bir necha oydan beri ko'rinmay qoldi. Nihoyat bir kuni uni ko'chada uchratib qoldim. „Yo tavba, unga nima bo'lgan?“ — o'yladim o'zimcha. Uning hamma hasad qiladigan yoqimtoyligi-yu, kelishgan qaddi-qomati qani? U xuddi oyoqda turib mudrayotgan odamga o'xshab qolgan, qo'l tomirlari chollarnikidek bo'rtib, holdan toyganligidan tili og'zida zo'rg'a aylana, qadamlarini bazo'r sudrab bosardi. Bo'yini esa qamishdek bo'lib qolibdi. „Nega u bunchalik o'zgarib ketibdi? Yo adashyapmanmi? Yo'g'-e, o'ziga o'xshaydi-ku!“

— Hoy, senga nima bo'ldi? — so'radim bezovtaligimni yashimay.

U miq etmadi.

— Nima balo, og'ir xastalikka chalingingmi? — so'radim, u kasallik tufayli shunday ahvolga tushib qolganmikin, degan xayolda.

— Undan ham battar.

— Nima? Bezgakka chalingingmi?

— Yo'q. Undan ham battar.

— Ko'kyo'tal bo'ldingmi?

— Eh, qaniydi shunday bo'lganida...

– Bo'lmasa nega bunday ahvoldasan axir? Nima, qamogdan chiqib kelyapsanmi? Yo nashavand bo'lib qoldingmi? Yo, Xudo ko'rsatmasin, me'da kasaliga yo'liqdingmi?

– Yo'q, oshna, undan ham battar. Men mashina sotib oldim!

Birdan yuragim orgasiga tortib ketdi. „Ko'rinib turibdi, bechora mashinasida kimnidir bosib ketgan! Ko'rinnmay ketgan ikki-uch oy ichida u qamoxxonada o'tirgan!“

– Nahotki shunday bo'ldi! Odam urib yubordingmi? – dedim, xuddi uning fikrini ko'ziga qarab o'qib olayotgandek.

– Yo'q deyaipman-ku! – dedi u jahli chiqib.

– Bo'lmasa nega? Cho'zmay aytqolsang-chi!

– Mashina sotib oldim, dedim-ku.

– Tabriklayman. Lekin, nega bunchalik ozib-to'zib keding?

– Xasis odamning cho'ntaji oltira bo'lishini bilasanmi? – dedi u odatdagicha gapiga jumboq aralashirib. – Ko'rmayapsanmi, men yo'ldan tekin argon topib olsa, uni bo'yniga soladigan odamga o'xshab turibman.

Men hech baloni tushunmadim. Baribir, uning bunday achinarli ahvolga tushish sabablarini bilib olishga sabrim chidamasdi.

– Bundan ikki-uch oy avval, – gap boshladi u sigareta tutatarkan, – mening yashash tarzimga hatto har qanaga boshliq ham hasad qilgan bo'lardi. Men xuddi kapalak misol baxti va betashvish yashardim. Ertalab uyimdan chiqib, avtobus bekatigacha piyoda borardim. Sigaretamni tutatib, yo'l-yo'lakay kundalik rejalalarimi pishitardim. Avtobus chiptasiga ikki kran to'lab, ishingga ravona bo'lardim. Avtobusda ko'pincha go'zal qizlar bilan yonna-yon o'tirib ketardim. Har bir bekanda kimlardir avtobusdan tushar, kimlardir chigardi. Har kuni men yangi-yangi odamlarni

0423

ko'rar va taassurotlarim almashinib turganligidan behad sevinardim. Ishxonamga ana shunday kayfiyatda kirib borardim. Ishda ham xotirjamlik bilan barcha vazifalarimni bequvon bajarishga ulgurardim. Ba'zan kafelarga kirardim. Uyga qaytar vaqtim bo'lgach, taksiga o'tirardim. Mabodo ob-havo judayam yaxshi bo'lsa, uyimgacha shoshilmasdan piyoda yurib borardim. Yo'l-yo'lakay xotiranga kelgan go'zal she'rlarni o'qirdim yoki xayollarimga erk berib, qiziqarli sarguzashtlar to'qirdim. Shu tarzda uyimga yetib borganimni ham sezmay qolardim. O'rminga cho'zilganimcha xohlasam kitob o'qir, xohlasam kelajak rejalalarimi tuzardim. Hammasi, bundan ikki-uch oy oldin uyimga notanish bir kishining kirib kelishi bilan boshlandi.

– Mashinang bormi? – so'radi u dabdurusdan.

– Yo'q, og'ayni, menga mashinaga yo'l bo'lsin. Hatto eshak sotib olishni ham istamayman, sen mashina deysan-al! – dedim.

– Nega istamaysan?

– Chunki pulim yo'q.

– Senga kreditga mashina olib berishga yordamlashishim mumkin. Firma direktori yaqin oshnam bo'ladi. Hatto ikki-uch ming tumanlik chegirma qila olaman. Nima deysan? Har holda mashina haydashni bilasanmi?

– Qo'limdan kelisa kerak.

– Haydovchilik guvohnomang bormi?

– Yo'q.

– Uni tezroq to'g'rila. Men esa mashinani hal qilaman. O'sha kuni u meni xayollar ummoniga tashlab chiqib ketdi. „U rost gapiryapti“ – o'yladim o'zimcha. „Hammaning mashinasi bor. Men ham mashina minsam nima qilibdi! Boshqalardan qayerim kam!? Nima, qarigan-chirigan cholimammi, kreditdan qo'rgsam? Yoki muddatli kreditini

to'lashga qurtim yetmaydimi? Yetadi! Eng muhimi, mashinani ancha miqdordagi chegirma bilan olaman! Zo'r bo'ladi! Haydovchilik guvohnomasini to'g'ri layman-u, rulga o'tiraman!

– E, oshna, yo'1 bo'lsin?

– Jadrdgal!

– Qayoqdan kelyapsan?

– Karajdan!

– Bolalar, ketdik, Xan daryosiga cho'milib kelamizi!

– Yo'q, yaxshisi Devamandga borib vaqtichog'liq qilamizi!

Narsalarni mashinaga solamiz-u, xohlagan tomonimizga uchamizi! Axir, umr deganlari judayam qisqa. Haftada to'rt kun avtobusda chayqalib yurish, shuyam gapmi?!"

Qisqasi, miyamni mashina sotib olish-u kelajak, zavqli hayot haqidagi xayollarim egallab oldi. O'n kun ichida haydovchilik guvohnomasini qo'lga kiritdim. Birinchi to'lov uchun jang'armandagi bor pulim – besh ming tumanni to'ladim. Shunday qilib, chegirmadan tashqari yana ikki ming tuman to'lashim lozim edi. Kredit muddati o'tiz oy bo'lib, har oyda olti yuz tuman badal to'lab turishimgina qolgandi.

Mashina qo'lga tegishi bilan qulga o'tirdim. Birinchi kunioq bakka yigirma to'rt tumanlik yonilg'i quyib, Tehronning boyonlar yashaydigan hashamatli mavzesi ko'chalarini sayr-u tomosha qildim. Keehqurun mashinamni minib kinoteatrqa bordim. Mashina qo'yishga joy qidirib qanchalar ovora bo'lganligimni aytmay qo'ya qolay. Film boshlandi. Biroq, fikr-u xayolim mashinada. „G'ildiraklar qalpoqlarini o'g'irlab ketishmasmikan? Old oynatozalagichlarini shilib ketishsa-chi? Eshiklarni qulflasini unutmadmikan? Xudo ko'rsatmasin, portfelimni qoqib ketishsa-ya! Agar birorta avtomobil mashinamni

turtib qochib ketisa, kimga murojaat qilishim kerak? Keyin ta'mirlash uchun qancha olisharkan?..“

Qisqasi, bu xayollar bilan, kino qahramoni bo'lgan yigit qachon ekranda paydo bo'lganini, qahramon qiz bilan o'rtalarida nima voqealar sodir bo'lganini, keyin kichkina go'dakcha qayerdan paydo bo'lganligini yaxshi tushumadim.

Nihoyat film tugagach, hammadan oldin joyimdan sakrab turib, mashinam tomon otildim. Xayriyat, g'ildiraklarning qalpoqlari, oynatozalagichlar joyida, eshiklar qulffangan, portfelim ham omon ekan! Biroq, old oynaga mashinamni ruxsat etilmagan joyga qo'yganligim uchun alvon rangdagi jarima bildirishnomasi yopishtirib qo'yishibdi.

O'sha tun to xo'rozlar qichqirguncha mashinam va jarma puli haqida o'ylab, uxlamay chiqdim.

Ertasi kuni bir tanishim bilan ovqatlanish uchun kafega kirdik. Mashinamni kirish eshigi oldiga qoldirdim. Xuddi o'tgan safar kinodagidek nimalar haqida subhbatlashganimizni, nimalar yeb-ichganimizni sezmadim. Tashqariga chiqqanimizda g'ildiraklarning uchta qalpog'ini shilib ketishganini, to'rtinchisini yechishga ulgurishmay, bir o'zini yetim qoldirishganini ko'rdim. Qorovulga pul to'lab mashinamga o'tirdim. Dastlab g'ildirak qalpoqlarisiz mashina yurmaydigandek tuyuldi. Bitsam, ularsiz ham mashina haydasa bo'larkan. To'rtinchi g'ildirak qalpog'ini yechib, uyimga jo'nadim. Keechasi g'ildirak qalpoqlari va kechagi jarima haqida alg'ov-dalg'ov tushlar ko'rib chiqdim. Ertalab turib oynaga qarab o'zinni o'zim tanimay qoldim. Kirtaygan ko'zlarim ostida xaltachalar paydo bo'lgan, kaffidek basharamda faqat burmim so'ppayib turibdi.

Navbaddagi uch-to'rt kun, Xudoga shuktki, betashvish o'tdi. Biroq, yetinchini sakkizinchi kuni mashinamni

haydovchilar tili bilan aytganda ulkan bir yuk mashinasi „yalab“ o‘tib ketdi. Shunday „yalab“ki, orqa qanoti butunlay, oldingisining yarmi pachoglanib ketdi. Yuk mashinasining haydovchisi bilan g‘ijillashib turganimizda avtoinspektor paydo bo‘lib, bu hodisada har ikkalamiz ham aybdor ekanligimizni, shu sababli bir-birimizga yuz ellik tumandan tovon to‘lashimiz lozimligini tushuntirdi. Xullas, yuk mashinasining haydovchisi bilan o‘pishib, kechirim so‘rashib, yo‘l-yo‘limizga tarqalishdik. Mashinam hali ta‘mirdan chiqmay yotgan paytda birinchi olti yuz tumanni to‘lashimga to‘g‘ri keldi. Ming mashagqalar bilan qarzga pul topib, to‘lovni o‘z vaqtida amalga oshirdim.

Ta‘mirdan chiqqach, bir kun o‘tmadan oq mashinaning old oynasini, portfelimni, tranzistorimni o‘g‘irlab ketishdi.

Yonilg‘iga sarflagan pullarim-chi! Har kuni ertalab yigirma tumanga benzin sotib olaman, kechqurunga ke- lib bak qur-qurug‘ bo‘lib qoladi. Ish tugagach, to‘rt-besh tanishlarim albatta meni kutib turgan bo‘lishadi. Ularni shaharning turli tараflaridagi uylariga ehtib qo‘yishim kerak. Shunday qilmay ko‘ray-chi, darrov „Tumshug‘ing ko‘tarilib qolibdimi!“ deb uyaltirishadi. Aytisam ishonmay-san, uchulasi ham xafa bo‘lishib, men bilan gaplashmay qo‘yishgan.

O‘rgan juma kuni Karajadan qaytayotib rul tyagalari o‘rmidan chiqib ketib, mashina bilan jarga qulab ketishimizga sal qoldi. Omadimiz bor ekan, tirik qoldik.

Kreditning ikkinchi to‘lovidan qutulgan kunlarim mashinaning motori tutaydigan bo‘lib qoldi. O‘sha kunlar amakimning tog‘asi olandan o‘tib, uning jasadini muqaddas Qum shahriga olib borib, jamoza o‘qitishga to‘g‘ri keldi. Bir amallab Qumga ham yetib oldik. To‘satdan amakimni qizining mazasi qochib qoldi. Uni doktorga ko‘rsatish

uchun kechasi yana Tehronga qaytishga majbur bo‘ldik. Yo‘lda uyqusiradim shekilli, tasodifan bir folksvageni tutib yuborib, ellik tuman jarima to‘lashga majbur bo‘ldim...

Oshnanning javrashlari shu darajaga yetdiki, endi uning gaplaridan biror so‘zni tushunmayotganimni his qildim. Uning har bir jumlasidan so‘ng ellik grammdan vaznim kamayib ketayotganligini sezdim. U xuddi ignasi bir chiziqqa tushib qolgan patefon plastinkasi singari hamon qayerda g‘ildirak shinasi yoritilgani-yu, qachon amortizatori singanini, qanday vaziyatlarda jarima to‘lagani-yu, qanday qilib mashinasi chiroqlarini o‘g‘irlatgani haqida tinimsiz javvardi. Xuddi qo‘rqinchli tush ko‘rayotgandek edim. Nihoyat uni tinglashga majolim qolmay, gapini bo‘ldim:

– Hozir qayoqqa ketyapsan?

– Bilasanmi, mashinamni yana ta‘mimga topshirdim. Endi nima bo‘lsayam qarzga uch yuz tuman pul topishim kerak. Darvoqe, o‘zing mushkulimni oson qila olmasanmi?..

*Rus tilidan*  
*Abdumurod Ko‘chiboyev tarjimasi*

*Frans MORA*  
(Vengriya)

**BECHORA SARBOZ**

Buyuk Miklosh Bercheni ham xushfe'l, ham jahldorligi bilan mashhur edi. U arzimagan narsaga jahli chiqib qilichini yalang'ochlar, lekin imidan tushib ketgan qushchani deb otdan tushishdan erinmasdi.

Bir kuni u Vaga sohilda sayr qilib yurib, novcha, baquvvat kishi ho'l arqonni silkitib, bir bolani quvib yurganini ko'rib qoldi.

— To'xta, hamyurt! — deb Bercheni qilich bilan uning yo'lini to'sdi. — Bu bolani nega ayamay savalayapsan?

— Nega urmay, janob? — haligi odam jahl bilan javob qildi. — Men kambag'al baliqchiman, bu bolani xizmatkorlikka yollaganman. Unga qayiqdagi baliqlarga qarab qo'y, suv yetarlimikan, deb buyurdim. U ahmoq nima qilibdi deng? Hamma baliqlarni olib, Vagaga tashlab yuboribdi.

— Daryoda baliq bechoralarning suvi bemalol bo'ladi, — dedi bola va baliqchi yana arqonni ko'tarishi bilan qochib qoldi.

— Ahmoqlik qilma, xo'jayin! — Bercheni xaxolab kulib yubordi. — Qancha zarar ko'rding?

— Kamida yigirmata kumush tanga?

Bercheni unga oltin tanga tashladi va ko'zida yosh bilan qarab turgan bolaning yelkasiiga qoqdi:

— Oting nima, bola?

— Menikini, Mike.  
— Sen menga yoqib qolding, Mike. Sarboz bo'lishni xohlaysanmi?

— Sarbozlik uchun tug'ilganimni bilardim, — bola quvonib ketdi. — Buni qarang, janob, shlapanda xo'roz pati bor.

Bercheni yana kuldi-da, bolani o'z qarorgohiga boshlab ketdi. U yerdan kumush taqimalari bo'lgan kuruts kiyimini berdi, lekin Mike taqimalarini olib qo'yib, so'ng kiydi.

— Taqimalarni qayogga qo'yding? — Bercheni bolani ko'rib hayron bo'ldi.

— Yonimda, xaltamga solib qo'yganman, — dedi Mike mug'ombrona ko'z qisib. — Xaltada tursa eskirmaydi. Qo'rqmang, janob, men kiyimni asrab kiyaman.

— Ko'rib turibman, — Bercheni hafsalasi pir bo'lib kuldi. — Endi ot ustida qanday yurishingni ko'raman.

— Otda ham yuraveraman, minib ololsam bo'lgani, — deb maqtandi Mike.

Lekin u otga minolmadi. Oldin otning oldidan keldi-yu, darhol:

— Tishlab oladi! — deb qo'rqib orqaga tislandi.

Keyin orqasidan kelib minmoqchi bo'ldi-yu, uddalay olmadi: qo'rqqanidan dir-dir titradi.

— Tepib yuboradi, saxovatli janob! — deb ming'illadi bola Bercheniga g'amgin qarab.

— Sendaga odamning qo'limga kelgani — meni ot tepgani bilan barobar! — deb Bercheni jahl bilan mo'ylovini yanlay boshladi. — Eh, bechora sarboz!

Bola unga shu qadar alam bilan qaradiki, unga Berchening yana rahmi keldi.

— Xafa bo'lma, — dedi u. — Eshik oldida sogchilikka yarab qolarsan.

Chindan ham sogchilikka yaragandek edi, ertadan kechgacha chodir eshigi oldida qaqayib turardi. Bercheni chodirdan chidayotib, bolaga mehr bilan qaradi.

– Hoy bola, – dedi Bercheni, – men Tibor tegimoniga boraman. Kapitan Selder kelisa, unga kutib-kutib ketib qolganimni ayt.

– Xo'p bo'ladi, saxovatli janob! – deb bechora sarboz kuruschasiga chesht berdi. – Kelmasa-chi, unda nima deymen?

Bunday farosatsizlikdan Berchenining jahli chiqib ketdi. G'azab bilan bolani itarib, daf bo'lishni buyurdi.

– Ikkinchi ko'zimga ko'rinma, ahmoq! – deb baqirdi orgasidan.

Lekin bola o'sha kuni kechgurun uning ko'ziga ko'rindi. Bercheni uyga qaytib kelganda qorong'i tushib qolgan. Gulxanlar atrofiga yotgan sarbozlar uni oq otidan tanishdi. Faqat bechora sarboz o'rindan turib, qorong'ilikka qarab:

– To'xta, kim u kelayotgan? Otaman! – deb baqirdi.

Bercheni bolani ingichka tovushidan tanidi-da, jahlidan allagachon tushgani uchun quvnoqlik bilan:

– Hech kim! – deb javob berdi.

– Unda boshqa gap, – shunday deb Mike topshiriqni a'lo bajargan odamdek qurolni yerga qo'ydi.

Bercheni u bilan ortiqcha gaplashishni ham xohlamadi. Faqat sarbozni lagerdan darhol haydab yuborishni buyurdi.

– Oldingi xo'jayiniga qaytarsak, yaxshiroq bo'lar edi. Ho'l argon bilan savalab, aql kiritib qo'yardi! – deb to'ng'illadi alam bilan Bercheni tashqarida bolani haydayotgan odamlarning ovozi eshitib.

Shunday qilib, Milkeni tunda haydab yuborishdi. Lekin tong sahar u yana Bercheni chodiri atrofiga aylanib yurardi. Sogchilar oldidan qanday o'lgani noma'lum.

Kurutlar uni yana haydamogchi bo'lganlarida, Bercheni ularni to'xtatdi:

– Bechorani o'z holiga qo'yinglar, mayli, yuraversin. Faqat unga hech qanday ish topshirmanglar.

Bola Bercheniga minnatdorchilik bilan tikildi, uning bu nazarida sarbozning butun qalbi aks etgandek bo'ladidi. O'shandan buyon bola Berchenidan bir qadam ham ajralmay, ergashib yuradigan bo'ldi. Miltiq ovozi eshiksa, yaproqdek titirar, lekin jangda hamisha kuruts sardori yonida bo'lardi.

– Joni shirinlik qilib, menga yopishib yuribdi, – derdi Bercheni kurutlar bu nochor sarboz to'g'risida gap ochgudek bo'lishsa.

U esa hech kimga xalaqit bermas, hech kim bilan gaplashmas, agar biror narsa berishsa – minnatdorchilik bildirar, berishmasa – boriga shukr qilar edi. Sho'x kurutlar uni Berchenining chodiri yonidan haydashagina sodiq kuchukdek to'ng'illardi.

Bercheni esa bolaga e'tibor bermasdi, faqat Trenchen jangi oldidan ertalab hazillashib unga:

– Hoy, jasur kuruts, bugun organdan ergashma, bo'l-masa ta'ziringni yeysan, – dedi.

Bechora sarboz Bercheni nihoyat u bilan gaplashgandan sevinib, o'zini qo'yarga joy topolmasdi. Kurutlarni kuldirib, qirov bosgan dalada o'mbalog oshardi, uni otlar toptab yuborishiga sal qoldi.

– Bechora, o'limini sezyapti, – deyshardi rahmdilroq odamlar.

– Bizning o'lishimizni sezyapti, – dedi Bercheni va kutib qo'ydi.

Shu payt kamaylar chalindi, jang boshlandi. Bechora sarboz Berchenining to'rig'iga yopishgancha xo'jayini orgasidan soyadek yurardi.

Boshqa hamma kurutlar tarqalib ketishganda ham u Berchening yonida edi, qo'shimcha guruhlar esa uzoqda. Mana, Berchening oti ham quladi, labanlar unga o'nta nayzani o'qtalishdi.

– Bugun jang qizg'in bo'ladi, deb aytgan edim-ku sen-  
ga, o'g'lim, – dedi Bercheni va dushman hamlasini qayta-  
rib, yelkasi bilan murdalarga tayanib, shiddat ila qilich sola  
boshladi.

Lekin endi bu foydasiz edi. Uzun po'lat nayzalar yaqin-  
lasha boshladi.

Xuddi shu daqiqada bechora sarboz sakrab oldinga  
o'tdi-da, o'nta nayzani quchoqlagancha Bercheniga qarab  
baqirdi:

– Janob, choping qo'rqoq labanlarni!

O'nta nayza birdan bolaga sanchildi. Ammo Bercheni  
qutuliib qolgan edi, u dushman ustiga sherdek tashlandi.  
Kurutlar sardori dushmanga qiron keltirgach, yig'lagan-  
cha sarboz ustiga engashdi, bechora o'lganda ham yuzida  
mayin tabassum qotib qolgandi.

– Jasur jangchim mening! – Bercheni alam bilan  
ho'ngrab yig'lab yubordi.

Kurutlar uni bola jasad yonidan zo'rg'a olib ketishdi.

*Rus tilidan*  
*Haydar IBROHIMOV tarjimai*

*Ivan BUNIN*  
*(Rossiya)*

## SOVUQ KUZ

O'sha yilning iyun oyida U qo'ramizda mehmon bo'ldi.  
U doim o'zimizning odam sanalardi: rahmati otasi otam-  
ning ham do'sti, ham qo'shnisi edi.

Ferdinand Sary shahrida o'n beshinchi iyun kuni  
o'ldirildi. O'n oltinchi iyun ertalab esa pochadan gazeta  
keldi. Otam qo'lida „Kechki Moskva“ gazetasi, xonasidan  
chiqib, bizlar – U, oyim va men hanuzgacha choy ichib  
o'tirgan yemakxonaga kirdi-da:

– Mana endi, do'stlarim, urush! – dedi. – Saryda  
Avstriya shahzodasi o'ldirilibdi. Bu – urush degani!

Avliyo Pyotr kuni – otamning tavallud sanasi edi –  
biznikiga juda ko'p mehmon keldi, tushlik mahali me-  
ning unga unashtirilganim ma'lum qilindi. Biroq, o'n  
to'qizinchi iyulda Germaniya Rossiyaga urush ochdi...  
Sentabrda U biznikiga faqat bir kunga – urushga jo'nash  
oldidan xayrlashgani keldi (u paytlar hamma urush tez-  
da tugaydi, deb o'ylar va shuning uchun ham to'yimiz  
ko'klamga qoldirilgan edi). Mana, xayrlashuv oqshomi.  
Kechki ovqatdan so'ng, taomilga ko'ra samovar olib  
kiritildi, shunda otam bug'dan terlagan deraza oynasiga  
tikilib dedi:

– Ajab barvaqt va sovuq kuz!

Biz o'sha oqshom sokin o'tirar, haddan tashqari bosiq,  
botiniy o'y va tuyg'ularimizni sir tutgancha, ahyon-ahyon-  
da bir-birimizga shunchaki so'z qotib qo'yar edik. Otam-

ning kuz haqidagi gapida ham yolg'ondakam loqaydlik bor edi. Men balkon eshigiga yaqinlashib, ro'molcham bilan oynani artdim: bog' uzra qop-qora osmondan shaftof muz bo'laklariga o'xshash qitrador va ravshan yulduzlar charaqlardi. Otam gavadasini o'rindiq suyanchig'iga tashlagancha, stol tepasidagi qizib ketgan osma chiroqqa parishon tikilib tamaki tutardi, ko'zoynak taqqan oyim esa chiroq yog'dusida kamoli diqqat bilan ipak xalacha tikardi — biz uning nima ekanini yaxshi bilardik — bu holat ham ta'sirchan, ham dahshatli edi. Otam Undan so'radi:

— Shunday qilib, baribir nonushtaga qolmay, etralab barvaqt ketmoqchiman, degin?

— Ha, agar ruxsat etsangiz, etralab, — deya javob berdi U. — Ming taassuf, lekin hali uydagilarimga biron-bir ko'rsatma ham bergan emasman.

Otam yengil so'lish oldi:

— Mayli, ixtiyoring, azizim. Gap shunaga ekan, u holda oying bilan biz endi uxlaylik, etraga seni, albatta, kuzatib qo'yimoqchimiz...

Oyim o'midan turib, bo'lajak kuyovini cho'qintirdi. U esa avval oyimning, keyin otamning qo'lini o'pdi. Ikkiniz xoli qolgach, biz tag'in bir muddat yemakxonada bo'ldik — men qarta suzishga tutindim, U esa xonaning u burchidan bu burchiga jim borib kelardi, saldan keyin:

— Xohlaysanmi, biroz aylanib kelamiz? — deb so'radi.

Ko'nglim tobora xiralashib borardi, loqaydgina javob berdim:

— Mayli...

U dahlizda kiyina turib nima haqdadir o'ylarkan, miyig'ida jozibali kulganча Fetning she'rini esladi:

*Sovug' errur bu kuz naqadar!  
Nimchangni kiy, sholingni o'ra...*

— Nimcha yo'q, — dedim. — Keyin nima edi?  
— Yodimda yo'q. Yanglishmasam, mana bunday shekilli:

*Go'yo yong'in asta yulkalar,  
Qarag'aylar oralab, qara...*

— Qanaga yong'in?

— Oying chiqishini aytmoqchidir-da. Bu misralarda qishloq kuzining allaganday tarovati bor: „*Nimchangni kiy, sholingni o'ra...*“ Bobolarimiz va buvilarimiz zamon... Eh, Xudoyim-ey, Xudoyim-ey!

— Senga nima bo'ldi?

— Hech narsa, azizam. Baribir mungli. Ham mungli, ham yaxshi. Men juda, juda yaxshi ko'raman seni...

Biz kiyinib, yemakxona orqali balkonga chiqdik, undan bog'ga tushdik. Avvaliga shu qadar qorong'i ediki, men beixtiyor uning yengidan ushlab oldim. Keyin javohirdek yargiroq yulduzlarga ko'milgan butoqlarning uchlari yori-shayotgan ko'kda qorayib ko'rina boshladi. U to'xtab, uy tomonga o'girildi:

— Qara, derazalar qandaydir boshqacha, kuzga xos mayin yog'du sochyapti. O'lmasam, bu ogshomni hech qachon unutmaman...

Men uyg'a qaradim, U meni shveysarcha yoping'ichim ustidan quchdi. Tivit ro'molimini sal ochib, o'psin deb boshimini sezilar-sezilmas orgaga tashladim. O'pgach, yuzimga tikildi.

— Ko'zlaring qanday charaqlaydi-ya, — dedi. — Sovqotmayapsanmi? Havoni qara, qishning o'zginasi. Mabodo o'lib ketsam, har qalay, meni darrov unutib yubormassan? Men o'ylab goldim: „Rostdan ham o'ldirib qo'yishsa-ya?! Nahotki, men Uni qandaydir qisqa muddatga bo'lsa ham yodimdan chiqarsam, axir, bu dunyoda hamma narsa

bir kun kelib unutiladi-ku?" O'z o'yimdan o'zim cho'chib, shoshib javob berdirm:

– Unday demal! Sen o'lsang, men ortiq yasholmayman! U biroz jim qolgach, dona-dona qilib dedi:

– Nachora, agar o'lsam, men seni u yoqda kutaman. Sen to'yib yasha, bu yorug' dunyoda xo'b o'ynab-kul, keyin yonimga borigin.

Men alam bilan ho'ngrab yubordim.

Ertalab U ketdi. Oyim kecha o'zi tikkan o'sha mash'um xaltachani Uning bo'yniga osib qo'ydi – xaltachada oyimning ota-bobolari urushlarda taqib yurgan jajji oltin but bor edi, – keyin biz Uni allaganday hayajonli noumidlik bilan cho'qintirdik. So'ng Uning ortidan tikilib, kimnidir uzoz safarga kuzatayotganingda bo'ladigan gangish ichida, faqat biz bilan ilk quyosh nurlaridan o't-o'lanlar uzra yargirab yotgan qirovni, farahbaxsh tong o'rtasidagina vujudga kelgan zidlikni his etgan ko'yi eshik oldidagi zinada qotib turdik. Birozdan keyin huvullab qolgan uyga qaytib kirdik. Men yelkalarimni mahkam quchgancha, nima qilishga hayron, bor ovoz bilan ho'ngrashni ham, qo'shig' ayushni ham bilmay xonalar bo'ylab tentiy boshladim...

Uni o'ldirishdi – qanday dahshatli so'z! Galitsiyada bir oydan so'ng o'ldirishdi. Mana, o'shandan beri o'ttiz yil o'ldi. Uzundan uzoz tuyulgan bu yillar mobaynida boshimdan ko'p, juda ko'p vogelar kechdi: ular haqida diqqat bilan o'ylar ekansan, kechmish deb atalgan bu sirli, anglash mushkul, aql ham, yurak ham bovar qilmaydigan hodisalarni xotirangda birma-bir saralaysan kishi. O'n sakkizinchi yilning ko'klamida, otamdan ham, onamdan ham ajralgan damlar, men Moskvada, Smolensk bozoridagi: „Bekam endi qalaysiz, qatq bersam yalaysiz?" – deb doim ustimdan kuladigan chaygovchi xotinning yer-to'lasida istiqomat qilardim. Men ham chaygovchilik bilan

shug'ullanar, u paytlardagi ko'plar qatori, goh qandaydir uzukmi, goh jajji xochmi, goh kuya yegan mo'ynami – qolgan-qutgan ba'zi narsalarimni papaq kiygan, shinellari yogavayron askarlarga pullar edim. Ana o'shanda, kunlardan bir kun bozorning Arbatga tutash burchagida, kandan kam uchraydigan go'zal qalbli, iste'foga chiqqan harbiy kishi bilan tanishdim, tez orada turmush qurib, u bilan Yekaterinodarga jo'nab ketdim. Erimning ko'ngillilarga qo'shilishga intilgan o'n yetti yoshlardagi jiyani ham biz bilan birga edi. Salkam ikki hafta yo'l yurdik: men – chip-ta kavushdagi qishloqi ayol, u – ohori to'kilgan kazakcha chakmoni, uzun soqoliga oq oralagan dehqon, xullas, Don va Kubanda ikki yildan ortiq yashadik. Qishda, dengizda bo'ron qo'zg'algan bir paytda boshqa son-sanosiz qochqinlarga qo'shilib, Novorossiyskdan Turkiyaga qarab suzdik; yo'lda erim terlamadan o'ldi. Shundan keyin bu yorug' dunyoda mening uchtagina yaqin kishim qoldi: erimning jiyani, uning yoshgina xotini va ularning qizchasi – yetti oylik chagaloc. Lekin ko'p o'tmay, erimning jiyani go'dakni menga topshirib, xotini bilan Qrimga, Vrangeli panohiga jo'nab qoldi. Shu-shu, ular bedarak ketishdi. Men esa og'ir qora mehnat bilan ham o'zimni, ham qizchani boqib, yana ancha vaqt Istanbulda yashadim. Keyin qizchani yetaklab, ko'plar qatori ne-ne yurtlarda sargardon bo'lmadim deysiz! Bolgariya, Serbiya, Chexiya, Belgiya, Parij, Nitssa... Qizcha allagachon ulg'ayib, juda yoqimtoy, ammo menga butunlay befarq qaraydigan fransuz qiziga aylanib, Parijda muqim yashab qoldi, u endi Madlen yaqinidagi gandolat do'konida xizmat qilari, kumushrang tirnoqli nozik qo'llari bilan shokolad qutilarini silliq qog'ozlarga o'rari va uni zarin bog'ichlar bilan tugib, xaridorlarga tutqazar edi; men esa Xudo bergan nasibaga qanoat qilib, to hanuz Nitssada yashayman... Nitssada birinchi marta ming to'qiz yuz o'n

ikkinchi yili bo'lgan edim – uning keyinchalik men uchun xor-zorliklar maskaniga aylanishini o'sha baxtiyor kunlarimda xayolimga keltira olarmidim!

Bir paytlar o'ylamay-nemay, sen o'lsang, ortiq yasholmayman, degan odam – men ana shunday qilib, Uning o'limidan keyin ham yashayverdim. Biroq, o'shandan buyon boshimdan kechgan savdolarini eslar ekanman, doim o'z-o'zimdanda so'rayman: xo'sh, u kunlardan nima qoldi? So'ng o'zingga o'zim javob qilaman: birgina o'sha – sovuq kuz oqshomi... Nahotki, hayotimda shunday oqshom bo'lgan? Ha, bo'lgan edi. Umr bo'yi ko'rgan kunim faqat shu, qolganlari ma'nisiz tushdek o'tdi-ketdi. Va men ishonaman, juda qattiq ishonaman: qaydadir u yoqda, huv o'sha oqshomdagidek navqiron muhabbat-yu o'sha yoshligi bilan U meni kutmoqda. "Sen to'yib yasha, bu yorug'dunyoda xo'p o'ynab-kul, keyin yoninga borin..." Men to'yib yashadim, xo'p o'ynab-kuldim, endi tezda yoningga boraman.

*Rus tilidan  
Abdulla SHER tarjimasi*

*Ryunoske AKUTAGAWA  
(Yaponiya)*

## O'RGIMCHAK TOLASI

Kunlarning birida Budda jannat hovuzining bo'yida tanho kezib yurardi. Hovuz yuzasi marvariddek oq nilufarlar bilan qoplangan, ularning gulkosalaridan chor atrofga zarif va muattar bo'y taralar edi.

Jannatda tong pallasi edi.

Xayollar og'ushiga cho'ngan Budda to'xtadi-yu, ko'zi birdan nilufar gullarining enli yaproqlari aro jilvalanayotgan suv oynasiga tushdi. Nilufar hovuzining tubida g'alati manzara namoyon edi.

Jannat hovuzining chuqurligi do'zaxgacha borib yetgandi.

Shaffof suvda Igna tog'i va Sandzu daryosi xuddi zarra-bin ko'zchasidagidek yaqqol, ochiq-oydin ko'rinish turardi.

Tubsiz do'zax osiy bandalar bilan to'lib-toshgan. Buddaning nigohi Kandata ismli bir osiyga tushdi.

Kandata ashaddiy qarog'chilardan edi. Qarangki, juda ko'plab qabihliklar qilgan – o'ldirgan, talagan, odamlarining xonumonini kuydirgan shu bandaning nomayi a'molida ham bittagina xayrli ishi bor ekan.

Kunlardan bir kun Kandata o'rmon oralab yurganida, so'g'moq ustida pildirab ketayotgan o'rgimchakka ko'zi tushadi. Kandata uni bosish uchun oyog'ini ko'taradi-yu, o'ylanib qoladi: „Yo'q, kichik bo'lsa ham, baribir tirik jon-zot-ku. Bekordan bekorga o'ldirib savob topmayman.“

O'rgimchakka tegmaydi.

Do'zax tasvirlarini tomosha qilarkan, Budda qarog'chi Kandataning o'rgimchakka rahm qilganini eslab, ilojini topsa, birgina shu xayrli ishi uchun bu osiy bandani do'zax changalidan qutqarmoqchi bo'ldi. Tasodifi qarangki, shu payt yonida jannat o'rgimchagini ko'rib qoldi. O'rgimchakdan chiqqan ajoyib kumush tola yashma toshlaridek yam-yashil nilufar yaprog'iga ilinar edi.

Budda ehtiyotkorlik bilan to'lani qo'liga olib, uning bir uchini marvaridek oq nilufarlar orasidan suvga tushirdi. Tola eshila-cho'zila, axyri do'zax tubiga yetib bordi.

\* \* \*

Kandata do'zax tubidagi Qon ko'lida boshqa gunohkorlar qatori goh yuqoriga suzib, goh girdobga cho'kib, ayanchli qiynoqlarga chidashga majbur edi.

Qayvoga boqmang, hamma yoqni zim-ziyo qorong'ilik qamrab olgan. Gohi-gohida nimadir qorong'ilikda milt-milt yoritish ko'rinar, xolos. Bu — dahshatli Igna tog'ining ignalari edi. Mazkur ko'rinishning butun dahshatini tasvirlashga so'z topish amrimahol. Atrof go'yo qabristondagidek jimjit. Faqat ora-sira osiyarning unsiz xo'rsinishlari quloqqa chalinadi.

Do'zax tubida ko'plab azob-uqubatlarga duchor bo'layotgan bu gunohkor bandalarning ingrash-u oh-voh qilishga ham majollari qolmagan edi.

Qon ko'lining qonida cho'milib nafasi qaytayotgan buyuk qarog'chi Kandata ham joni uzilayotgan qurtbaqadek unsiz tipirchilab qo'yardi, xolos.

U tuyqus boshini ko'tarib, qon ko'lining ustidagi qorong'ilikka qaradi. Bu tin qora bo'shliq aro, uzoq-uzoqlardagi osmondan, o'zidan zaifgina yog'du taratib, go'yo

boshqa gunohkorlar sezmasligi uchun ehtiyotkorona, bir maromda, o'rgimchak tolasi tushib kelayotgan edi.

Kandata quvonchdan qarsak chalib yubordi. Bu tolaiga ilinib olsa bas, asta-sekin yuqoriga ko'tarilaveradi. Qarab-sizki, do'zax azobidan forig' bo'lib turibdi-dal! Ajabmas, omadi chopib jannatga ham tushsa. Unda hech kim hech qachon Igna tog'ining cho'qqisiga haydab, yana Qon ko'liga tashlamaydi.

Shu umid bilan yuragiga o't yoqib, o'rgimchak uyasi-ning tolasiga ikki qo'li bilan qatiq yopishib olib, bor kuchi bilan tepaga tirmasha boshladi. Pixini yorgan o'g'ri uchun bu oppa-oson ish edi.

Ammo jahannamdan jannat makonigacha ming-minglab ri'l masofa bor.

Harchand urinmasin, tog' tepasiga yetib olish oson bo'lmadi. Yuqoriga tirmasha-tirmasha chiqayotgan Kandamani, ha, ha, hatto shunday pahlavonni ham charchoq yengdi. Bir nafasda osmongacha chiqolmadi.

Bir muddat to'xtab, nafas rostdashdan boshqa iloji yo'q edi. U to'xtab, o'rgimchak uyasining tolasida osilganча dam olarkan, pasga, chuqur jarlikka qaradi.

Ha, Kandataning chirmashishlari zo'ye ketmagan edi. Hozirgina o'zi azobdan qutulgan Qon ko'li qorong'ilik bag'riga singib yotibdi. Jahannam tubida xira yilitrayotgan qo'rqinchli Igna tog'ining cho'qqisi endi uning oyog'i ostida. Agar yana shunday chaqonlik bilan tirmashishda davom etsa, jahannam changalidan qutulishi aniq edi.

O'rgimchak tolasini mahkam qisgan Kandata ko'p yillardan so'ng yana birinchi bor inson ovozigaga ega bo'ldi va qah-qah o'tib kulganча qichqirdi:

— Xalos bo'ldim! Xalos bo'ldim!

<sup>1</sup> Ri — masofa o'leho'vi.

Ammo birdan, pastda boshqa son-sanogsiz gunohkor bandalarning ham o'rgimchak uyasining tolasiga tirmashib olgancha, xuddi chumolidek saf-saf bo'lib tobora balandga o'rnatib chiqayotganliklarini ko'rdi.

Bu manzaradan qo'rquv va hayratga tushgan Kandanning ko'z soqalari o'ynab, merovlaracha katta ochilgan og'zi yopilmay qoldi.

Bu nozik tola uning o'zini zo'rg'a tutib turibdi-yu, shuncha odamni qanday ko'taradi?! Tola chirt uzilsa bormi, unda o'zi — o'ylayapsizmi, o'zi ham — shuncha azoblar bilan amallab ko'tarilib olganida, oyog'i osmondan bo'lib yana pastga uchadi-ya!..

U o'ylar ekan, osiy bandalar Qon ko'lining tubidan mo'r-malaxday o'rnatib kelishar edi. Yuzlab, minglab gunohkorlar uzun zanjirdek cho'zilib, shoshgancha o'ziga yog'du sochayotgan o'rgimchak tolasini bo'ylab chiqishardi.

Tezroq, tezroq biror tadbir qo'llashi kerak, bo'lmasa, hozir tola uziladi-yu, jahannam qa'riga uchadi.

Shunda Kandata bor ovozi bilan hayqirib yubordi:

— Hoy osiylar! Bu tola meniki! Sizlarga kim ijozat berdi? Qani, tezda pastga tushinglar! Pastga tushinglar!

Ammo o'sha soniyada nima bo'ldi deng'?

Shuncha vaqt bus-butun, hech bir shikastsiz turgan o'rgimchak uyasining tolasini aynan o'sha Kandata ilinib turgan joyidan chirt etib uzildi!

U oh-voh qilishga ham ulgurmay, chirpirak bo'lib, shamoldek g'uvullab pastga, qorong'ilik tubiga uchib ketdi.

Faqat o'rgimchak uyasi tolasining bir kichik bo'lagina, jahannamning yulduzsiz, oysiz osmonida o'z shu'la taratib osilib turardi.

\*\*\*

Budda Nilufar hovuzining chetida turib, nimalar bo'layotganini boshdan oyoq kuzardi. Kandata xuddi ulotirilgan toshdek, Qon ko'lining tubiga cho'kkanida Buddaning yuzi ma'yus tortib, yana o'z sayrida davom etdi.

Kandanning yuragiga mel'r-shafqat tuyg'usi begona ekan. U qanday qilib bo'lsa ham, faqat o'zim jahannamdan qutulib qolay, degan edi. Shunga yarasha jazosini oldi: do'zax girdobiga itqitib yuborildi. Budda uchun bu ayanchli va ezgin manzaraga aylandi.

Nilufar ko'lidagi nilufarlar esa bularning bariga beparvo edilar.

Ularning marvariddek oppoq kosachalari Buddaning poyida ohista chayqalardi.

Buddaning har bir odimi bilan nilufarlarning gulkosalaridan chor atrofga zarif va muattar bo'y taralardi. Jannatda vaqt peshingga yaqinlashib qolgandi.

*DiShod Nurulloh tarjimai*

*Somerset MOEM*  
(*Angliya*)

**LUIZA**

Luiza nega meni o'ziga yaqin olganiga sira aqlim yetmaydi. U meni yomon ko'rardi. Imkon bo'ldi deguncha ortimdan xunuk gaplarni gapirishini sezib yurardim. Yoq-timastligini ochiq aytmasa-da, pichinglari-yu, xo'rsinishlaridan, chiroyli qo'llarini silkitishlardan ham buni tushunib olish qiyin emasdi. Bir-birimizni yigirma besh yildan beri yaqindan bilardik. Lekin bu narsaning Luiza uchun hech qanday ahamiyati yo'q edi. U meni qo'pol, surbet va shafqatsiz odam deb hisoblardi. Shunaqa yomon ko'arkan, nega meni holi-jonimga qo'ymaydi, boshimni qotiradi. Dam-badam nonushta yoki tushlikka chaqirar, dam olish kunlari shahar tashqarisidagi uyiga ham yiliga bir necha marta taklif qilardi. Ehtimol, yolg'iz mengina uning niqob ostidagi haqiqiy qiyofasini ko'rishga qodiriligini Luiza bilgandir. Men ham ertami kechmi, yuzimga shunaqa niqob kiyishimga umid qilgandir.

Luizani qizlik paytidanoq bilardim. O'sha paytlari u katta-katta ko'zlari ma'yus boquvchi nimjongina qiz edi. Ota-onasi Luizani haddan ziyod yaxshi ko'rar, yer-u ko'kka ishonishmasdi. Bunga Luizaning dardchilligi ham sabab edi. Bilishimcha, Luiza bolaligida qizilcha kasaliga chalinib, yuragi zaiflashib qolgan, endi u o'zini har tomonlama asrab-avaylab yashashga majbur edi.

Tom Metlend uning qo'lini so'raganida, qizning otonasi qo'rqib ketishdi. Ular Luizaning bu ahvolda erga

tegishga umuman yaramasligini bilishardi. Lekin ular boylar toifasidan emasdilar. Tom Metlend esa badavlat odam edi. U, Luiza xohlasa, osmondagi oyni ham olib berishga va'da berdi va oxir-oqibat ular qizini Tom Metlendning qo'lga ishonib topshirishdi. Tom qoruvli, kuchli va kelishgan yigit bo'lishi bilan birga, yaxshigina sportchi ham edi. U Luizani jonidan ortiq yaxshi ko'radi. Yuragi xasta sevgilisidan yaqin orada judo bo'lishini bilardi, Luiza qolgan sanoqli yillarini baxti o'tkazishi uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qilishga hamisha tayyor edi.

U ilgari qoyilmaqom qilib bajarib yurgan sport mashqlaridan ham voz kechdi. Yo'q, Luiza shunday bo'lishini xohlagani uchun emas, biror yoqqa ketmoqchi bo'lib turgan paytida har gal Luizaning yuragi sanchib qolgani uchun mashqlardan voz kechdi. Janjallashib qolishgan vaqtlarida Luiza eng yaxshi xotin qiyofasiga kirib, darrov Tomga yon bosardi. Keyin Luizani yuragi bezovta qilargi va u bir hafta musichayi beozor bo'lib, to'shakka mixlanib yotardi. Shunday paytlarda Tom xotiniga qattiq gapirishga yuragi belalmasdi.

Bir safar Luiza o'zi judayam xohlab sayrga chiqib, sakkiz mil yavov yo'l yurganini ko'rib, Tom Metlendga Luizaning sog'ligi uncha-muncha ayollarnikidan yaxshi ekanligini aytdim. Tom boshini chaygab, xo'rsindi:

— Yo'q, Luiza, aslida, judayam zaif. U dunyodagi eng yaxshi yurak mutaxassislari ko'rigidan o'tdi. Hammasi Luizaning sanoqli kunlari qolganini aytdi. Metin irodasi borligi uchun ham hozir o'zini shunday tutayapti.

Tom gaplarini Luizaga aytdi.

— Buning azobini ertaga ko'raman, — dedi Luiza menga qarab „uh“ tortarkan. — Yana o'lim bilan yuzma-yuz bo'laman.

– Baʼzida menga sizda hech qanaga kasallik yoʻqday tuyuladi, – dedim sekingina.

Gashtli oʻtgan mehmondorchiliklarda Luiza ertalabki beshlargacha rags tushib charchamaganini, befoyaz oʻtirishlarda esa mazasi qochib, Tom uni uyiga vaqti olib ketganini bir necha marta koʻrgandim. Menga qarab siniqqina kulib qoʻygan boʻlsa-da, boyagi gapim Luizaga yoqmagani sezdim. Katta-katta koʻk koʻzlaridan kayfi qoqchganligi bilinib turardi.

– Men sizni xursand qilish uchun oʻlayotganim yoʻq, – dedi u.

Luiza eridan ham koʻproq yashadi. Bir kuni ular yelkanli qayiqda sayr qilib qayitishganidan keyin Tom qattiq shamollab qolib, jon taslim etdi. Luizani isitish uchun uni uyda bor gilam-u koʻrpalar bilan oʻrab qoʻyishga toʻgʻri keldi. Tom Luizaga katta bisot va bir qiz qoldirib ketdi. Luiza tasalli topmaydigan bir ahvolga tushib qoldi. Xasta yuragi bilan bu kulfatni koʻtara olganiga aql bovar qilmasdi. Bechora Tom Metlendi tuproqqa qoʻyishda Luizaning doʻstlari unga dalda boʻldilar. Ular onasidan ham ajralib qolishi mumkin boʻlgan Luizaning qizi Irisga chindan qaygʻura boshlagan edilar. Shu bois, Luizaning tevaragida girdikapalak boʻlishardi. Doʻstlari Luizaning qoʻlini sovuq suvga urdirmadi, uni turli tashvishlardan xoli qilish uchun har qanday narsaga tayyor ekanliklarini bildirishdi. Darhaqiqat, ularga ish ham topildi, chunki Luiza biror ogʻirroq yoki yoqmaydigan yumush qilmogʻchi boʻlsa, yuragi sanjib, bir oʻlib-bir tirlardi. „Agar birov menga koʻz-quloq boʻlib turmasa, oʻlishim aniq“, derdi Luiza. Shu ahvolda qizalogʻi Irisni qanday katta qilishiga aqli yetmasdi. „Nega yana erga tegmaysiz?“, deb soʻrashardi doʻstlari. „Oh, bu yuragim bilan erga tegish haqida oʻylashga ham botinolmayman“, derdi Luiza.

Lekin Tomning oʻlimidan keyin bir yil oʻtgach, Luiza qoʻlini soʻragan Jori Xobauzga rozilik berdi. Jori kelishgan va anchagina badavlat odam edi. Bu nimjon ayolni panohiga olishga rozilik berishganida Joridan baxtiyor odamni koʻrmadim.

– Men sizni koʻp qiynamayman, – derdi Luiza.

Jori shuhratparast harbiylardan edi. Lekin ishini tashlab qoʻydi. Luizaning sogʻligʻi yomonlashib, qishni Monte Karlo, yozni esa Dyuvilda oʻtkazishga majbur boʻldi. Jori uch-toʻrt kunlik umri qolgan xotinini qoʻlidan kelgancha xursand qilishga ahd qildi.

– Hayotim tugab boryapti, – derdi Luiza. – Tinchgina oʻlishga harakat qilaman.

Keyingi ikki-uch yil mobaynida Luiza xasta yurak bilan chiroyli kiyimib, eng qizgʻin bazmlarga borishni, doʻstlari pul tikib qimor oʻynashni, baland boʻyli, chiroyli yigʻitlar bilan rags tushishni va hatto ularga noz-kaarashma qilishni ham epladi. Luizaning birinchi eridagi matonat Jori Xobauzda yoʻq edi va u Luizaning ikkinchi eri sifatida zimmasidagi tashvishlardan zerikib, ora-sira ichib yurishga majbur boʻldi. Albatta, Jorining aroqqa mukkasidan ketishi Luizaga yoqmasdi. Ammo (Luizaning baxtiga) urush boshlandi. Jori zahiradan oʻz polkiga qaytib, uch oydan keyin halok boʻldi. Bu zarba Luizani esankiratib qoʻydi. Lekin shunday musibatan keyin ham u gʻam-gʻussaga tushmasligi lozimligini his qilardi. Agar oʻsha paytda yuragi xuruj qilganda hech kim bu haqda xabar topmagan boʻlardi. Oʻzini chalgʻitish uchun Luiza Monte Karlodagi villasini oyogʻga turayotgan ofitserlarga moʻljallangan shifoxonaga aylantirdi. Doʻstlari unga bu tashvish ogʻirlik qilishini aytishdi.

– Bu ish meni oʻldirishi aniq, – dedi u. – Bilaman. Lekin buning nima ahamiyati bor? Boshqalarga yordam berishim kerak.

Luiza o'lmadi. Qaytaga avvalgidan ham yashnab ketdi. Uning shifoxonasiga teng keladigan kasalxona butun Fransiyada yo'q edi. Uni tasodifan Parijda uchratib qoldim. Restoranda novcha va juda kelishgan yosh fransuz bilan tushlik qilayotgan ekan. „Bu yerda shifoxonaga aloqador ishlar bo'yicha yuribman“, deb tushuntirdi u. Luiza kasalxonadagi ofitserlar unga mahiyo ekanligi haqida gapirdi. Ular Luizaning kasali og'irligini tushunisharkan va unga hech qanday yumush qoldirishmas ekan. Go'yo ular Luizaga eridek g'amxo'rlik qilisharkan. Luiza xo'rsindi.

– Bechora Jori, shu yuragim bilan undan ko'p yashashimni kim ham o'yladi deysiz?

– Eh, bechora Tom, – dedim men.

Nega bu gapim unga yodmagani tushunmayman. U menga siniqgina jilmaydi, ko'zlari yoshga to'ldi.

– Doim o'limimni kutayotgandek gapirasiz...

– Aytmoqchi, yuragingiz ancha sog'ayib qolibdi, deb eshiddim?

– Yuragim hech qachon sog'aymaydi. Bugun ertalab shifokor ko'rigiga bordim. O'lishga tayyor bo'lib turishimni maslahat berdi.

– Yo'g'e, bunga yigirma yildan beri tayyorlanasiz-uli.

Urush tugagandan keyin Luiza Londonga ko'chib o'tdi. Endi yoshi qirqdan oshib qolgan, avvalgidek ozg'in va nimjon, ko'zlari katta-katta, yuzlari rangpar ayol bo'lsa ham, yigirma beshdan oshmagandek ko'rinar. Maktabni tugatib, bo'yga yetib qolgan Iris esa u bilan birga yashay boshlagandi.

– U menga qaraydi, – derdi Luiza. – Turgan gap, mendek gari nogiron bilan yashash unga qiyin bo'ladi. Lekin bu bir-ikki kun davom etadigan narsa. Irisning yo'q demasligi aniq.

Iris juda yaxshi qiz edi. Unga onasining sog'lig'i yomonligini muntazam uqitib voyaga yetkazishgandi. Bola bo'lib u biror marta ham to'polon qilmagandi. Onasini yolg'iz qoldirish mumkin emasligini doim yodida saqlardi. Mana endi Luiza qiziga: „Hammaning joniga tekkankessa ayol uchun o'zingni bag'ishlashingga chiday olmayman“, deb qancha gapirmasin, qiz bu gaplarga qulog' solmadi.

Luiza „uh“ tortib, qiziga farzandlik burchini ado etishga ruxsat berdi.

– Bolamga menga g'amxo'rlik qilish yogadi, – dedi u. – Do'stlari bilan birga yurgani yaxshimasmid? – deb so'radim.

– E, buni unga doim aytaman. Do'stlaring bilan o'ynab-kulib yur, deb hech ko'ndirolmadim. Tepada Xudo bor, birovning meni deb huzur-halovatini yo'qotishini hech qachon xohlamagannan.

Men bu gaplarni Irisga aytganimda, u shunday dedi: „Bechora oyijonim, mening do'stlarim bilan birga bo'lishimni, o'tirishlarga borishimni xohlaydi, endi biror joyga boraman deb turganimda yuraklari sanchib qoladi, shuning uchun uyda qolganim yaxshi“.

Lekin ko'p o'tmay Iris bir yigita ko'ngil qo'ydi. Yosh do'stim, bama'ni bir yigit uning qo'lini so'radi va qiz rozi bo'ldi. Irisni juda yaxshi ko'rardim. Nihoyat o'zi uchun ham yasharkan-da, deb quvondim. Lekin bir kuni o'sha yigit tushkun bir ahvolda oldimga kelib, to'y qoldirilganini aytdi. Iris onasini tashlab ketolmas ekan. Bu mening ishim bo'lmasa ham, bahona topib, Luizanikiga bordim. Choy ichib o'tirgan paytida do'stlari kelib qolsa, u doim xursand bo'lardi.

– Iris erga tegmas ekan, deb eshiddim? – dedim mud-daoga o'tib.

– Bilmayman. Men xohlaganim bilan u erga tegmaydi... Meni o'ylamay erga tegaver, deb tiz cho'kib iltimos qilam ham, „Sizni tashlab ketolmayman“, deyapti.

– Qizingizga jabr qilmayapsizmi?

– Balki. Lekin bu bir-ikki oy davom etadi. Buning ustiga men „O'z hayotidan voz kechib, menga qarasin“, deyotganim yo'q-ku.

– Azizim Luiza. Bir-ikki oy, deb ikki eringizni ko'mdingiz. To'g'ri, nimaga endi yana uch-to'rttasini narigi dunyoga jo'natmasligingiz kerak!

– Bilaman! Men haqimda nima deb o'ylab yurganingizni. Yuragimning kasal ekaniha hech qachon ishonmangansiz, shundaymi?

Luizaning ko'ziga tik qaradim.

– To'ppa-to'g'ri. Siz yigirma besh yil hammani laqillatdingiz. Siz dunyodagi eng xudbin, eng qabih ayolsiz. Anavi ikkita badbaxt erkakning umriga zomin bo'ldingiz. Endi bo'lsa qizingizni ham shu ko'yga solmoqchisiz.

Agar o'sha payt Luizaning yuragi to'xtab qolganda hayron bo'lmasdim. Uning quyushqondan chiqib ketishini kutgandim. U esa menga qarab muloyim jilmaydi.

– Bechora do'stim, bu gaplarni menga aytganingizdan yaqin kunlarda shunday afsuslanasizki...

– Endi Iris o'sha bolaga erga tegmaydimi?

– Erga teg, deb qizimdan iltimos qildim. Meni tashlab ketisa, o'lishimini bilaman. Mayli. Baribir, hamma meni yomon ko'radi. Odamlarga ortiqcha yukman...

– Tashlab ketasang – o'laman, deb unga aytdingizmi?

– U meni shunga majbur qildi.

– O'zingiz biror ish qilishni xohlamasangiz, hech kim sizni majburlay olmaydi.

– Xohlasa, o'sha yigitga etlagayog erga chiqsin. Shu narsa meni o'ldirsa, o'ldira qolsin.

– Keling, bir tavakkal qilib ko'raylik, maylimi?

– Menga ozgina bo'lsayam rahmingiz kelmayaptimi?

– Shunaga tomoshalar ko'rsatgansizki, sizga rahmim kelishi qiyin, – dedim men.

Luizaning oppoq yuzlariga rang yugurdi. Luiza kuldi, lekin ko'zlari g'azab bilan qat'iy boqardi.

– Irisning to'yi shu oyda bo'ladi, – dedi u. – Agar menga biror narsa bo'lsa, siz ham, Iris ham o'zingizni kechira olmangansiz deb umid qilaman.

Luiza so'zida turdi. To'y vaqti belgilandi. Katta sep buyurildi va taklifnomalar tarqatildi. Iris va yigit juda xursand bo'lishdi. To'y kuni ertalab soat o'nda, Luizaning, o'sha yovuz ayolning yuragi yana bir marta qattiq xuruj qildi va u o'ldi. Luiza o'zini o'ldirgan qizi Irisni kechirib, nastagina jon berdi.

*Ingliz tilidan*  
*Alisher OTABOYEV tarjimasi*

*Umar SAYFIDDIN*  
(Turkiya)

**JASORAT**

Sartaroshxona chetida og'aynim bilan palma turiga oid, otini bilmaydigan egri-bugri daraxtning eshak qulog'iga o'xshash katta yaproqlari ostida o'tirib navbat kutayotgandik. Vaqt juda sekin o'tar, sabrsizlanardim. Temir burunli vaysaqi laylakdek to'xtovsiz shaqillayotgan qaychi ovozi ni eshitib, „uf-puf...“ derdim.

Ustida uzun oyna bo'lgan marmar stol oldida olti nafar sartarosh imillab ishlayotgandi. Og'aynim so'radi:

– Onangning qornida qanday sabr qilgansan?

– Axir, yarim soat bo'ldi-ya...

– Nima qipti!

– Xudo haqqi, turaylik! – deya yalindim.

– Jonga tegdimi?

– Nimasini aytasan, juda...

– Unday bo'lsa, bo'sh o'tirma... Siqilaverma.

– Nima qilay unda?

– Mijozlarni, devordagi rasnlarni tomosha qil. G'aznachiga boq, bir qara...

Ichkariga kirar-kirmas qaysi birining ishi tezroq bitar ekan, deya mijozlarni ko'zdan kechirgandim. Oq sochli, mo'ylovli, xumkalla, bir-biridan battar bir to'da merovlar o'tiribdi. Devordagi rasnlarga kelsak, ularning hammasi atir-upa, odekolon, lab bo'yog'i e'lonlari edi. G'azna to-monga qaradim. Yoshgina bir yunon qizi.

– Qo'ysang-chi, juda yosh ekan-kul! – dedim.

– Yosh bo'lsa, sen uni xayolan katta deb tasavvur qil. Ikki xayol bir borning o'rmini bosadi. Vaqt qanday o'tganini ham sezmay qolasan.

Bu qizaloqqa boqib, uni xayolan ulg'ayтира boshladim. O'n yosh kattalashirdim. Yigirma ikki, yigirma uch yoshga chiqardim. Ha, haqiqatan ham go'zal qiz bo'lardi. Shubhasiz, bu och-sariq sochlar yana-da quyuglashadi, bu yassi ko'ksi dumaloqlashadi, bu oq bo'yini yana-da ogarib, to'lishadi. Lekin xayolim bu bilan cheklanib qolmadi, istar-istamas, bu yetilgan qizni yana o'n, yigirma yilga ulg'aytirdim. Voh, oq yuzli ayollar naqadar tez keksayadi! Yuz-ko'zini ajin qopladi. Qovoqlari qoraydi. Xayolim yana ilgariladi. Bu bechora ayolni yana o'n sakkiz yilga kattalashirdim! Nauzibillah...

Birdan foniylikning motamini butun achchig'i bilan his qildim. O'zinga tasalli berish uchun ro'paramdagi oltinsh yoshlardagi mijozni kichraytirishga, yashartirishga kirishdim, uning qovoqday silliq boshida qalin sochlar o'stirar, cho'kkan yonoqlariga qon yugurtirar, mo'ylovlarini qoraytirar, so'lg'in lablarini gilos rangiga kiritar edim! Qaychilar hamuz shaqirlashda davom etar, hamma yog'i oqqa bo'yalgan sartaroshxonaning sukunatini lojuvard matroscha ko'ylak kiygan kichkina, ozg'in bolakayning „xo'p, xo'p“ degan tovushlarigina buzardi. Nogahon ko'cha tomonga qutragan derazalarning oynalari zirillab ketdi. Birdan zilzila bo'ldi, deb o'yladik.

Qaychilar jim bo'ldi. Mijozlar, sartaroshlar, men, do'stim, kichik bolakay, g'aznadagi oq qizcha, uzun oynadagi akslarimiz baravariga eshik tomonga qaradik. Yuraklarimiz bo'g'zimizga tiqilganday bo'ldi.

E Xudo! Bu naqadar haybatli odam: bo'yi hech mubolag'asiz ikki metrga yetadi... Qop-qora mo'ylovi vah-

mali... Ko'rganini yemogchiday o'qragan dahshatli, sariq ko'zlar... So'ng balandligi bir arshindan<sup>1</sup> ko'proq bo'lgan katta, juda katta qora tepak... Garchi qo'rqmasam-da, titray boshladim. Yangi kelgan mijoz hech kimga garamay yechina boshladi. Bo'z yoqali katta va uzun qora po'stini yechdi, yoniga yugurib kelgan bolaning ustiga tashladi. Po'stin shunchalik og'ir ediki, bola shu ondayoq cho'kkalab qoldi. Sartaroshlar ustalarini tashlab, yordamga oshiqishdi. Bolani ko'tardilar. Bola qutulib, orqaga qochdi. Men yana-da battarroq titray boshladim. Dahshatli mijoz:

– Menga bola-pola kerak emas, – dedi. – Oyog'imning ostida qolib yurmasin... Baquvvatroq odam xizmat qilsini!

– Xo'p bo'ladi...

– Xo'p bo'ladi...

Oyog'iga razm soldim. Etigining zirhi borday edi... Bossa bola u yoqda tursin, qattiqroq tepsa tosh yo'lkani ham ushatib yuboradi. Telpagini chigardi. Kamzulini yechdi. Yo'g'on belida kumush qoplamali chekkescha kamarga taqilgan kattakon revolver, katta-kichik pichoq, xanjarlarning sopi ko'rinish turardi. Baqirdi:

– Hoy galvarslar, menga qaraysizlarmi yo'qmi?! Men kutib o'tirmayman, ha... Jahlini chiqarmang...

Bu qo'rqinchili manzardan mijozlarini butunlay unutgan sartaroshlar darhol bir og'izdan javob berishdi:

– Marhamat poshom! Marhamat poshom!

– Ha, shunday bo'lsin!..

– ...

– ...

– Mening kim ekanimni bilmaysizlar-da.

<sup>1</sup> Arshin – 0,68 metrغا teng uzunlik o'lchovi.

Yaxshiyamki, tasodifan eshik yonidagi kursida o'tirgan mijozning sog'oli olib bo'lingandi. Dahshatli mijoz uning o'rniga o'tirdi. Navbat meniki ekanini aytishga botimadim ham. G'aznadagi qiz tashqari chiqayotgan mijozdan pulini olar-olmas boshini quyi solib oldi: bo'ron bulutlari orqasiga botgan Zuhro yulduzi kabi ko'rilmaydigan bo'ldi. Og'aynim:

– Oqarib ketdingmi? – dedi.

Achehig'im chiqdi:

– Oqarmay bo'ladingmi? Anavilarga bir qarasang-chi... Hammasining yuzidan qon qochdi-ku...

– Bizni nima ham qila olardi?

– Xohlasa hech narsa qilmasin! – dedim.

Uning ko'rinishining o'ziyoq yurak o'ynatishga kifo'ya edi. Hatto sirkda temir qafas ichida irillagan arslonlarni ko'rib, kishining tuklari tikka bo'lmaydimi axir?! Garchi ularning qafasdan chiqib, bizni tilka-pora etmasligini yaxshi bilsak-da, bu ishonch ikki pulga qimmat. Hatto geychilarning shaqillashi ham sushtashgandi. Mijozlar qayrilib qarashga botmayotgan bu yangi odamga oynadan qo'rqa-pisa qarar, shubhasiz, xuddi men singari tuklarini tikka qilib yuboradigan xayollarga berilgan edilar. Oynada ko'zlarimiz to'qnash kelishidan qo'rqib, yuragimni hovuchlagancha kraxmallangan yoqasidan chiqib turgan yo'g'on qizg'ish bo'yini, keng yelkalarini tomosha qilib o'tirardim. Baayni buqaning o'zi. Aft-basharasi, chimirilgan qoshlari, katta og'zi kishining yuragini o'ynatib yuboradigan darajada qo'rqinchili edi. „Kim biladi qanday olovlar ichiga tushgan, qaysi dushman podalarini tirqiratib quvgan, jang maydonida aql bovar qilmaydigan qanday qahramonliklar ko'rsatgan ekan“, deb o'ylardim. U xuddi granitdan yasalgan jasorat obidasi bo'lgan-u, tiriqlik kelgan. Go'yo bannisoli „Qon

Qal'a", „Battol G'oziy“ davriga tushib qolgandek edim. „Urushni yo'q qilish uchun harakat qilgan“ faylasuflar esimga tushib, kulimsirardim.

Oллоh bu mumtoz vujudni, shubhasiz, faqat urush, faqat bo'rtlik, faqat qahramonlik uchun yaratgan bo'lishi kerak. Agar shunday kelbati, shunday mag'rur, shunchalik jasoratli odamlar bo'lmasa, eng muqaddas an'analar yo'q bo'lgan, chegaralar buzilgan, haqiqat yo'qolgan, tarix, shon-u-sharaf, qiyमतlar afsonaga aylangan bo'lardi.

Xullas, har qanday fazilatning asosi bo'lgan „jasorat“ tushunchasiga oid falsafa to'qib, xayolga toldim! Bo'shagan bir kursiga og'aynim o'tirganini ham sezmay qoldim. Palmaning ostida yop-yolg'iz o'tirib, pastga tikilar, horg'in holda Salim Sirtini eslab, „Shu oq-qora to'shama toshlar ustida oyoq bilan shashka o'ynasa, bu yangi sport turi hisoblanarmikan“ deb o'ylardim...

Nogahon oldingidan ham qattiqroq gumburlagan ovoz chiqsa bo'ladimi?! Bu gal deraza, eshik-peshik emas... uzun oyna, marmar stollar, kursilar gumburlagan edi. Boshimni ko'tardim. Bahaybat mijoz qizil daraxtdan yasalgan g'azna orqasida yerga uzala tushgan, baqira boshlagan edi:

– Voy-dod...

– ...?

O'zga mijozlar, sartaroshlar, ularning oynadagi aksi bataravariga u tomonga o'girildilar. O'ziga kelganlar so'rashdi:

– Nima bo'ldi, nima bo'ldi?

– Ne gap, ne gap?

– Voy, ana uning ustida!

– Nimaning ustida?..

– Ana uning...

– ...

Titragan barmog'i bilan ustarasi ostidan qochgan o'zg'in sartaroshni ko'rsatar, hamma yoqni boshiga ko'tarib dod solardi. Shu onda ko'nglimda shubha uyg'ondi. Ajabo, bu yunonmi, mahalliymi, kim ekani noma'lum xoin sartarosh bu arslonning shoxtomirini ustara bilan kesib yubordimkan? Oyoqqa turdim. Zotan, eng ulug', jasur, buyuk qahramonlar o'taketgan qo'rqoqlarning xiyonati tufayli qutbon bo'lmaganni?! Bunga tarix shohid. Yaqinlashdim. Sartaroshlarni itardim. Oralaridan bosh chiqarib, so'radim:

– Hamshahrim, ayt, ne bo'ldi?

Qo'rquvdan uning ko'zlari ola-kula bo'lgandi. Haligina qon tomib turgan yuzlari limonday sarg'ayib ketgandi. Yuzida kattakon sovun ko'pigi bor edi.

– Ustida, Xudo haqqi, ustida... – dedi.

– ...

Ichimda: „Albatta, yo zaharli igna, yoki xanjar kabi bir narsa bo'lsa kerak!“ dedim. Qochirgan mijoziga baqray-gancha qotib qolgan sartaroshga boshdan oyoq tikidim, darhol bir narsalarni taxmin qilib, yoniga yaqinlashdim.

– Ustingdagi narsani chiqar! – dedim.

– Nimani?

– Chiqar deyapman!..

– Nimani axir, janob?

– ...

Lekin haqiqatan ham nimani chiqarishi kerak? Uni o'zim ham bilmasdim. Sartaroshning hayrat to'la ko'zlaridan ko'z uzib, g'azna ostida dir-dir titrayotgan to'nkaday qahramonga yuzlandim:

– Qayeriga yashirdi? – dedim.

– Ya..shir..ma..di!

– Unda nima qildi?

Qo'rquvdan hicichiq tutgan, tili zo'rg'a aylanardi.

– Us...ti..da!

– Qayerda?

– ...

– ...

– Belidami? Cho'ntagidami?

– Yo'q, yoqasining yonida...

Sartaroshning ustida oppoq, uzun chit xalat bor edi.

Yoqasida hech narsa yo'q edi. Oyoq ustida turganlar bilan baravariga diqqat bilan qarayotganimizda yerda yotgan dev:

– Xudo haqqi, yurayotgan edi, – dedi.

Dong qoidim. To'xtadim. Kalovlandim.

– Yurayotganimmi?

– Pastdan yuqoriga yurayotgandi...

– ...

– ...

Yana to'xtadim. Oldinga boqdim. Masala ko'p mushkul chiqdi. Kulgiga qolmaslik kerak edi. Men six, igna, qurol-purloq deb o'ylagandim. Qidirilgan narsa ham jonli, ham yurgan bir narsa ekanini anglagan mijozlar, sartaroshlar taraddudlanib yaqinlashib, egilib sartaroshning yoqasiga tikildilar. Men aldanganini birdan bilib qolgan hiylagarlarday sukut ichida bosh chayqadim. Ha, bu bir bit bo'lsa kerak. Kichkina bir bit! Lekin dahshatli o'lim keltiradigan, tif ajdari! Hamisha falsafa to'qishga hozir-u nozir, bir avtomat mashinaga o'xshash „aqlim“ ishga tushdi. Axir, eng jasur kishilar ham qarshi turolmaydigan, olishib bo'lmaydigan bir dushman oldida jasorati yo'q bo'lgandi.

Shu qalin etigi, qo'rqinchli shopmo'ylovi, qoratog', to'punchasi, cherkes xanjari bo'lgan bu dev odam bir to'lda bo'riga, vahshiy hayvonlarga, qoplonlarga duch kel-

sa, bunday titramagan, kiprik qoqmay hammasini o'ldirgan bo'lurdi. Lekin tif mikrobi vujudiga bir kirs a bormi... Ne ham gila olardi? Hech narsa, hech narsa... Qo'rqanida jon bor. Men bularni xayolimdan chaqmoqday tez o'tkazat, xulosa qilar ekanman, qidirayotganlardan biri;

– Ha, mana... – deya baqirdi.

So'radim:

– Bit emasmi?

– Yo'q.

– Unda nima u?..

Qidirilgan narsa yoqasidan chiqqan sartarosh alam bilan hayqirdi:

– Astag'firulloh, bu yerda bit yo'q... Bu bir kana...

– Kanami?

– Ha...

Yerda titrab yotgan mijozga o'g'irildim...

– Kana... Shukr-ey... – dedi. – Xudo haqqi, uni tutib, ezib tashlang! Kana bilan suvarakdan o'lgunday qo'rqaman!..

– ...

Boya uning po'stini ostida ezilay degan ozg'in malay yugurib keldi. Ko'zimizning oldida kanani tutdi. Yerga otdi. Ezdi. Titrog'i bosilgan dev sekingina o'rtidan turdi. Bo'ynidagi sochiniqni olib, stolga uloqtirdi. Tezda kamzuli bilan po'stini kiydi. Telpagini, o'sha dahshatli, kattakon cherkes telpagini boshiga kiydi. Sartarosh sogolini oxirigacha olib qo'yish uchun uni o'rindiqqa chorladi:

– O'tiring, bitirib qo'yaylik, janoblari.

Vaholanki, hech narsa uning qulog'iga kirmayotgan, eshitmayotgan edi. Cho'ntagidan bir majidiyalik<sup>1</sup> qog'oz chiqarib, g'aznaga otdi.

<sup>1</sup> Majidiya – qiymati 20 qurushga teng bo'lgan kumush pul. Sulton Abdulmajid zamonida zarb etilgan.

– Asablarim qaqshadi! Endi bu yerda o'tirolmayman! – deya chala olingan soqoli, sovunli yuzi bilan ko'chaga otildi.

Barchamiz, ko'zgudagi esankiragan aksimiz bilan baravariga orgasidan qarab goldik. Dahshatli momaqaldirodan keyin yangi chiqqan tonggi yulduz kabi sariq sochli kichkina qiz g'azna orgasida paydo bo'ldi. Lekin u bu gal nihoyada xursand, shodmon edi. Bizning tikilib qarashimizga javoban go'zal boshini chayqab, jajji qo'llarini bir-biriga urgancha:

– Buni qarang-al! Buni qarang-al! – deya qahqaha otardi.

*Turk tiidan*  
*Boboxon MUHAMMAD SHARIF tarjimasi*

*I Chol Xuan*  
*(Koreya)*

## OLIS YULDUZ

– Ilmos, mudir, yana bir marta imkoniyat bering. Boshqa bunday holat takrorlanmasligiga va'da beraman. O'g'lim endi bunday ish qilmayman, deb qasam ichdi, bizni kechiring. O'g'lim Hyon Te sizning duongizni olib o'qi...

– Kechikdingiz. Kecha qilgan qilig'ini aslo kechirib bo'lmaydi, – dedi mudir derazadan tashqariga qarab o'quvchilarni kuzatarkan. – Sizning farzandingizni yana kechiradigan bo'lsam, baribir u odatini tashlamaydi, – mudir shunday deya tiz cho'kib o'tirgan Hyon Tening onasi yonidan o'tib ketdi.

So'ng Hyon Tening dadasi direktorga yuzlandi.

– Hurmatli direktor, o'g'limizni maktabdan haydamang. Undan boshqa farzandimiz yo'q.

– Eng og'ir jazo sifatida yuz million so'rasha ham bu baxt. Ammo sizlar, menimcha, bu yerga uchinchi marta yaliniib kelib turibsizlar, shundaymi? Shuning uchun ham buning chorasi yo'q. Qo'limizdan hech narsa kelmaydi, kechiring.

Hukmni kutib mahbus kabi qunishibgina turgan Hyon Tening dadasi direktorning bu gapidan so'ng qayta-qayta o'g'lini kechirishini so'radi. Lekin direktor rad etgan kabi bosh chayqab chiqib ketdi. Hyon Tening dadasi hech narsa demay, unsiz yig'lar, ko'zyoshlari tinimsiz oqardi.

So'ngra hushsiz o'tirgan xotinini suyak, direktor xonasi-dan chiqib ketishdi.

Shu kundan e'tiboran, Ona kulgisini, yoqimli tabassumini yo'qotdi. O'g'lining maktabdan haydashi uning yuziga g'am soylarini soldi. Ota bo'lsa, bu tashvishni yengmoq uchun ichkilikka ruju qo'ydi. Hyon Te bunday qayg'u chiday olmay, uydan bosh olib chiqib ketdi. Uni ota-onasi qidiradi, biroq farzandini topa olmagach, yana qayg'u ummoniga g'arq bo'lishdi. Hyon Te o'zi kabi bezori bolalar bilan topishib olib, tashlandiq bir joyda yashay boshladi. Pul kerak bo'lgan paytlarda birovlarining narsasini o'g'irlar, o'tib ketayotgan o'quvchilarning qimmatbaho buyumlarini tortib olishardi.

Shunday kunlarning birida Hyon Te janjalga aralashib qolib, qo'lga olindi. Yarim yil deganda ota-onasi bilan militsiya punktida uchrashdi. Jabrlanuvchi oldida yana ona tiz cho'kib kechirim so'radi. Nihoyat, Hyon Te juda katta jama evaziga ozodlikka chiqarildi. O'sha kuni Hyon Tening olinchi marta militsiya mahkamasidan chiqib ketishi edi.

Kunlar o'ta boshladi. Ota uzok bo'lmagan bir qarindoshining hiylasiga uchib, talofatga yuz tutdi. Ya'ni, ota boshlagan katta tijorati kasod bo'lib, uning pullari boshqa odamlar qo'lida qolib ketdi. Bunday holni ko'rib tursa-da, Hyon Te o'zini tutib olmadi, oilasiga yordam berish xayolining bir burchiga ham kelmasdi. U erta-yu kech kayf-safogilib, ko'chadan beri kelmasdi. U negadir ota-onasi kuitib o'tiradigan uyiga kelishni istamas, ko'pincha kechalari do'stlarini kida tunab qolardi. Unga kuyungan ota-onasi tanbeh berishsa-da, Hyon Te ularning gaplarini eshitmanganga olardi. Shu tariqa oyda ikki-uch matagina uyga keladigan o'g'liga ona holsizgina yalindi:

— O'g'lim, itimos, endi o'zingni qo'lga ol. Qachongacha bunaga yashamoqchisan? Biror ishning boshini tutib,

vaqingni bekor sarflamasang degandim... Axir umring o'tib ketgandan so'ng kech bo'ladi. O'sha vaqt xohlasang ham hayotingni o'zgartira olmayсан. Dadangning jarima to'lashga kuchi ham yetmay qoldi.

— Dadam hozir qayerdalar?

— Pul topish uchun qishloqqa ketgandi. O'tgan safar seni qamoqdan qutqarib olish uchun juda katta miqdorda qarz olgandik. Dadang hozir do'stining ulgurji savdo magazinida ishlayapti. Ammo juda xavfli ishga o'xshaydi. Qarz berganlar pulini so'rab tinch qo'yishmayapti. Ikki oydan buyon kelgani yo'q, — ona o'g'lini quchib, ingrab yig'lab yubordi.

Ammo Hyon Teni hech narsa qo'rguvga solmadi. Uning do'stlari orasida turmada bir necha bor yo'tib chiqqanlari ham bor, biroq bu holat Hyon Tening yuragiga g'ulg'ula solmasdi. Shu paytda onasining ko'zidan oqayotgan yoshlar tufayli uydan chiqib keta olmadi.

Ertasi kuni bo'lgan qo'ng'iroq Hyon Teni qo'rqitib yubordi.

— Kechirasiz, Kim Je Chonning uyini bu? — do'rillagan notanish ovoz xijolatomuz ohangda so'radi.

— Ha, shunday, kim bu? — hayratlandi Hyon Te.

— Militsiyadan qo'ng'iroq qilyapmiz. Tezda yetib kelishingizni so'raymiz.

— Ti-tinchlikmi, nima uchun?

— Hali aniq bo'lganicha yo'g'-u, Kim Je Chon o'g'irlilikda gumon qilinib, bu yerga olib kelingan.

Hyon Te onasi bilan militsiyaga uchib bordi. Otasi charchagan shekilli, horg'in boshini egib o'tirar edi. U haddan ortiq ozib ketgan, qo'lga kishan solingandi. Hyon Te otasini birinchi marta bunday qo'rqinchli holda ko'rishi edi. Ota uzok vaqt boshini quyi solib o'tirdi, o'g'lining yuziga qaray olmadi.

– Bu yerga nega Hyon Teni yetaklab kelding? – ota ta'na bilan gapirdi xotiniga.

Ota sud qaroriga ko'ra, qilgan jinoyatiga yarasha jazo oldi. Uch yillik qamoq jazosiga mahkum qilindi. Qarz olgan odamlari pullarni talab qilavergani uchun tilla magazininga o'g'irlikka kirganida, qo'lga olingan edi. Ota uchun og'ir bo'lgan qamoq hayoti boshlandi. Hyon Te onasi bilan otasini ko'rishga kelganda u hech bir so'z aytmasdi. Shunday kunlarning birida ota boshini aybdorlarcha egib, o'g'liga shunday dedi:

– Ota bo'lib senga bu ishini qilma, deb aytardim... Oldingda gunohkorman. Qarzlarni to'lash uchun shunday jinoyatga qo'l urdim. Men qilgan ishini sen takrorlama. Bundan o'zingga xulosa chiqar. Meni kechir, o'g'lim.

Shundan keyin Hyon Te onasiga qaraganda bu yerga ko'proq keladigan bo'ldi. Dadasi bilan uchrashganda aytmoqchi bo'lgan gaplarini ichida takrorlab olardi, biroq dadasining ko'zlariga ko'zi tushib, hech narsa deya olmasdi. Yuragidan otilib chiqishga urnayotgan ko'zyoshlarini ichiga yutardi, xolos.

Ota muddatidan oldin qamoqdan ozod etilib, qorong'i zulmatdan go'zal hayotga qaytadigan kun keldi. Ota endi kasalmand bo'lib qolgan, oyog'i varikoz kasaliga chalingandi. Qamoqxonadan chiqib, ota, ona va Hyon Te bir so'z demasdan ketib borishardi. Shu chog'da ona o'g'lining qo'lini ushladi.

– Men bu kunni hatto dushmanimga ham tilamayman. Qamoqxona qanchalar odamga azob beradigan joy ekanligini sen ham ko'rdingmi? Xato qilganlarning bari shunday jazoga munosib. Ammo... – ona gapini davom ettira olmay ho'ngrab yig'lab yubordi.

Hyon Te onasining ko'zyoshlarini artdi.

– Dadang o'g'ri emas. U sen tufayli shunday qildi. Qamoqxonaning qanchalar dahshatli joy ekanligini senga

ko'rsatib berish uchun... Sen uchun o'zini, umrini qurbon qildi. Seni to'g'ri yo'lga boshlash uchun...

Hyon Te onasi ayni damda nima deyotganini aniq his qila olmasdi. Faqatgina onasining gaplaridan ko'z oldi qorong'lashib ketdi. Otasiga qaradi. Uning ozg'in gavdasi uzra kuz quyoshi o'zining zartiri nurlarini sochib turardi. Hyon Te onasining ayteganlariga ishona olmasdi. Uning dadasi o'g'irlik qilish uchun tilla magazininga kirmagandi. O'g'lining bu bema'ni hayotini o'zgartirish, uni to'g'ri yo'lga boshlash uchun o'zi qamoqqa kelgandi. Dadasining bu ishidan Hyon Te qaytadan dunyoga kelgandek bo'ldi go'yo. Shundan keyin Hyon Te maxsus kursga gatanab, kollej diplomini olish uchun o'qishga bora boshladi. Bir yildan so'ng Incheonidagi universitetga o'qishga kirdi.

Ota farzandi uchun sog'ligidan, oromidan voz kechib, qamoqda o'tirib chiqdi. O'g'lining qorong'lik qoplagan hayotini yoritmoq uchun o'zini qurbon qildi. Hyon Tening otasi vafot etdi. U endi o'g'lining qorong'i umrini, qorong'i osmonini mehri bilan yoritmoqni istagan olis yulduzga aylangandi.

*Koreys tilidan  
Malohat G'AFFOROVA tarjimasi*

*Elizabeth BRASSINGTON*  
(Angliya)

„GENRI“

— Qani, menga ber-chi. Sen eplolmayapsan.

Xotinim pichog'ni qo'limdan yulqib oldi-da, qattiq bo'lakni chaqonlik bilan qirga boshladi. U g'aroyib shakldan tuguncha hosil qildi. Qog'ozni buklar ekan, yuziga mamnun tabassum qo'ndi.

— Shunchaki termilib turaverma, — dedi u. — Velosipedning nasosini olib kelib ber.

U g'alati moslama ichiga nasos bilan havoni haydarkan, ajabki, u narsa inson qiyofasiga kirib boradi.

Rafqam achishayotgan qo'llarini dam oldirish uchun bir nafas to'xtadi.

— Menga ber-chi, — dedim unga.

— Sensiz ham o'zim yaxshi uddalayapman, — jerkitib berdi u zirillagan tovush bilan, nasos tutqichidagi qo'llarni itarib.

U zavq bilan shaklni asta-sekin to'liq qiyofaga kirishini kuzatib turdi. Bizning kichkinagina oshxonamizda xuddi mening bo'yim bilan barobar qiyofa qad rostladi. U yashil plastmassali kastumi va qattiq jag'lari bilan kelishgan hamda aqlli bo'lib ko'rindi.

— Mashina uchun, — tushuntirdi rafqam menga yana shatillatib. — Uni gazetadagi e'londan o'qib qoldim. U mening yonimda o'tirib, o'g'rilarni qo'rqitib yuradi.

Kulib yubordim. Rafqam bu sun'iy qo'g'irchoqsiz ham qarog'chilarning o'takasini yora olardi.

— Bu bizning erkato'yimiz bo'ladi, xo'p? — dedi u yasangan o'yinchoq'iga quvnoq tabassum bilan qarab. — Men unga Genri deb nom qo'yaman.

Rafqamning „Genri“dan rosa ko'ngli to'ldi. Men ular mashinada birga chiqib ketishganida qolib, uy yumushlarini bajaraman. Kechqurumlari „Genri“ mening kreslomda, olovdan xavfsiz joyda o'tiradi. Uning kekkaygan qiyofasi va mag'rur tabassumiga g'azab bilan tikilib, oshxonadagi u „egallagan“ og'ir stulning joyini o'zgartirdim.

— Shikoyat qilmay qo'ya qol, — buni taqiqladi rafqam. — U foydaliroq ekan. Baribir u yiqilgan chog'da ham men uni anavi yog'och stul ustiga o'tqazib qo'yaman.

Rojdestvoda, bu ajoyib umr yo'ldoshim men uchun bir to'plam kabob sixlari va kartoshka artkichlari sotib oldi. „Genri“ esa katak-katak kepka, uzun shotlandcha sharf va g'aroyib haydovchilik qo'lqoplariga ega bo'ldi.

— U bunga arziydi, — dedi ayolim.

Rubimda kuchli g'azab oqimi ko'tarila boshladi. Ikkalasini ham, ayniqsa, „Genri“ni, dimog'dor, mamnun irjayishlarini shunangangi yomon ko'rib ketdimki! Oshxonadan kabob sixini yulqib oldim-da, uning plastmassali orgasiga qarab oldim. Avval paqillagan, keyin vishillagan tovush chiqdi, „Genri“ bo'shasha boshladi. Men uni siqdim va tezroq havosi chiqib ketishi uchun ko'kragiga urdim.

Rafqam nafrat bilan chinqirib yubordi:

— Qanday jur'at etding? — baqirdi u. — Axir u meni naq erkakday himoya qilyapti-ku.

Ammo shunisi aniqki, endi „Genri“ men bo'lolmaydi. Uning gavdasi tobora qisqarib borardi.

— Uni qutqar, uni qutqar! — dedi rafqam ingrab.

U sixini zarb bilan tortib oldi-da, sumkasiga solib qo'ydi. Xotinimning asabiy qichqirqlaridan bezib, zarur asboblarni oldim-da, tezlik bilan tuzatishni boshladim. Na-

sosning anchagina puf-puffaridan keyin „Genri“ yana o‘zi-ning to‘liq shamoyilini tikladi. Ammo rafiqaning nafrat to‘la nigohini unutish oson bo‘lmadi. U mashinaga sakrab chiqib, eshikni tarsillatib yopdi-da, g‘ildiraklarini chirqiratib, „Genri“ bilan birga haydab ketdi.

Kelasi shanba kuni uyg‘onganida tishim juda qattiq og‘riyotgan edi.

— Seni tish doktoriga olib borganim ma‘qul, — dedi qat‘iy ohangda xotinim. Uning inqillab-singillashlarimdan bezor bo‘lgani ko‘rinib turardi.

— Men sataroshga ketyapman. Sochlarimni tuzatguningmcha o‘zingga kelib olasan.

Xotinim „Genri“ni ham biz bilan birga boradi, deb qat-tiq turib oldi.

— Orqa ko‘chalarda ham mashinani qorovulsiz tashlab keta olamiz, — buning sababini uqtirdi u.

Tish doktori tomon gandraklab borar ekanman, muz-day shamol esdi. Doktor menga vaqtinchalik tish plombase qo‘yib qo‘ydi, lekin u haliyam azob beriyapti. Yomon bir kayfiyatda ortimga qaytdim. U yerda rafiqam yo‘q, ammo „Genri“ jilmayib, oldingi o‘rindiqda o‘tirardi. Uning bu sa-lobatini men ko‘tarolmadim.

Eshikni ochib, yasama erkakning qo‘lidan sudrab olib chiqdim. Bir daqiqaga nafasimni roslar ekanman, shiddat-li shamol „Genri“ni qurshab oldi. Uning dabdabali kepkasi ariq ichiga uchib tushdi. „Genri“ bir pastlab, bir balandlab uchib ketdi.

Unga qarab turdim-da, nim tabassum bilan „To‘rt to-moning qibla!“ deya xayrlashdim. Endi xotinim uni o‘g‘ir-langan deb gumon qiladi.

Ozroq sayr qilmogchi bo‘ldim. Men ayolim „Genri“-ning yo‘qligini bilib, qay holatga tushishini ko‘rishni xohlamasdim. O‘zimcha mag‘rur jilmaydim. Rafiqam shu

o‘yinchoqni deb aqldan ozayozgandi. Agar u „Genri“ni men yo‘q qilganligimni bilsa, naq terimga somon tiqadi-ya. Burchak-burchaklarda aylanib yurarkanman, ko‘cha-ning nariji tomonida nimadir yuz berganligini sezdim. Qiziqishim orib, shahar maydonchasi tomon yurib ketdim va u yerda qanday manzaraga duch kelganimni bir ko‘rsa-ngiz edi! Politsiya va „tezyordam“ mashinalarining chi-roqlari porlab turardi. Hamma ibodatxona minorasi ustiga qarab g‘uvullar, u yerda, cho‘qqida, bir odam osilib turardi. Men toshga bog‘lanib qolgan shotlandcha sharfdan darrov hammasini tushundim. U „Genri“ edi.

Politsiyachi unga maxsus moslama orgali jonholatda baqirardi:

— Endi kela qoling, janob, zinalar bo‘ylab pastga tu-shing. Ofitserlarim sizga ko‘maklashib yuborishadi.

Olomon „Genri“ shamolda chayqalishi bilan ingrab yuborishdi.

Oldinga surildim. „Oftser, oftser...!“ Biroq odamlar-ning achchiq g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘irlari ichida ovozim yo‘qolib ketdi. Ular shamol zo‘rayib, „Genri“ning cho‘qqida teb-ranishi bilan ayyuhannos solishdi. O‘zinning ham ingrab yuborganimini eshiddim. Qo‘rquvdan emas... lekin yelka-larim o‘rtasidagi azob berayotgan og‘riqdan ixrab yubor-dim. O‘tkir sixning tanam ichiga sanchilib borayotganini sezdim. O‘g‘irilib qarashim bilan rafiqamning olomon ichi-da ko‘zdan g‘oyib bo‘lganiga ko‘zim tushdi. Uni hech kim bilmadi ham. Barcha ko‘zlar tepadagi fojicaga qadalgan edi.

Tizzalarim bukilib borarkan, „Genri“ni havoda ohis-ta, yengil uchib ketayotganligini ko‘rdim. Uning lablarida g‘olibona masrur tabassum barq urardi.

*Ingliz tilidan*

*Qandilal YUSUPOVA tarjimai*

## O. GENRI (Amerika)

### YIGIRMA YILDAN SO'NG

Politsiyachi posbon ko'chadan vajohat bilan o'tib borardi. U yakkam-dukkam uchraydigan yo'lovchilarni hayratga solish uchun ataylab vajohatli ko'rinarotgandir, balki bu unga odat bo'lib qolgandir. Havo nam, hali soat kechki o'n bo'lib ulgurmagan esa-da, qattiq esayotgan shamoldan yomg'ir hidi kelardi, ko'chalar deyarli bo'm-bo'sh edi.

Yo'l-yo'lakay eshiklarni tekshirgan, chaqon va g'alati harakatlar bilan tayovchasini silkitgancha ora-sira o'z mulkinging barcha burchaklariga ziyrak nigoh tashlagan ko'yingi bo'yodor, baquvvat gavdali, oyoqlarini xiyol kerib yuruvchi politsiyachi jamoatchilik osoyishtaligini ta'minlovchi posbonning ajoyib qiyofasini o'zida mujassam etgandi. Unga tegishli daha ahli allaqachon osuda uyquda. Faqat allaqayerlarda, tamaki do'konini yoki tungi bardami, hamon chiroqlar mittillaydi. Bu atrofdagi binolarning ko'pchiligini idoralar band qilgan, ular esa allaqachon berkilib bo'lgandi.

Mahallalardan birining yarmiga yetar-yetmas politsiyachi birdan odimini sekinladi. Qorong'ilikda, temir buyumlar sotiladigan do'kon eshigi yonida og'zida yondirilgan sigareta tishlagan bir odam turardi. Politsiyachi unga qarab yurgan zahoti u tez-tez gapira ketdi.

— Hammasi joyida, serjant, — dedi noma'lum kishi xotirjam ohangda. — Oshnami kutib turibman, bor-yo'g'i shu. Mana shu uchrashuvni u bilan yigirma yil muqaddam kelishib olgandik. Bu sizga sal g'alati tuyulsa kerak, shun-

daymi? Nachora, istasangiz, buni bir boshdan tushuntirib beray, ko'nglingiz tortarmidi? Hozir mana bu do'kon turgan joyda ilgari „Ota Jo Bredi“ restorani bo'lguvchi edi.

— Besh yil oldin, — dedi politsiyachi, — o'sha uyni buzib tashlashedi.

Notanish kishi gugurti „chirt“ yoqib, sigara tutardi. Gugurt alangasida uning yuzi, chortburchak jag'i, o'tkir ko'zlari va o'ng qoshi yonidagi kichkina oq chandiq ko'rindi. Yupqa bo'yinbog'idagi yirik olmos ko'zli to'g'nag'ich charaqlab ketdi.

— Bugun, — so'zida davom etdi haligi kishi, — „Ota Bredi“da mening eng yaxshi o'trog'im va dunyodagi eng ajoyib yigit Jim Uels bilan birga ovqatlanganimga rap-pa-raso yigirma yil bo'ldi. Ikkalamiz ham shu Nyu-Yorkda tug'ishgan aka-ukalardek birga katta bo'lganmiz. Tong oti-shi bilan baxtimni qidirib, G'arbga yo'l olardim. Men o'n sakkizga qadam qo'ygan, Jim esa yigirma bahorni ko'rgan bo'z yigit edik. Jimmini Nyu-Yorkdan sug'urib olib chiqish o'limdan qiyin edi, u bu shaharni yer yuzidagi yagona ma'qul va manzur joy deb bilardi. Xullas, o'sha oqshom biz rosa yigirma yildan keyin uchrashishga kelishdik, ha-yotimiz qanday kechmasin va taqdir bizlarni har qancha uzoqqa uloqitmasin, o'sha kun, o'sha soatda uchrashishimizni shart qilib qo'ydik. Biz shuncha vaqt ichida bemalol ahvolimizni o'nglab, baxtimizni qaror toptirib olamiz deb o'ylagandik.

— Juda qiziq ish bo'lgan ekan-ku, — gap qotdi politsiyachi. — Garchi, nazarimda, uchrashuvlar oralig'idagi muddat hazilakam bo'lmasa-da. Xo'sh, nima bo'ldi, ajrashganlaringizdan buyon oshnangizdan dom-darak topoltingizmi ishqilib?

— Yo'q, dastlabki vaqlarda bir-birimizga xat yozib turdik. Biroq, bir yo ikki yil o'tib, bir-birimizni izziz yo'qot-

dik. G'arbni o'zingiz bilasiz, o'ziga yetgancha keng yurt, mening esa unda bormagan joyim qolmadi. Ammo bir narsaga imonim komil edi: agar o'lib ketmagan bo'lsa, Jimmi shartlashilgan joyga, albatta, keladi. Bunday vafodor va subuti do'stni kunduz chiroq yoqib topolmaysan. Uni esdan chiqarishi mumkin emas. Bu yerga vaqtda yetib kelish uchun necha ming millik yo'lni bosib o'tdim, agar Jim ham so'zida tursa, bundan sira pushaymon bo'lmayman, albatta. U boshang soatini chiqardi – soatning qopqog'iga mayda olmos donachalari qadalgan edi.

– Uch daqiqasi kam o'n, – dedi u. – Biz restoran eshigi oldida ajrashganimizda soat rappa-raso o'n edi.

– Nazarimda, G'arbda ishlarining yomon ketmagan, shakili? – o'smoqchilab so'radi politsiyachi.

– O'ho, bo'lmasan-chi! Agar mening yarim omdim Jimga kulib boqqanida, do'ppimni osmonga otardim. O'zi biroz lanjroq bo'lsa-da, bahosi yo'q yigit. Unga gap uqtirgunimcha naq ona sutim og'zimga kelgandi. Nyu-Yorkda esa odam to'nkaligicha qolib ketadi. Faqat G'arb odamni charxlaydi.

Politsiyachi tayog'ini aylantirib, bir qadam olg'a yurdi.

– Bo'pti, men boray. Ishqilib, do'stingiz aytilgan vaqtda kelsin-da. Juda soniyama-soniya aniq kelishini talab qil-massiz undan?

– Ha, albatta. Ko'pi bilan yana yarim soat kutaman-da. Agar joni omon bo'lsa, shu paytgacha, albatta, yetib kelishi kerak edi. Yaxshi boring, serjant.

– Tuningiz xayrli bo'lsin, ser, – politsiyachi eshiklarni yo'l-yo'lakay ko'zdan kechirgancha kelgan yo'lida davom etdi.

Endi yomg'ir maydalar, shig'alab yog'a boshlagandi, o'qin-o'qin esib turgan shamol ham bir maromga o'tib, izing'iriga aylangandi. Yoqalarini ko'tarib va qo'llarini cho'ntaklariga sug'ib olgan siyrak yo'lovchilar ma'yus hol-

da ovoz chiqarmay, shoshib o'tib ketishardi. Necha ming millab yo'l bosib kelgan kishi esa do'stiga bo'lgan qariyb bema'ni va'dasida turmoq uchun sigarasini tortgancha kutib qolaverdi.

Yigirma daqiqacha o'tgach, pallosini quloqlarigacha ko'tarib olgan baland bo'yli odam ko'chani shoshib kesib o'ti-da, do'kon eshigi oldida kutib turgan kishi tomon qarab yurdi.

– Bu senmisan, Bob? – so'radi yangi kelgan odam ishonqiramay.

– Sen Jimmi Uels emasmi? – o'sha zahoti javob qaytardi unisi.

– Yo' Parvardigor! – dedi novcha odam sigarali kishining har ikkala qo'lini qo'llari bilan tutib. – Qara-ya, Bob ekaning kunday ko'rinish turibdi. Agar hali ham yorug' olamda bor bo'lsang, seni bu yerda topishimga sira shubha qilmagandim. Buni qara-ya! Yigirma yil – hazilakam gap emas. Ko'rdingmi, Bob, restoranimizni buzib tashlashdi. Afsus, o'shanda sen bilan ikkovimiz kechki ovqatni qanqangi tushirgandik unda. Xo'sh, gapir, do'stim, G'arbda kunlaring ne kechdi?

– Zo'r. U yerda nasibamga nima yozilgan bo'lsa, hammasiga erishdim. Sen esa butunlay o'zgarib ketibsan, Jim. Esimda, sen mendan ikki-uch duym pastrog' eding.

– Ha, yigirmaga to'lganimdan keyin biroz bo'yga tortdim.

– Sening ishlarining qalay, Jimmi?

– Chidasa bo'ladi. Shahar muassasalaridan birida xizmat qilaman. Bo'pti, Bob, ketdik. Men bir kunjakni bilanman, ikkovimiz u yerda xumordan chiqquncha gaplashamiz, eski paytlarni eslaymiz.

Ular bir-birlarining qo'llig'idan olib, yo'lga tushishdi. Bob G'arbdan omadi yurishib, ko'zini yog' bosib kelgani,

ishdagi muvaffaqiyatlari haqida labi labiga tegmay hikoya qila ketdi. Boshini yogasi ichiga birato'la tiqib olgan sherg'i esa uni qiziqish bilan tinglar edi.

Mahalla burchagida dorixonada do'konining chirog'i mitillardi. Yorug'ga yaqin kelib, har ikkala yo'lovchi bir vaqtda bir-biriga qarab burildi-da, bir-birining yuziga ko'z tashladi. G'arbdan kelgani birdan to'xtadi va qo'lini oldi.

— Siz Jim Uels emasiz, — dedi u shartta. — Yigirma yil — uzoq muddat, ammo kishining rimcha burni tugmachedek bo'lib qoladigan darajada uzoq emas.

— Bu muddat ichida ajabtovur odam ham muttahaman aylanadi goho, — javob berdi novchasi. — Gap bunday, Bob, o'n daqiqada bo'ldiki, siz hibsdasiz, Chikagoda xuddi shuni taxmin qilishgandi, siz, albatta, bizning yerlarga ke-lib-ketishni kanda qilmaysiz, siz bilan subhat qurishimiz mumkinligini ham xabar qilishgandi. Xo'sh, ortiqcha shovqin-suron ko'tarish niyatingiz yo'qmi mabodo? Unday bo'lsa, oqilona yo'l tutganingizdan minnatdorman. Endi esa sizni politsiyaga topshirishdan oldin yana bir topshiriqni bajarishim kerak. Mana bu xatni oling. Uni shu yerda, deraza oldida o'qib ko'rishingiz mumkin. Buni menga Uels politsiya posboni berdi.

G'arbdan kelgan odam uzatilgan bir parcha qog'ozni ochdi. Xatni o'qib bo'lgach, uning qatig' qo'llari xiyol ti-radi. Xat qisqagina edi:

„Bob! Men tayinlangan joyga vaqtida yetib keldim. Sen gugurt chaqqanida, men Chikago qidirayotgan odamning bosharasini tanib qoldim. Bu ishini o'zim qila olmasdim va seni hibsga olish uchun o'zimizning mahalliy agentlardan birini yubora qoldim.

Jimmi“.

Rus tilidan  
Amir FAYZULLA tarjimasi

Irene DISHE  
(Germaniya)

„ALISA“

Urush avvaliga faqat subhatlar mavzusi edi, keyinchalik u shahardagi oila sohiblari uchun ham ahamiyatli joyga aylandi — ular urushga otlandilar. Otalar halok bo'lib, o'rin-laridan turmayotgan bir paytda esa urush nafrat manbai bo'ldi-qoldi, uni endi boshqacha nom bilan atab bo'lmaz, u norozilik va cheksiz kulfatga sababchi edi. Ana shunday bir paytda Antonning onasi o'g'li o'n yoshga to'lganda, tug'ilgan kuniga atab o'zi sovg'a qilgan oq-shokoladrang, ko'k ko'zli uy quyonini bilan qiziga boshladi. Anton quyon-chuga „Alisa“ deb nom bergan edi, chunki barcha obro'li kishilarning ismlari „A“ harfi bilan boshlanardi: otasining ismi Andreas, onasining ismi esa Anna edi. Dadasi urushda halok bo'lganidan beri Alisaning nomi shunchaki „quyon-chat“ bo'lib qoldi. Uning yungini shu qadar mayin va yum-shoq ediki, Antonning dard-u hasratlari bir zunda unga „singib“ ketardi.

Bu yil qishning qahraton sovg'i erta boshlandi. Bir necha haftadan buyon ular eski kartoshka-yu karam bilan tirikchilik qilib kelishardi. Taqvimga bundoq qarash-da, erta-indin „rojdestvo“ bayrami, yerto'lada esa hech vago yo'q, hamma yoq ship-shiydam. Sezib turibdi, oyi-si bugungi kechki ovqat uchun Alisani ko'z ostiga olib qo'ygan. „Quyonchani bir mazza qilib yeylik“, degandi u. Anton bunga qarshilik qilmadi. Chunki u o'zining uy ishlarini bajarayotib, tez-tez charchab qolayotganini sezib

yurardi. Oyisi behad ozib ketgan, egnidagi ko'ylagi qoq-suyak tanasiga yopishib turar, endigina o'tizga kirgan bo'lsa-da, tim gora sochlarning u yer-bu yeriga oq oralay boshlagandi.

— Anton, quyonchani qassobga olib bor. So'yib bersin. O'zinning vaqtini bo'lmayapti, — dedi oyisi. Anton esa oyisining bunday qilishga o'zida kuch topa olmayotganini ich-ichidan his qilib turardi. Qishloqning bu chekkasidan u chekkasiga olib boradigan uzoq yo'ldan yurishini o'ylab, Antonning yuragi orgasiga tortib ketdi. Antonning onasi Alisani katta jigarrang savatga qamab, ustidan qopqoq bilan yopguniga qadar lol bo'lib, ayni paytda uy quyonlari-ga xos sabr-toqat bilan javdirab qarab turaverdi. Savatni o'g'liga uzatarkan, oyisi qo'shib qo'ydi:

— Tez qassobga olib borgan.

Qassob deganlari kichkina, yumaloqgina odam bo'lib, qiyofasi hamisha bir xil, o'zgarmasdan turaverardi. Anton so'qgabosh bu odamning peshtaxta ortida u yoqdan bu yoq-ga borib kelayotgan yumaloq gavdasiga ko'zi tushmasligi uchun, odatda, qassobxonani uzoqdan aylanib o'tardi.

Uy quyonni savat o'rtasida emas, balki uning bir chek-kasida g'ujanak bo'lib yotgani uchun savatni ko'tarish An-tonga birmuncha qiyinchilik tug'dirardi. Anton uni qorniga mahkam bosib olganidan o'z oyoqlarini ham ko'ra olmas-di. Ko'cha o'ydim-chuqur va muzlagan edi. U ravon yo'l topolmay qiynalar, dam-badam qoqilib ketardi. Antonning o'ziga qolsa, Alisani qassobga olib borishni ham, uning so'yilib ketishini ham istamas, quyonchani qanday qilib asrab qolishni o'ylardi.

Bola qassobxonaga yaqinlashgan sayin quyonchani naqadar og'ir musibat kutayotganini anglay boshladi. Ni-hoyat, u yo'l chekkasidagi kattakon bir tosh ustiga o'tirib oldi-da, savatning bir chekini qiya ochib, jonivorga asta

nuzur tashladi. Uy quyoni qorong'ida dimiqib qiynalgani-dan og'ir nafs olardi. Anton savatga qo'l suqib, uni siy-puladi. Quyonchani mayin yunglarini silarkan, mehri tovlandi. „Yo'q, yo'q, yo'q!“ — ko'nglidan o'tkazdi An-ton. Va shu damda uning qo'llari o'z-o'zidan beixtiyor sa-vat qopqog'ini ochdi, quyonchani dast ko'tarib, uni yo'l chekidagi butazorga qarab uloqtirdi. Alisa bo'lsa, nima qi-lishini bilmay, butalar orasida hayron turib qoldi. Qoqib ketishni-ku xayoliga ham keltirmasdi. Shunda Anton:

— Qani, tez yo'qol endi, tentakvoy, bo'la qol! — deb qichqirdi va qo'llarini silkitib, unga po'pisa qildi.

Shundan so'nggina, quyoncha juftakni rostiadi. Anton shuning rasvo bo'lishini ham o'ylab o'tirmasdan yana tosh ustiga o'tirib oldi. Garchand erkaklar yig'lamasligini bilsa-da, ko'zyoshlarini to'kib soldi. Uy quyonining ha-yotini saqlab qolgani, ishqilib, yaxshi ish bo'ldimikan? U onasining shu qadar ozib-to'zib ketganini bilgani uchun va endi oyisi uni rosa koyishini o'ylab ham yig'lar edi.

Antonning baqirib yig'laganini eshitib, shu yaqin oridagi uyda yashovchi bir keksa kishi qo'rqib ketdi va nima gapligini bilgisi keldi. Qariya nafaqaga chiqqan qish-loq pochtaachisi bo'lib, u hamon sobiq pochta libosini eg-nidan yechmay kiyib yurardi. U bolani tanib qoldi. „Yo Rabbim, nima bo'ldi?“, so'radi qariya boladan, shippakda halloslab uning yoniga yetib kelgach.

— Quyoncham qochib ketdi, — bolakay shunday deb, butlar yig'lay boshladi. — Men uni qassobga olib borishim kerak edi, chunki uyda yegulik hech vaqomiz qolmagan.

Keksas pochtaachisi o'ziga ish topilganidan xursand bo'ldi. U Antonning boshini silab qo'ydi va unga joyidan qimirla-may o'tirishni tayinlab, quyonchani axtarishga tushdi.

Yordamga shay pochtaachisi ayoz urgan o't-o'lanlar ora-lab, uy quyonini axtara ketdi. Qo'qisidan begona makonga

kelib qolganidan qo'rqib ketgan jonivor endi o'ziga kelib turgan ham ediki, kimningdir yaqinlashayotganini sezib, yashirini turgan joyidan shartta chiqdi-da, o'zini o'sha tarafga urdi.

– Xo'sh, mening kichik askarim, ish degan mana bunday bo'пти, – qariya shunday deb, uy quyonini Antonning qo'liga tutqazdi. – Ana endi „rojdestvo“da ajoyib ziyofat bo'ladigan bo'ldi!

Bolakayning ko'zyoshlari qurib, endi ularning o'rmini sovuq qat'iyat ifodasi egallagandi. U quyonini savatga solarkan, pochtachiga xushmuomalalik bilan minnatdorchilik bildirdi. Ular bir-birlariga xayri kun tilashdi va bola qassobxona tomon yo'l oldi.

Anton qassobning yuziga ilk bor sinchiklab razm solgach, uning kichkina, kulrang ko'zlari keng, yapaloq yuzida xuddi yumshoq jihozga qoqilgan mixga o'xshab turganini payqadi. Qo'ng'ir sochlari uning tik, adl boshini biroz berkitib turar, bosharti uning burni bo'lmaganda ham, buni hech kim sezmagani bo'lardi: faqat katta qizil qo'llari bilan allaganday bog'liqdek tuyulgan qimtilgan yaltiroq lablarigina tiriklikdan darak berib turardi, xolos. Anton yetib borganida bu odam mijoz kutib turgan edi. Butun mamlakatda go'sht me'yori qat'iy belgilangan bo'lib, har bir kishi haftasiga atigi bir burda xarid qilishga haqli edi.

– Xo'sh, xizmat? – dedi qassob bolaga yuzlanib.

Anton o'zini qo'lga olib, iltimosini bayon qildi. Gapi-rayotganida savatga qo'lini tiqib, Alisani mahkam ushlab oldi.

– Ajoyib g'oyal – dedi qassob go'yo xursand bo'lib. – Haqiqatan ham! Garchand mutaxassis sifatida qo'ling bilan uy quyonining go'shti orasida o'xshashlik yo'qligini e'tirof etsam ham, bu ishni qila olamammi?!

U o'ylangancha Antonning peshaxta ustida turgan o'p-qo'qo'lini paypaslab ko'rdi. „Xiyla muskulli ekan, yaxshilab boqilgan. Ehtimol, shunday qilganing yaxshidir...“, deb qo'ydi u.

– Yaxshisi, chap qo'lingni kesa qolamiz. Hoynahoy, o'maqay bo'lsang kerak, shundaymi? Qani, savatingni qo'y-chi, hozir ko'ramiz, – u peshtaxta ortiga ishora qildi va Antonning titrab turgan qo'lini qon dog'-dug'i bosgan kunda ustiga qo'yib, yengini yelkasiga qadar baland shimardi.

– Darvoqe, onang qo'lingni so'rab qolsa, nima deysan? – so'radi u.

Anton nima deyishini bilmay o'ylanib qoldi.

– Ha-ya, – dedi qassob xayol surib, – hozir bu yerdagi ahvolni o'zing ko'rib turibsan. Katta shaharlardagidan sira qolishmaydi. Shunday ekan, qo'lingni bomba yoki mina parchasi yulib ketdi, deb aldasak ham bunga hamma chippa-chin ishonadi. Menga buni akam xatida yozgan edi. Biroq, u bizning bu yerdagi ahvolimizni bilmaydi-da. Qanchalik qo'rqib yashayotganimizni, qanchalik tushkun kuyfiyatda ekanligimizni u qayoqdan bilsin? Eh, bu albat-ha hazil, – qassob birdan qo'rqib ketdi. Axir, bunaqangi gaplarni gapirishga uning umuman va hech qanday haqiqi yo'q edi-da. „Urush odamlarga qandaydir ko'ngilsizliklar olib kelayotgan ekan, bu – „defetizm“ (g'alabaga ishonmaslik, umidsizlik) ning klassik ko'rinishi, xolos. Bu narsaga politsiya aralashib, noxushliklar kelib chiqishi mumkin, avaxtaga olib borib tiqib qo'yishlari ham hech gap emas“.

Qassob o'zi hozirgina aytib yuborgan gaplarini Anton boshqa joyda valdirab qo'yishidan qo'rqardi. U qo'rquv, ochko'zlik va o'z-o'ziga hamdardlik tuyg'usi bilan ikkilalanar va bir-biriga zid o'ylar iskanjasida reja tuzmoqda edi.

— Sen mana bu yerga o'tirib, kutib tur. Men o'tkirroq narsa topib chiqay. — U shunday deb, orqa tarafga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Qo'rqib ketgan Anton uning zinadan pastga tushayotganini eshitib turardi. Yerto'ladan qasobning javoni ochib, qattiq xo'rsingani eshitildi. Bu yengil emas, balki qandaydir afsuslanganamo xo'rsinish edi. So'ng u zinadan yuqoriga ko'tarilib, orqa eshikdan qovoq-tumshug'i osilgan ko'yi kirib keldi. Uning qo'llida bus-butun farang sosiskasi bor edi.

— Onangga borib, bu mening qo'lim, degin, — dedi u. — Quyvon go'shti ekanligiga baribir ishonmaydi. Qo'lingni yeng ichidan tortib olib, mahkam bosib turasan, shundan so'ng qo'lingdan aytilganingga chippa-chin ishonadi. Qani, endi tuyog'ingni shiqillat-chi!

Qassobga sosiskani bundan to'rt yil avval Parijdan akasi jo'natgan, buni u ko'z qorachig'idek asrab yurardi. Bu xushta'm kolbasani ana yeyman, mana yeyman, deb shu kungacha saqlab keldi. Biroq har gal — to'yini yoki cho'qintirish marosimimi, shunga o'xshash biron tadbir munosabati bilan endi tatib ko'raman deganida, ko'zi qiymas, shu tariqa yaroqlilik muddati o'tib borardi. Mana, oradan to'rt yil o'tib qarasaki, uning uski qismi oqarib qolibdi.

Xullas, kolbasa aynib qolayozgan, ammo Antonlar oilasi undan zaharlanib o'ladiغان darajada emasdi. Ular nari borsa qorin og'rig'iga yo'liqishi mumkin edi, xolos. Kolbasani ko'rib, quvonishlarini aytmaysizmi? Sosiskani tashlab yubormay, shunday yo'l tutgani juda oqilona ish bo'ldi-da. Bu yaxshi ish bo'lmasa-da, har qalay „yomon ish“ ham emasdi.

Anton Alisani uyiga qaytarib olib kelib, onasiga bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay aytib berdi. Qassob uy hayvonlarini yaxshi ko'rganidan, shunday shirin jonivorni o'ldirishga rozi bo'lmagani onasini ajablantirmadi. Oila

u zolari sosiskani bir necha oy mobaynida parrak-parrak qilib tanovul qildilar va har qalay hech kimning qorni og'rtimadi ham. Ularning har biridan o'tkir ziravorli kolbasaning xushbo'y hidi angib turar, bu esa qo'shnilarning hisadini qo'zg'ardi. Sosiskani yeb bitirishganidan so'ng, Antonning onasi ochingirab uy quyoniga yana ola qaray boshladi, biroq ayni o'sha kunlari dushman bostirib kelib, qishloqning barcha aholisi, jumladan, qassob ham boshi og'rgan tomonga qochib ketishga majbur bo'ldi.

Anton uzoq o'ylab o'tirmasdan quyinni qo'yib yubordi. Bu orada bahor boshlandi. Endi Alisa ham rizq-nasibani qayerdan topib yesa yer... ko'nglidan o'tkazdi u.

*Nemis tilidan  
Mirzaali AKBAROV tarjimasi*

*Eliza MYLLER*  
(Janubiy Afrika)

**DARAXT**

Qishloqdagi birorta odam bu qalin, keng quloch yoygan daraxtni kim va qachon o'tqazganini bilmaydi. Biroq so'lim qishloqqa tashrif buyurganlarning barchasi eng avvalo uning tarixi bilan qiziqadilar. Ulkan daraxt olisdan ko'zga tashlanadi. Yozning issiq kunida, uning soyasida qishloq odamlari ham, musofirlar ham orom olib zavqlanishadi. Daraxt qishloqqa kiraverishda joylashgan kichkina uyda istiqomat qiluvchi oilaga tegishli edi. Taraqiyot bu chekka qishloqqa ham o'z ta'sirini ko'rsatayotgandi. Yildan yilga zamon o'zgarib borardi, unga qarab odamlar ham. Ular baland-baland imoratlarini qurib, bu sokin qishloq qiyofasini yangiladilar. Ammo faqat ana shu ulkan daraxt va mo'jazgina uy avvalgidek edi. Unda yoshlari o'tinirab qolgan ikki qariya bir-birini suyab yashashardi. Bolalari allaqachon ulg'ayib, turli shaharlarga o'qishga borib, o'sha yerlarda qolib ketishgan. Xonadon egasi qishloq do'konida savdo qilardi. Ayoli esa kun bo'yi uy ishlari bilan mashg'ul edi. Qishloqqa yangi oila ko'chib keldi. Ayol dabdabali qurilgan, zamonaviy uyga joylashayotgan yangi qo'shnilarini kuzatarkan:

— Bunday mahobati uyda qanday yashasharkin-a, — deya o'ylardi. U hech qachon Xudodan ortiqcha narsa so'ramagan, boyib ketish haqida orzu qilmagan. Boriga shukr qilib yashashga odatlangan ayollar toifasidan edi. U hatto qo'lga katta miqdorda pul tushsa, nima qilishi mumkinligini xayoliga ham keltirolmasdi.

Bir kuni kechqurun eri uyga har doimgidan-da kechroq qaytdi. Uning tushkun kayfiyatidagini sezgan xotini:

— Ha, tinchlikmi? Nima bo'ldi? — deya so'radi.

— Bugun yangi qo'shni yonimga keldi.

Ayol tabassum qildi. Qariyalar qo'shnilari bilan yaqin turishsa-da, galban ulardan olisda edilar. Sababi „yangi boylar bu oilani o'zlariga teng ko'rishmasdi.

— Unga nima kerak ekan?

— O'tqazgan ko'chatlari va ekan ekinlari bosh ko'tarmayotgan ekan. Uning aytishicha, daraxtimizning soyasi bog'ini quyoshdan to'sib qo'yibdi. Baqvvat ildizlari esa yerning kuchini tortib olayotgan emish.

— Oliy nasab xonimga ekan gullari bizning yuz yillik daraxtimizdan azizroq ko'rinarayotgandir-da. U qadrdon do'stimizni qo'porib tashlashimizni so'rayaptimi?

— Buning uchun hatto pul ham taklif qildi.

— Xo'sh, qancha berarkan?

— Ellik ming funt.

— Nahotki, bir daraxt uchun ellik ming? Buni qarang-a. Ayol pul miqdorini eshitib, o'zini yo'qotib qo'ydi. Ellik ming funt... Bu pulga gilam, yangi va zamonaviy yotoqxona jihozlarini va hatto oshxona buyumlarini sotib olishi mumkinligini chamalab ko'rdi. Shunda ham pul ortib qolaverdi. Hech nimani o'ylamay biror joyga dam olib kelishga borsa bo'ladi, axir u butun umr qishloqdan tashqariga chiqmadi. Bahavo joylarga dam olishga borgan er-xotinlarning taassuroklarini eshitse havas qilardi. Ammo o'zi sira bu haqda orzu qilmagan. Chunki bunga ularning imkoniyati yetmasdi. Ertalabdan ayol daraxt soyasida kir yuvayotib, uning bo'y-bastiga simchiklab boqdi. Sho'xlik qilib qo'ygan o'g'illari onalari beradigan jazodan qutulish maqsadida uning shoxlari orasiga yashirinardilar. Qizlari esa qo'shiq aytib, kashfa tikishardi. Ammo bolalar tez ulg'ayisharkan.

*Gerbert FRANKÉ*  
(Avstriya)

Ulg'ayishdi-yu, bu qishloqdan butunlay ketishdi. Mana u yolg'iz qoldi. Bir muddat ayolga daraxt bolalaridan ham yaqinroq va qadrliroqdek tuyuldi. Shu payt uning yoniga boshang kiyingan yangi qo'shnisi yaqinlashdi.

— Xo'sh, bir qarorga keldingizmi? — deya so'radi u.

— Bu daraxt anchadan beri bor. Biz unga ko'nikib qolganimiz...

— Tushunaman, istasangiz narxini yana oshiraman. Oltimish ming funt. Xo'sh, mefrau<sup>1</sup>, nima deysiz?

— Yo'q, meneer<sup>2</sup>, buning iloji yo'q.

— Istasangiz yana...

— Tushunmayapsiz, meneer, gap pulda emas. — dedi ayol qat'iy.

Qo'shnisi ayolni ko'ndirolmasligini tushundi va tortishib o'tirmasdan ortiga qaytdi. Kechqurun kechki ovqat paytida ayol eriga bo'lgan voqeani aytib berdi.

— Xo'sh nega rozi bo'lmading? — so'radi u xotiniga sinovchan nazar tashlarkan.

— Pulga hamma narsani ham sotib ololmastligini tushunishi kerak. Agar shunday bo'lganida bu dunyoda hech nimaning qadri qolmasdi. U g'urur bilan so'zlayotgan xotiniga mehri nigohlarini qadadi.

— Odam o'z do'stlarini sotmasligi kerak. Axir biz shuncha yil birga yashadik. — dedi u xotirjam.

Tashqaridan esa shamolda qalin daraxt barglarining shitirlagan tovushi eshitilardi...

*Ingliz tilidan*  
*Shahnoza RAHMONOVA tarjimasi*

<sup>1</sup> Mefrau — xotin.

<sup>2</sup> Meneer — janob.

Tumonat odam. Notiqlar uchun mikrofonlar o'rnatilgan, marjondek tizilgan son-sanogsiz gullar hamma yoqni bezab turibdi. Uzoq safar davomida orziqib kutilgan daqiqat!

## UYINGIZGA XUSH KELIBSIZ

Bungacha o'quv-ilmiy safari ikki yil davom etdi. Antares sayyoralaridagi galaktikalararo akademiya — inson hayotida qanday sharaflı voqea! O'quv dasturiga nafaqat tabiiy fanlar va mantiq, balki galaktikalar madaniyati, tarixi, mushqlari va hatto, yuqori sezgilar praktikumi ham kiritilgandi. Yuqori sezgilar — bu o'zgalarning fikrlarini o'qiy olish qobiliyati. Ha, ha, xuddi shunday, men o'zgalarning fikrlarini o'qiy olaman.

Orzu-umidlarga to'lib-toshib, kenedan chiqdim. Bu bir kishi uchishi uchun mo'ljallangan raketa edi. Uzoq vaqtlimni yolg'izlikda o'tkazdim. Mana, nihoyat yana odamlar bilan yuz ko'rishaman, ular bilan birga bo'lgan.

Meni birinchi bo'lib G'arbiy ittifoqning Prezidenti qarshiladi, men uni quvnoq chehrasidan, otalarcha tabassuslardan darhol tanidim.

— Uyingizga xush kelibsiz! Bu hammamiz uchun ham baxtiyor daqiga. Biz chuqur hayajondamiz va shunday xursandmizki...

U qo'sha-qo'sha mikrofonlarga garata gapirar va hamon qo'limni qo'yib yubormay, sigib turar edi. Uning miyasidagi negatron to'liq-tebranihlari mening tanamda

akslanardi... Endi men ularni idrok etishga qodir edim: „Bu tomosha tezroq tugay qolsaydi! Qayerdan ham qora botinkamni kiydim, biram oyog'larimni siqdim!“

Hayrardan qo'limni tortib oldim. Ro'paramdagi siymoni iltifotdan yashnab turar, og'zidan bol tomardi, so'zlar quyilib kelar edi. Lekin endi men bundan xursand bo'lmas edim.

Ikkinchi bo'lib meni qutlash uchun so'zni davlat mukofoti laureati, menga qachonlardir ta'lim bergan kimyo professori Soodenxuk oldi.

– Siz bilan faxrlanamani! – dedi u, lekin uning qo'li orqali butkul boshqa ma'no oqib kelardi: „Sen, og'aynichalish, hali hasaddan yorilib o'lasan. Laureat bo'lmog'chirsan? Yo'lingga o'zim g'ov bo'laman!“

Odamlar bo'lsa, hamon qo'limni bir bora siqish umidida zo'r berib mening oldimga turtinib-surtinib intilishar, meni misoli bir qo'g'irchoqday tortqilashar, qo'ldan qo'lga oshirishar edi. Mening vujudimga esa noxush loqaydlik yoyildi.

– Sizning qaytishingizni eshitib, qanday xursand bo'lganimizni bilsangiz edi! („Ko'zimiz uchib turuvdi, besh-o'n yil kelmay tursang, kimning ham ko'ngli o'ksirdi.“)

– Ko'rinishing juda yaxshi! („Turqing qursin, so'yloq!“)  
– Bizga rais bo'lishingizni juda-juda xohlaymiz! („Ishqilib, yaqindagina unga qarshi ovoz berganimni bilib qolmasin-da!“)

Bunga toqat qilib turish mumkin emasdi. Xayriyatki, kutib olish marosimi ko'pga cho'zilmadi. Men hamma-siga bardosh berdim va o'z oilam quchoq'iga oshiqdim. Marta istaganidek, meni uyda kutardi. U Evelin va qo'ni-qo'shnilar qurshovida, bog'eshigi oldida turardi. Qari Vesten ham, uning oilfa o'g'li ham shu yerda.

Evelin qarshimga yugurib keldi. Avtomobildan chiqishga ulgurmasimdan, meni mahkam quchib o'pti:

– Dadajon, yana biz bilan birga bo'lganingiz qanday yaxshi!

Lekin men boshqa so'zlarni ham uqdim: „Endi yana erta yotishga to'g'ri keladi, mushukcham-chi, nima bo'ladi? U bilan uyda o'ynolmayman. Nega ham u qaytib keldi?“

Bu orada qolganlar yaqinroq kelishdi. Men hali ham qizchamni bag'rimga bosib turardim. Uning mayin qo'nig'ir-malla sochlariga ortidan odamlarning qiziqsinib qarayotganini, xotinimning rangpar chiroyli yuzini, uning yonida turgan kenja Vestenni ko'rib turardim; ularning o'g'rincha ko'z urishtirib olganini sezib qoldim...

To'satdan vujudimni dahshat qamrab oldi. Martaga qo'l uzatishga jur'at qila olmadim. Bolani ko'tarib, uning qo'llariga tutqazdim-da, yugura boshladim. Qayogqa bo'lardi?! Kosmodromga! Kosmodromga olib boradigan katta yo'lga o'qdek uchib chiqdim.

Shoshilib kemanga chiqdim. Va kemam koinotning abadiy zulmati qat'iga g'arq bo'lgandagina men o'zimni qo'lga ola bildim. Ammo odamlar... Odamlar orasiga qanday qaytaman endi?

*Ingliz tilidan  
Mirislom BADALOV tarjimasi*

*Teodor DRAYZER*  
(AQSH)

**QORACHA JEF**

Ot qo'shilgan to'rt g'ildirakli arava ko'prik ustiga kelib to'xtagach, odamlar ham o'z aravalaridan tushdilar. Barcha otiqlar, shular qatori Deyvs ham otlaridan tushib, negr bola ortilgan arava atrofiga yig'ilishdi. Deyvs turgan joyida ko'prik tagidagi suv uzra taralib yotgan uzun-uzun chiroy nurlarini kuzatib turar, boshqa erkaklar esa bir ustunga argon bog'lash bilan band edilar. Shu payt birdan Deyvs titrab ketdi, ular argonning bir uchini negr bolaning bo'yni atrofidan bog'lay boshlashdi.

Nihoyat, tomoshatalab olomon ishlarini bitirib, joy-joylariga qaytishdi, Deyvs esa bu manzaraga dosh berolmay, yuzini o'girdi.

— Aytadigan biron gaping bormi? — shu payt olomon orasidan tahdidli bir ovoz yangradi. Javob bo'lmadi. Negr bola jon talvasasida inqillab qiyinalar, aftidan, u ancha vaqtdan buyon behush bo'lib yotardi.

Shu vaqt o'n-o'n ikki chog'li kishi ataylab kelishib olganday birgalikda bu zanj tanani havoga baland ko'tardilar. Deyvs bo'lsa argonning g'ichirlagan tovushi ostida majaclanib ketgan kichik jussani dam pastga, dam tepaga tushirib-chiqarilishini ko'rib, ichi tuzdek achib ketdi.

Xira oy yog'dusida behush vujud xuddi kurashmoqchiday bo'lib ko'rinar, ammo baribir uning zaboni harakaga kelmasdi. Deyvs og'zi keng ochilgan, so'zsiz — sadosiz tanani va nihoyat qimirlashdan to'xtaganini kuzatib turdi.

Biroz fursat o'tgach esa u olomonning ketishga shaylanayotganini eshitdi, oxiri ular yosh muxbirning bir o'zini xayollari bilan birga yolg'iz qoldirgancha jo'nab ketishdi.

Deyvs sukunat ichida, suvga termilgancha qirg'oq chetiga cho'k tushib qoldi. Mana endi bor dahshat adog'iga yetdi. Azoblanish ham barham topdi. U ortiq vasvasaga tushmaydi. Mana endi hayot go'zal va beg'ubor. Bor fojia izsiz yo'qoldi; oy ham oxiri suv ichiga g'arq bo'ldi...

Aslida, Deyvs Boldvindagi kichkinagina pochtaga zudlik bilan borib, bo'lib o'tgan voqea bo'yicha qo'shimcha tafsilotlarni yozib yuborish bilan shug'ullansa ham bo'lardi...

Juda kech bo'lgandi, biroq ayni damda vaqtning, lahzalarning nima ahamiyati bor? Hech qanday boshqa muxbir hodisa jarayonida ishtirok etmagach, ertaga voqeaning o'zidan-da oshirib, ta'sirliroq biror hikoya yozish Deyvsning ham qo'lidan keladi-ku.

Yosh muxbir to tong yorishguncha o'sha yerda o'tiraverdi... Jonsiz negr tanasi esa osmonga tikka holda egilib-bukilgancha, qorayib osilib turarkan, ertalabki yengil shabadada xiyol tebranib qo'yardi.

Axiyri Deyvs o'midan turib, otiga mindi-da, yuragi tungi fojeadan g'am-g'ussaga to'lgan alfozda Plezent Vodiyisiga qaytib ketdi.

Peshingacha bironta poyezd kelmagach, u tobora ko'proq tafsilotlar to'plab olishga qaror qildi.

Yana bir kun so'ngigiga yetib, quyosh botishi bilan u tuyqundan murdaning qayerga olib ketilganidan voqif bo'lmay qolganini esladi. Vaholanki u negrning nima maqsadda ortga qaytgan-yu, aynan qayerda qo'lga olinganligi to'g'risida ham na bironta ma'lumot bila olgandi, va na eshitgandi. Negrning kulbasi esa ikki mil narida, qarag'ay shoxlari soya solib turgan yo'l yoqasiga joylashgandi.

Eshik oldida biroz kalovlanib turgach, Deyvs yurak yutib eshikni taqillatdi. Hech qanday sado bo'lmagach, u ichkariga bosh suqib qaradi. Bu oddiygina bir kulba edi. Andak fursat o'tib, ichkaridagi eshik ochildi va bitta qoracha qizcha ostonada paydo bo'ldi. Deyvs bir daqqa qizchaga tikilib qoldi-da, keyin asta so'radi:

– Jef Ingols yashaydigan uy shumi?

Qiz bosh irg'ab: „Ha“, ishorasini berdi. U ko'zyoshlari arang tiyib turar, go'yo mana hozir, hozir yig'lab yuboradiganday bo'lib ko'rinar.

– Jasadni shu yerga olib kelishdimi?

– Ha, janob, – negrlarga xos yumshoq talaffuz bilan javob berdi qizcha.

– Sen uning singlisimisan?

– Shunday, janob.

– Yaxshi, uning qanday qilib tutib olinganini menga aytib bera olasammi? U qanday qilib va nima magsadda ortiga qaytib kелgandi?

– Akam peshin paytida kелgandi, taxminan, ikkilarda.

– Nima magsadda? – deb savolini takrorladi Deyvs.

– Bizlarni ko'rgani kелgandi, – deb javob berdi qiz. – Onamizni ko'rgani kелgandi.

– Shunaga degin, u yana nimadir istagannidi? Shuncha-ki onasimgina ko'rib ketish uchun kelmagandir, to'g'rimi?

– Gapim rost, janob, – deya ta'kidladi qizcha. – Akam xaytlashgani kелgandi. Ular akamni qay paytda tutib ketishganini biz bilmay ham goldik.

Qizchanning ovozi qaltirab chiqdi.

– Ha mayli, uning o'zi qo'lga tushishidan xabari bormidi? – so'radi Deyvs xayrixohlik bilan.

– Shunday, janob, menimcha xabari bo'lgandi.

Qizcha hamon ma'yus ko'zlarini yerga qadagancha bosh egib turardi.

– Yaxshi, u nimadir dedimi?

– U onamni ko'rgisi kелganini gapirdi, xolos.

– Uning jasadini ko'rsam bo'ladimi? – deb izn so'ragan bo'ldi Deyvs. Qizcha javob berish o'rninga xuddi yo'l boshlagan kabi oldinga yurib ketdi.

– Dafn marosimi qachon bo'ladi? – yo'l-yo'lakay savol tashladi Deyvs yana.

– Ertaga.

Shunday deb negr qizcha uni murda yotgan xonaga boshlab kirdi.

Yosh muxbir o'kirgan faryod qulog'iga kirguncha jasadga tikilib turaverdi. Bu faryod zim-ziyo xonani portlatguday bo'lib yangrab ketdi. Birdan uning yuragi dukur-dukur qilib ura boshladi. Deyvs avvaliga bu sado, ehtimol, o'lik tanasidan chiqayotganmikan, deya dong qotib qoldi.

– O-o-ohh! – ovoz tag'in takrorlandi, bu gal Deyvs-ga bu tovush zorlanib chiqayotgan yig'iday, go'yo kimdir bo'zlab-bo'zlab o'kirayotganday bo'lib tuyuldi. Deyvs joni halak bo'lib, tez o'girilib qaraganda, nimaningdir soyasi kabi ko'ringan bir ayol vujudiga urilib ketishiga sal qoldi.

– Oh, oh, oh, – endi faryodli ovozning o'zigina qaytalandi.

Deyvsning hushi o'ziga kela boshladi. U keksa ona huzurida turardi. Ayol ikki devor o'rtasidagi ko'rimsizgina javon tagida, boshini tizzalari orasiga olgancha, butun vujudi bilan nihoyasiz g'urbatga botib o'tirardi. „Oh, oh, oh“, Deyvs ayolga yaqin kelishi bilan u tag'in nola qila boshladi.

Deyvs jimgina ortiga chekindi. Uning ko'zlariga yosh quyilib keldi. Yigit zudlik bilan negr bolaning murdasini yopdi-da, xonadan chiqib ketdi.

Tashqarida, oy shu 'lasida Deyvs ortiga o' girilib qaradi. Butun motamsaro kulba o' zining birgina ko' rimlik jihozi – eshigi bilan shunchalar achinarli bo' lib ko' rimardiki! Xona burchagida bir o' zi bo' zlab o' tirgan ona – va unga „Xayr!“ aytish uchun kelgan sho' rlik qoracha Jeft. Deyvsning qalbi qayg' u-hasradan yoritib ketay dedi. O' tgan tun, o' tgan fojica, ko' ngilni parmalagan azob – yosh muxbir Deyvs bularning barini o' z ko' zlari bilan ko' rib, qalbiga muhrlab qolgandi.

– Men hammasini yozaman, – deb xiob qildi u. – Men hammasini yozaman!

*Ingliz tilidan*  
*Qandilat YUSUPOVA tarjimasi*

*Gektor Xyu MUNRO*  
*(Angliya)*

**OCHIQ DERAZALAR**

– Xolam tez orada huzuringizga tushadi, janob Nuttel, – dedi o' zini kattalarday tutadigan o' n besh yoshli xonimcha, – ungacha men siz bilan hamsuhat bo' laman.

Frammton Nuttel zo' r berib vaziyatga mos keladigan va jiyanga xush yoqib, xolani ham xafa qilmaydigan xushomad so' zlarini qidira boshladi.

U bu yerlarga asab kasalligidan davolanish uchun kelgan edi.

Aslini olganda u notanish odamlar huzuriga tashrif buyurish bilan kasalini davolash mumkinligiga ko' pam ishonmas, faqat doktorlar maslahatini yerda qoldirmaslik uchungina mehmondorchilikka kelib turgandi.

– Men sening sayohating nima bilan tugashini yaxshi bilaman, – degan edi unga singlisi ham, uni bu „tabiat qo' yniga qaytish“ safariga kuzatayotib, – bu o' zingni tiriklayin ko' mib qo' yish bilan teng, sen u yerda suhbatlashish uchun birotta tirik jon topa olmayсан. U yerda zerkib, asablaringni battar ishdan chiqarasan. Mayli, men o' zim taniyidigan hamma odamlarga xat yozib beraman, ularning ichida bir-ikkita, balki, senga yoqib qolar.

Frammtonning es-hushi endi singlisining xati tufayli tashrif buyurgan bu xonadon sohibasi, missis Stepton, ana shunday yoqimlilar sirasiga kiradimi-yo' qmi, degan savol bilan band edi.

– Siz bu yerlik odamlar bilan tanishmisiz? – deb so'radi qizcha, subhat orasidagi sukunat cho'zilib ketganini sezib.

– Afsuski, yo'q, – javob berdi Frammton, – mening singlim, bilsangiz, to'rt yilcha oldin shu yerdagi cherkov xizmatchislikida yashagan edi, u menga ba'zi odamlarga tavsiya xati yozib bergan.

Uning oxirgi jumlasida afsus ohangi shundogqina sezilib turardi.

– Bundan chiqdi, Siz mening xolam haqida hech narsa bilmaysiz? – o'zini kattalarday tutadigan xonimcha o'smogchilashda davom etdi.

– Men faqat uning ismi va manzilini bilaman, – tan ol-di mehmon. Uning xayolida endi „Uy bekasining eri bor-mikin yoki u tul xotinini“ degan savol aylanardi. Unga negadir xonada erkak kishining izi borday tuyuldi.

– Uch yilcha oldin xolamning boshiga chuqur musibat tushgan, – dedi qizcha, – demak, bu Sizning singlingiz ket-gandan keyin yuz bergan ekan.

– Musibat?! – so'radi Frammton, – nazarida, „musibat“ so'zi bunday osoyishta joylarga nisbatan mos kelmas edi.

– Siz nima uchun biz oktabr oyida, tush paytida oynalar-ni lang ochib qo'yganimiz haqida o'ylab ko'rmingiz? – qiz uy bilan kattagina maydonni egallagan o'tloqni ajratib turgan fransuzcha derazaga<sup>1</sup> barmog'i bilan ishora qildi.

– Kuz bo'lishiga qaramay bugun kun ancha iliq, – deb javob berdi Frammton, – ammo buning siz aytgan musibat-ga biror-bir aloqasi bormi?

– Bundan rappa-raso uch yil oldin xolamning eri va ikkita akasi xuddi mana shu derazadan hovliga chiqib ovga jo'nashgan. Ular shu bo'yi uyga qaytib kelishma-

di. Ular o'zlari, odatda, ov qiladigan joyga borish uchun botqoqlikdan o'tishlari kerak edi. O'sha botqoq ularni o'z qo'liga yutib yuborgan. Bilsangiz, o'shanda, yozda juda ko'p yomg'ir yog'ganligidan, boshqa payt bemalol yursa bo'ladigan joylar o'tib bo'lmas chuqur botqoqlikka aylan-gan ekan. Eng yomoni ularning hatto jasadlarini ham to-pisha olmagan. – Hikoyaning shu joyiga kelganda qizcha-niing ovozi titrab ketdi va u bir zungga o'zini kattalarday tuta olmay qoldi.

– Bechora xolamning miyasiga ular va ular bilan bir-ega ketgan jigarrang spaniel zotli kuchukcha albatta qay-tishadi va, odatdagidek, shu deraza orqali uyga kirib kelishadi, degan fikr o'rmashib qolgan. Shuning uchun ham bugun bu deraza to qorong'i tushguncha lang ochiq turadi. Mening bechora xolajonim ular qanday qilib oxir-gi yo'llariga jo'nab ketishganini ko'p marta hikoya qilib bergan: uning eri o'zining oq plashini yelkasiga tashlab olgan, eng kichik ukasi Ronni esa bor ovozi bilan „Betri, sen nega o'zingni men bilan bog'lading?“ degan qo'shigini aytib ketgan. U bu qo'shigini opasining jig'iga tegish uchun aytar, qo'shiq xolamning asabiga tegishini bilar ekan. Bi-lasizmi, ba'zan bugungidek sukunatga cho'mgan oqshom chog'lari mening tasavvurimda g'alati manzara namoyon bo'ladi: menga xuddi ular hali-zamon derazadan kirib ke-lishadigandek tuyuladi“ Qiz o'z hikoyasini yengil titroq ovoza yakunladi.

Niloyat, xonaga shosha-pisha kirib kelgan uy beka-si shovqin solib kech qolgani uchun kechirim so'raganda Frammton yengil tin oldi.

– Mening yo'g'imda Vera sizni zeriktirib qo'ymadimi, ishqilib, – so'radi u.

– U gapga usta ekan, – javob berdi Frammton.

<sup>1</sup> Ham eshik, ham oyna vazifasini bajaruvchi baland deraza.

– U Sizga ochiq derazalar haqida gapirmadimi mabodo? – missis Septon subatni jonlantirmoqchi bo'ldi, – mening erim va ukalarim yaqinda ovdan qaytishadi, ular doim mana shu derazadan oshib uyga kirishadi. Ular bugun botqoqlikka, loyxo'rak oviga ketishgan, hozir kelib mening oxorti gilamchamni loyga belashadi. Siz erkaklar hammangiz shunaqasiz, to'g'rimi?

U bilimdonligini namoyish qilib ovchilikka oid ishlar haqida vaysay ketdi, hozir oylanadigan qushlar kamayib ketganligidan shikoyat qildi, qishda o'rdaklar soni qancha bo'lishi to'g'risidagi bashoratlari bilan o'rtog'lashdi.

Bu hasratlarni eshitib, Frammtonning yuragi orqasiga tortib ketdi. U jon-jahdi bilan subatni boshqa yengilroq mavzuga burishga harakat qilib ko'rdi, ammo buning iloji bo'lmadi. Beka u bilan til uchida gaplashayotganini, ko'zi deraza va uning ortidagi o'tloqda olma-kesak terayotganini sezib turardi. Kelib-kelib uning tashrif mana shunday qay-g'uli marosim kuniga to'g'ri kelganini qarang...

– Shifokorlar mening har qanday aqliy faollik, jismoniy zo'rliqlardan xoli tarzda, tabiat og'ushida butkul xotir-jamlik holatida bo'lishim lozimligi haqida bir to'xtamga kelishdi, – deb gap boshladi Frammton. U ham ko'pchilik odamlar kabi begona odamlar va tasodifiy tanishlar kasallik tafsilotlari, sabablari va davolanish usullarini bilish istagida yonib turishadi, degan xato fikrga ishonardi, – ammo parhezga kelganda ular turlicha fikr bildirishyapti, – deb davom etdi mehmon.

– Nahotki? – missis Septon esnog'ini zo'rg'a bosib so'z qotdi. Biroq, keyin birdan uning yuzida hayajon ifodasi paydo bo'ldi. Frammton bu ifoda sababi o'zining so'zlari emasligini darhol payqadi.

– Mana, nihoyat ular kelishdi, – xitob qildi u, – ayni

choy vaqtiga yetib kelishdi, hozir bu yerga boshdan oyoq loyga belangan holda kirib kelishadi.

Bekaning bu so'zlarini eshitib Frammtonning butun vujudi titrab ketdi va u yordam so'raganday yosh xonim tomon yuzini burdi. Qizcha ham ko'zlarida aniq ko'rinish turgan dahshat ifodasi bilan lang ochiq derazaga tikiilib turardi.

Frammtonning kuraklari orasi muzlab ketdi, qandaydir ichki qo'rquvdan isitmasi ko'tariganday tuyuldi. Lekin u o'zini qo'lga olib, stulda o'tirgan holda gavdasini burdi va deraza tomon qaradi.

...Quyug'lashib borayotgan qorong'ilik orasida deraza oldidagi o'tloqni kesib o'tayotgan uch ko'lanka deraza tomon yaqinlashib kelardi. Uchovining ham qo'llarida miltiq, bittasi yelkasiga oq plashini ham osib olgan. Uzoq yurib holdan toyg'an jigarrang tusli spaniel zoti kuchukcha ularning oyoqlari orasida bazo'r pildirab kelardi. Ular uyga yaqinlashguncha sukut saqlashdi, so'ng yosh yigit bo'g'iq ovoz bilan qo'shiq boshladi: „Betri, sen nega o'zingni men bilan bog'lading?“

Frammton hovliqgancha o'z shlapasi va hassasini yulqib oldi-da, ko'chaga otildi. Yo'lakka olib chiquvchi eshik, mayda shag'al qoplangan sahn, hovli darvozasi uning ko'z oldidan birma-bir lipillab o'tdi. Ko'chadan o'tib ketayotgan velosipedchi Frammtonni urib yuborishdan qochib, yo'l chetidagi chetan devorga sanchilib qoldi...

– Mana biz ham keldik, azizam, – dedi oq makin-tosh egasi, ochiq oyna orqali uyga kirib kelarkan. – Usti-boshimiz loy, ammo u deyarli qotib bo'lgan. Biz uyga yaqinlashganimizda bu yerdan otilib chiqib ketgan kishi kim bo'ldi?

– Bu ancha g'alatiroq yigitcha, mister Nuttel, – javob berdi missis Septon. – U endigina o'zining kasalliklari

haqidagi hikoyasini tugatib turgandi, birdaniga o'z-o'zidan sapchib turdi-yu, hatto kechirim so'ramasdan, hech kim bilan xayrlashmay, yugurgancha chiqib ketdi. Bu yerda arvoh ko'rdimi deyman...

— Menimcha, u kuchukchadan qo'rqib ketdi, — asta so'z qotdi yosh xonim. — U menga hozirgina iltardan juda qo'rqishini aytib bergandi. Bir paytlar uni qayerdadir Gangdaryosining qirg'og'ida arvoh iltar quvlashgan, u qabringtonga qochib kirib jon saqlagan ekan. Aytishicha, u ertalabgacha yangi qazilgan qabrda o'tirib chiqqan, atrofda esa qandaydir sirli maxluqlar og'izlarini ko'piklantirib, tishlarini irjaytirib, qo'rqinchli irillab aylanib yurishgan ekan. Menimcha, uning o'rniida har qanday odam bo'lganda ham asabini ishdan chiqarib olgan bo'lardi.

Qizcha g'ayritabiiy voqea-hodisalar tasvirlangan hayviy hikoyalar yozish bilan shug'ullanardi...

*Ingliz tilidan*

*Ibrohim YO'LDOSHEV tarjimasi*

*Najib MAHFUZ*  
(Misr)

## QALAMPIR

„Baxt“ deb atalgan chog'roqgina qahvaxonada kelgan-ketganining e'tiborini tortadigan narsalar ancha-muncha. Lekin bu yerda chindan ham diqqatga sazovor g'aroyibot „Qalampir“dir.

Qalampir — o'n ikki yoshlar chamasidagi bolakay. Uning asl ismi — Taha Sankar. Ammo qahvaxonada va bu tevarak-atrofda u „Qalampir“ laqabi bilan mashhur. Erta sahardan to tun yarmigacha stollar orasida ivirib, yugurgilab, lov-lov cho'g' tashiydi. „Qalampir“ degan laqabni ham unga hoynahoy, mana shu kashandalar yopishtirishgan. Laqab unga haqiqatan juda yarashib tushgan edi: chaqqon, ko'zi o'tkir, har burchakda hozir-u nozir. Ifos qahvaxonaning bo'g'iq havosi „Qalampir!“ degan baqirig'chagiriqlardan larzaga kelib turadi.

U qariyb bir yildan beri shu yerda ishlab, kuniiga bir qurush puldan tashqari, nonushtaga va tushlikka bir stakan choyni tekinga ichar edi. Goho esa birona kashandadan keyin qolgan chilimdan bir-ikki marta qurullab tortishga ham haddi sig'ardi. Shularning hammasini hisobga olib, Qalampir o'zini omadi yuritishganlardan deb bilardi. Mijozlar ko'paygan payda ularga choy tashib yetkazib bo'lmaydi, bahslar avjiga chiqib, qahvaxonani boshlariga ko'taradilar, kimdir kechki gazetani baland ovoz bilan o'qigan, kimdir baland ovoza unga shart bergan... Munozara qizigan sari qahvaxonadagi boshqa odamlarni ham o'ziga tortib keta-

di. Qalampirga xuddi shunagasi kerak! Bora-bora odamlar nima haqida bahslashayotganini anglaganday, yaqinroq kelib quloq sola boshlaydi. Bu gal ular pora olgan bir amaldor haqidagi maqolani muhokama qilishayotgan edi.

– Nihoyat qo'lga tushibdi! – dedi kimdir. – Bunaqalar-dan hali qanchasi yallo qilib yuribdi!

Boshqa birovni gapni ilib ketdi:

– Ayrim mansabdorlarga oladi, deysanmi porani... Oddiyroq odamlar-chi, tekintomog emasmi? E, bu barcha-ga ayon-kul! Agar adliya xodimlari chinakam odil bo'lsa bormi, shahar huvullab qolib, qamoqxonalar to'lib-toshib ketardi, ha!

Shunda hamma gapga aralashib, bir-biriga so'z bermay, qo'llarini paxsa qilib, baqirib ketishdi, katta-kichik bir xil kishilarning nomlari ham tilga olindi. „Mana, masalan... falonchi... qaysi yo'l bilan boylik orttirganini bilamiz!“

Bitta-yarimtasi gapdan chalg'ib, uni chaqirganida, Qalampirning ahvolini tomosha qilsangiz! Go'yo cho'ntagi to'la pul-u, undan odamlar: „Ishlar qalay? Joyidami?“ – deb so'rayotganday, yuziga xotirjam va baxtiyor tabassum yoyiladi. Xo'jayin unga olov-qo'r tashishgina emas, chilimning o'zini eltib berishga, balki xo'randalarga qahva damlashga ham ijozat beradigan kunlarni orzu qilib iljayadi, shekilli-da! Unday bo'lsa u o'zini katta amaldor hisoblardi... Hozircha esa qahvaxo'rning betinim talabchan imo-ishoralarga: „Labbay, hozir!“ – deb, kekirdakka zo'r berishga to'g'ri kelyapti. Kekirdak ham bu yerda, oyog'ni qo'lga olganga o'xshab muhim.

Qalampir qahvaxonaga talabalar yopirilib kiradigan paytlarni xush ko'radi. Bu suronli, sershovqin to'dalar qahva buyurib, bahslashgani-bahslashgan, o'zlari o'rgan-gan burchakka g'uj bo'lib olib, sigaret tutuni ichida „taxta“ o'ynashadi.

Bu yerga qatnaydiganlarning ko'pchiligi singari, bular ham ancha yupun tabaqa-yu, ammo o'quv yurtlarida olgan bilimlari tufayli ular jamiyatning ko'zga ko'ringan qatlami hisoblanardi, ya'ni ziyolilar.

Uchta-to'rtta bo'lib kelishganida, qahvaxonadagilar-ga ancha bepisanlik bilan qarab, chekkaroqqa o'tirishadi. Lekin ko'plashib kelib qolishsa bormi, yoshliklariga borib, o'zlarining qayerdaliklarini unutib qo'yisharmidi?! „Falonchini aytl! Uyida to'kin bazm... daromadining man-bai... falonchi-chi... haligi-chi...“ Nihoyat, kimdir baland ovozi bilan baralla qichqiradi: „Ey, kissavurdan o'g'riga-cha tap tortmaydi!“

Qalampir bahslarning ma'nosiga yetib qoldi... Endi unga talabalar gapidagi ba'zi ajabiy so'zlar ham, ilgari g'ashini keltiradigan ilmoqli iboralar ham xalqit bermas-di. Zap topib gapiryapti: „O'g'ritik odatga aylangan!“, „O'g'rilarning oshig'i olchi!“ Qalampir buni yaxshi biladi, yaxshi tushunadi, o'zi ham o'g'ri emasmi, axir... Onasi ham pista sotib kelayotganida, tor ko'chada adashib yur-gan jo'jaxo'rozi... qo'yniga joylab qayradi... Otasi-chi? Kunduzi bodomfurush, kechasi esa tomma-tom sakrab, bi-rovlarning argondagi kirlarini...

Bu oqshom Qalampir o'ylaganidek xayolparastlik bilan tugamadi. Hujrasiga qaytsa, onasi siniq kursida, polda-gi axlatga tikilib qon yig'lab o'tiribdi. Mishiqi ukalari ham g'ingshib, onalariga biqingancha javdirashardi. Qalampir: „Nima gap?“ – deb so'rab ulgurmadi. „Dadamizni mir-shablar olib ketdi!“, deyishdi. Qalampir darrov tushundi, kattaroq singlisi voqeani yig'lab-siqtab gapirib berdi.

– Ular anechadan beri kuzatib yuritishgan ekan dadang-ni... – dedi ona.

Qalampir dadasini kamdan kam ko'r-ar edi. Odarda, da-dasi tungi „sayr“lardan qaytganida, u uxlab qolgan bo'lar-

di. Ertalab ishga ketayotganida esa otasi uxlab yotgan bo'lardi. Lekin, baribir, otasiga rahmi kelib, yuragi siqilib ketdi, yig'lab yubordi.

Keyin u qahvaxonadagi suroni gurlunglarni eslab, o'g'ri ko'p ekanini, o'g'irlik uchun birov qatig' jazolanmasligini onasiga hikoya qilib berdi... Onasining g'ashi kelib: „Bas qill“, deya jerkib tashladi. Qalampir esa hayajonda hamon gapiraverdi. Onasidan bir tirsaki yegandan keyingina uyquga ketdi.

Ertalab o'rindan turganida, hech narsa bo'lmagandek, hammasi esidan chiqib ketgan edi. O'zini tetik sezib, chopqillagancha qahvaxonaga jo'nadi. Chindan ham, nima bo'пти, otasi birinchi marta qo'lga tushyaptimi!..

Rus tilidan

Asqad MUXTOR tarjimasi

Ernest XEMINGUEY  
(AQSH)

## JUDA QISQA HIKOYA

Paduya shomlarining birida yig'itni yuqori qavatga olib chiqdilar. Endi u shaharni balanddan turib tomosha qilish imkoniga ega bo'ldi. Osmon jarqaldirg'ochlarga to'la edi. Sal o'tib, qorong'i tushdi va tunchiroqlar yondi. Yig'itning hamxonalari pastga tushib, ortlariga ichkiliklar bilan qaytardilar. Ularning shovqini Lyuz bilan unga balkon orqali eshittilib turardi. Lyuz karavotga o'tirdi. Kun nihoyatda is-siq bo'lishiga qaramay, Lyuz nihoyatda tarovatli edi.

Lyuz uch oydan beri muttasil kechki navbatchilikda turrardi. Bundan uning boshliqlari ham xursand edilar. Yig'itni operatsiya qilganlarida uni Lyuz jarrohlik stoli-ga tayyorlagan, o'shanda doktorlar, bu yig'itni baxti bormi yo'yo'q, deb o'zaro hazillashgan edilar. Yig'it og'riqsizlantiruvchi dori olgan va butun xayoli o'zini yo'qotmaslikda bo'lgani sabab, xushchaqchaq suhbat paytida ham atigi bir og'iz so'z aytishga-da majoli bo'lmagan. Keyinroq u Lyuz karavot-dan turib ketmasin, deb qo'ltiqayog'da turib olib, issig'ini o'Ichashni odat qilib oldi. Xonadagi bemorlar sanog'ligina edi va ularning hammasi yig'itning bu qilg'idan xabardor edilar. Xonadagilarning barchasi Lyuzni yoqtirishardi.

Yig'it frontga qaytib ketishidan oldin ular ibodatxonaga borib ibodat qildilar. U yer g'ira-shira va osuda bo'lib, ibodat qilayotgan boshqa kishilar ham bor edi. Yig'it bilan qiz bir yo'la nikohdan ham o'tib olmog'chi edilar-u ammo marosim ko'p vaqt talab qilar, vaqt esa juda tig'iz edi. Qolaversa,

hech birining yonida tug'ilish haqidagi guvohnomalari ham yo'q edi. Shunday bo'lsa-da ibodatdan keyin ular o'zlarini nikohlanganday his qildilar. Yigit bilan qiz bu haqda hammaning bilishini va shunday qilib bir-birlariga bo'lgan bog'liqlik tuyg'ularini mustahkamlashni istardilar.

Urush hanuz davom etardi.

Lyuz unga juda ko'p xat yozdi, lekin janglar orasida bo'ladigan qisqa tanaffus kelmaguncha yigit ularning hech birini ololmasdi. Nihoyat, qizning o'n beshta xati bir bog'lam bo'lib yigitga yetdi. U yozilgan kunlariga qarab xatlarga tartib berdi va birvarakayiga hammasini o'qib chiqdi. Xatlar gospiital, qiz yigiti qanchalar sevishi, shuningdek, yolg'izlik qanchalar og'irligi, ayniqsa, sokin kechalardagi sog'inch chidab bo'lmaz darajada ekanligi haqida edi.

Harbiy harakatlardagi tanaffusdan so'ng yigit uyga qaytib oila boqishga imkon beradigan biror ish topishi haqida kelishib oldilar. Yana shunga ham kelishdilar, yigit Lyuzni Nyu-Yorkda kutib oladigan darajaga yetguncha qiz yigiting uyiga ham bormaydi. Tabiiyki, yigit bu davrda ichmaydi, shtatlardagi biror do'stini va yo boshqanini ko'rib qolishni ham istamaydi. Faqat ish topish va uylanish – tamom. Paduyadan Milanga poyezdda ketayotganlarida qizning hozir yigiting uyiga borgisi kelmayotgani sabab jiqillashib qolishdi. Milan stansiyasida xayrlashishga gal kelganida bir-birovlariga bo'sa ham hadya etishdi, ammo boyagi janjalga chek qo'yilmadi. Bunday xayrlashish yigiting ko'nglini og'ritdi va u o'zini juda notavon sezdi.

Yigit Paduyadan poroxodda Amerikaga, Lyuz esa Pardononega, gospiital ochishga ketdi. Bu yer xilvat va yomg'ir ko'p yog'adigan joy edi. Shaharda italyan armiyasi ko'ngilli piyodalarning batalyoni joylashgandi. Iflos

va yomg'irli shaharda, tag'in qish paytida yashash joniga tekkani batalyon mayori o'zini Lyuzga oshiq qilib ko'rsatdi va ayshini sura boshladi. Italiyalik erkaklar haqida biron bir tasavvuri bo'lmagan Lyuz Amerikaga ketgan yigitinga xat yozib yubordi. Nomada, ularning orasida bo'lib o'tgan munosabatlarni bor-yo'g'i bir o'spirin va qizaloq o'rtasidagi havas ekanligini aytdi. Xatida qiz kechirim so'rar va yana bu o'zgarishning sababiga yigiting aqli yetmasligiga imoni komil edi. Shuning uchun bir kun yigit uni kechirishini va undan minnatdor bo'lishini kutardi. O'zi esa bahorda bo'ladi deb o'ylagan to'yiga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Qiz yigiti hamon sevar, ammo ularning munosabatlari ikki bokira tanning sevgisi bo'lganligini kashf etgandi. Lyuz, yigit ulkan ishlarga qodir deb bilar, unga qattiq ishonardi.

Mayor bahorda qizga uylanmadi, umuman, hech qachon ularning to'yi bo'lmadi. Lyuz bu haqda Chikagoga yozib yuborgan edi, unga ham hech qanday javob olmadi. Ko'p o'tmay yigit ham Linkoln parkida kirakashlik qilib yurur ekan, savdo rastalarining barida ishlovchi qandaydir dengizchi qiz bilan tanishdi va undan so'zak o'rtirib oldi.

*Ingliz tilidan  
Shuhrat MATKARIM tarjimasi*

## QUYOSH QO'SHIG'I

— Anavini qarang-a, o'rdak emasmi?

— Qani?

— Hozirgina suv yuziga kelib qo'ndi. Bir daqiga shosh-mang. Mana endi ko'rsangiz bo'laveradi.

Quyosh nurida toblanib yotgan erkak uzala tushgan joyidan xiyol ko'tarildi.

Ikkinchi jahon urushida qatnashgan avstraliyalik askar formasi erkakning yonida yoyilib yotardi.

Bir bolakay bu askardan biroz narida qaddini tik tut-gancha uzozqlarga termilib turardi.

— O'rdaklar bitami yoki ikkitami? — deb so'radi erkak.

— Bitaga o'xshaydi, — dedi bolakay.

— Chindanam o'rdak ekami o'zi?

— Bo'lmasan-chi, naq o'rdakning o'zi-ku!

— Sal kichkinaroq bo'lib ko'rinnayapimi?

— O'rdaklar suzayotganlarida doim shunaga bo'lib ko'rinadi, — dedi bola va davom etdi — Borib, qurolingizni olib kelsammikan, a?

Shu tobda bolakayning yuragi qaynab toshardi.

— Xo'sh... ha mayli. Olib kelsang olib kela qol, — izn berdi erkak ohista. U bir necha masofa naridagi o'rdak to-monga tobora qiziqishi ortib, ko'z uzmay tikilib qolgandi.

„Voajab, hamma narsaga o'ta ishtiyog bilan qarar ekan-mi? Boshini qanday burishini qarang. Hech narsani nazari-

dan qochitirmaydi-ya. Ishonchim komil, u aniq o'rdak bola-si", — dedi u o'ziga o'zi.

— Endi qurolni olib kelaveraymi? — Bolakayning sabri chidamay, borgan sari oyog'ini qo'ygani joy topolmay, tur-gan yerida tinmay tipirchilardi.

— Kel, uni yana bir lahza bo'lsa ham tomosha qila qolaylik, — deya uning shashini pasaytirdi erkak. — Qara, u qanday baxtiyor. Xuddi urushdan katta sog'inch ila uyi-ga qaytib kelayotgan peshonasi yorug' askarga o'xshaydi. Sen uning yerga qo'nganini ko'rding-a?

— Ha-da. U avval anavi joyda uchib yurgandi. Keyin men uni suvga yaqinlashayotganini ko'rib qoldim. Endi qurolingizni olgani ketsam ham bo'lar?

— Mayli, mayli, — dedi erkak. — Borib kela qol. Ungacha men o'rdakchani tomosha qilib o'tiraman.

Bolakay avval asta-sekinlik bilan qadam tashlab, keyin esa zipillagancha tepalik ustidagi stansiya tomon chopib ketdi.

Erkak qaddini rosladi. Jajjigina o'rdakcha unga shu damda urushning qoni lavhalarini eslatib yuborgandi.

Xo'p, yaxshi, bu-ku bitta qush ekan, bu mitti mavjudot bir askar boshiga tushajak ko'rgiliklardan zig'ircha ham tahlkaga tushmaydi. Uning uchun hayot va baxt — ozod purvoz! U Bobo Quyoshning harorati qo'shig'ini tinglash uchun o'zining jimitdakkina jonini eson-omon ko'targan-cha osmon-u falak bo'ylab uchib ketaveradi... Hatto ajal nafasi ufuirib turgan quyug' chakalakzorlar ustidan ham qu-lochlarini keng yoygancha emin-erkin uchib o'taveradi u...

\*\*\*

Hozirgina bo'lib o'tgan voqeani yosh askar yana bir marta o'z quloqlari bilan eshitib, o'z ko'zlarini bilan ko'rdi. Yaponlar qoq tunda kelib bo'lishgan ekan. Ular allaqachon

yerga tushib, askarlar tomon hujumga o'tgandilar; zim-ziyochada, yog'iy askarlari birin-ketin suv betidan bosh chiqarib, ko'payib borishardi. Ular bir daf'a bo'lsa, ortga chekinishmadi. O, bu na'ralar... xunrezliklar... ko'tarilayotgan va yiqilayotgan odamlar...

Keyin ular yashiringan qalin chakalakzor va uyga tomon eluvchi adog'siz yo'l askarning ko'z oldida jonlandi.

Oh! Yana o'ldirishlar, o'ldirishlar! O'ldirishlar!

\*\*\*

Sobiq askar ortiga o'girilib, haligi bolakayni qo'lida qurol bilan halloslagancha yugurib kelayotganiga ko'zi tushdi. Askar yana o'rdak tomonga boqdi.

O'rdakcha ochiq suv quchog'ida bermalol, bexavotir suzib yurardi.

Shunda sobiq askar yerdan bitta toshchani qo'lga oldida, uni o'rdakchani yonginasiga tushadigan qilib ulotirdi.

O'rdakcha cho'chib suvdan ko'tarildi-da, havoda baland bo'lib uchib ketdi, bir nafasdan so'ng yana olistroqdagi suv yuziga qo'rqa-pisa qo'ndi. Suv yuzida balqib turgan o'rdakning ho'l qanotlari quyosh nurida yargirab, oftobgaga tashakur aytayotgandek tovlanardi. Uning bu holati, ayni shu damda, sobiq jangchining ko'ziga tilsiz qo'shiqdek tuyulib ketdi. Shu mahal bolakayning achchiqlangan ovozi eshitildi.

— Nima qilib qo'ydingiz? — dedi bolakay yig'lamoqdan beri bo'lib. — Biz endi uni sira ham tuta olmaymiz!

Askar indamasdan yerda yotgan formasini yig'ishtirib oldi-da, shoshilmay kiyina boshladi.

— Yo'q, — dedi u xotirjam. — Biz uni hech qachon tuta olmas edik.

*Ingliz tilidan*

*Qandilat YUSUPOVA tarjimai*

*Aleksandr KUPRIN*  
(Rossiya)

## SO'NGGI IJRO

Uchinchi va to'rtinchi ko'rinishlar oralig'idagi tanaffus yakunlanmoqda edi. Kapelmeyster Gekkendorf Bobil asirlikdagi yahudiylar yig'isi g'oyatda yorqin tasvirlangan eng qiziqarli joygacha hozirgina yetib keldi. Ivan Ivanovich nuqul serjazava, fuga nola qilib turadigan shunday pyesalarni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi — unda fleytaning hasrat ila ingranishi klarnetning faryodli chinqiriqlari bilan qorishib ketadi. Trombon hech narsaga qaramay, guv-guv qilar va hamma yogni turli nog'oralarning taraga-turumi tutib ketardi. Tovushlarning betartib shovqinidan dahshatga tushgan va cholg'ularni joyiga qo'yishga tayyor mashhoqlar mung to'la, umidsizlikdan loqaydlik aks etgan nigohlarini bot-bot kapelmeystrga tashlar edilar...

Shunda Ivan Ivanovich hammamni tang qoldirdi: u o'zini u yoqdan bu yoqqa otar, gavdasi bilan eng qiyin harakatlarni bajarar, chaqonligi ila xaloyiqni hayratga solar edi. Nihoyat charchoq va hayajondan qip-qizarib, cholg'ular umumiy jo'rlikka qo'shilib ketganida tomoshabinlarga tantanavor ko'z yugurtirib chiqdi. Bu gal omma Ivan Ivanovichning musiqiy chiqishlaridan u aytgan marta kutilayotgan drama haqidagi suhbatlar bilan andamon edi. Muallif ismini yarim ovoza tilga olar va quyug

sochi to'zg'in yigit o'tirgan liter<sup>1</sup> ayvonchasi tomonga ishora qilardi.

Sahnada to's-to'polon avjida edi. Bir vaqtning o'zida ham dekorator ham mashinist, ham ssenarist vazifasini bajarayotgan Aleksey Trofimovich Petunya qattiq haya-jonda edi.

— Tushiringlar, kulisalarni tushiringlar! — qichqirdi u, sahna bo'ylab syurtuksiz yugurar ekan. — Sekinroq-da, axir ko'zlaringga qaranglar! Menga qara, hov naynovvachcha, oting nimaydi?

— Kirill-da, nima bo'lardi, — javob berdi miyig'ida kuib, jingalaksoch, bo'ydorgina yigitcha.

— Gap bunday, qo'zichog'im Kirill, tezda pastga, kas-saga tushgin-da, Andrey Filippovichdan mening sakvoya-jimni so'ra, uqdingmi? Qoqchada, mana bunaga kichkina, dunaloq idish... Nega qarab turibsan, chopsang-chi! Hoy, nima balo, uxlab qoldilaringmi? Daryo qani? Nikolay An-tonovich, daryoni unutibsizlar-ku, daryoni haydang!

— Osilib turaversin, — yuqoridan dag'al ovoz javob gay-tardi, — endi kulisalar xalaqt beradi, qaytanga osonroq bo'ladi.

— Siz-chi, Nikolay Antonovich, devorni tuzatdingiz-mi? O'tgan safar Anempodistov o'n to'rtta tishidan ay-rilgandi. Aleksandr Petrovich, nima qilishimni ham bilmay goldim, bulutlar parcha-parcha bo'lib sochilib ketgan, daryo yilt-yilt qiladi, kulisalar eskiligidan chirib ketgan...

So'nggi so'zlar antreprenerga<sup>2</sup> va qo'lida qamchi bilan sahnadan tez yurib o'tgan truppa direktoriga qarata aytil-gandi. Bu o'ttiz besh yoshlardagi baland bo'yli, kelishgan

<sup>1</sup> Liter — xos kishilarga mo'ljallangan joy.

<sup>2</sup> Antreprenier — teatr mutasaddisi.

kishi edi. Yuzi tevaragimi quyug qora sogol qurshab olgan bo'lib, sochi yelkasiga chiroyli tushgandi, soxt-sumbati-dan u o'ziga yetgancha mag'rur, qurb-qudratiga ishonchi manaman deb turardi. Ayniqsa, uning katta-katta, kulrang, novuq boquvchi ko'zlari bir qarashda e'tiborni o'ziga tor-tardi, uning tik boqishiga ko'plar, hattoki eng jiddiy odam-lar ham tob berolmasdi.

— O'zingiz bir o'ylab ko'ring, — zorlanardi Aleksandr Trofimovich, jon-jahdi bilan qo'llarini harakatga kelti-rib, — Andryusha yana ichib olibdi, eski kulisalar hech nimaga yaramaydi, qulab tushib, bitta-yarimtasining boshini yorishi hech gap emas...

— Keyin, keyin, — uning gapini bo'ldi parishonxoirlar-cha Aleksandr Petrovich. — Golyaskaya qani?

— Xonim pardoixonada bo'lsalar kerak, agar adashma-nim, — javob berdi Aleksey Trofimovich va topshiriqlar bergani yana chopib ketdi.

Yuqoriga ko'tarilib, Aleksandr Petrovich chog'gina bo'yalgan eshik oldida to'xtadi va taqillatdi.

— Kim u? Kiravering! — Eshik ortidan yuqimli ayol ovozi quloqqa chalindi.

Lidiya Nikolayevna Golskaya chindan sohibjamol edi. Faleri laqabi ostida sahnada o'ynagan va asarning qoq o'rtasida qisqa, ammo zaharli „Partnyorsiz qiyofa“ epi-grammasi bilan savdogar xotinlarning yuragini zabt etgan trugik Anempodistov har gal Lidiya Nikolayevna haqi-da gap borganda, ko'zlari kosasidan igr'ib chigardi. Bir nechta daqiqagacha ola-kula bo'lib o'tirar, xirildoq ovo-z-da: „Farishta! Farishtaning o'zi!“ — deb luqma tashlar edi. Darhaqiqat, yuz bichimi nihoyatda fuskunkor, tungan-bit-gani qadimgi malikalarni esga soluvchi, tiniq va rangpar chehrali Golskayaga bundan ortiq tashbeh topib bo'lmasa kerak.

Antreprenor kirib kelganda Lidiya Nikolayevna shiddat bilan oldinga intildi, ammo yana oromkursiga cho'kdi va birdan ikkala yuzi qip-qizarib ketdi.

– Sizni huzurimga qaysi shamol uchirib keldi? – so'radi aktrisa zo'raki iltifot ila, uning tovushida oshkora alam va nafrat ohangini payqash qiyin emasdi.

Aleksandr Petrovich qora sochini silkitib qo'yadi.

Tomdan tarasha tushganday qilib berilgan bu savol unga juda og'ir bordi, chunki u yotig'i bilan gapirishni niyat qilib kelgandi.

– Avvalo sizdan ikkita narsani so'ramoqchiman, Lidiya Nikolayevna, birinchidan, menga bunaga ohangda gapirishingizni tashlasangiz. Ikkinchidan, sizga shuni ma'lum qilmoqchi edimki, sizning ko'rinishingiz va umidsiz nigohlaringiz meni yaxshi ma'noda tashvishga soladi. Bunday bo'lishiga jo'yali bir asos bormikan? Bugun esa, xuddi ataylab qilgandek, juda yomon o'ynayapsiz. Yaxshiyamki, tomoshabinlar sizni yaxshi ko'rishadi, aks holda siz tufayli pyesa barbod bo'lishi tayin edi, ha, uzil-kesil yo'qqa chiqardi... Ming qilsa ham ayolligingizga bordingiz, burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirdingiz! Bu yerda mendan tashqari muallif aziyat chekadi, sizning o'rtog'laringiz aziyat chekishadi; iymonim komilki, tomoshabinlarning to'rtidan uch qismi ovozingiz o'layotganidan bexabar, – shunday deya Aleksandr Petrovich g'ijingan, o'pkasini qo'ltiqlagancha javob kutib, ayolning qarshisiga kelib to'xtadi.

– Aleksandr Petrovich, axir tanangizga bir o'ylab ko'rsangiz-chi, – nihoyat tilga kirdi Lidiya Nikolayevna tiniq tovushda, – umrida birinchi marta chin dildan sevil qolgan ayolni tasavvur qila olasizmi?

Aleksandr Petrovich toqatsizlangandek bir harakat qildi. – Biroz shoshmay turing! – so'zida davom etdi Lidiya Nikolayevna. – O'sha ayol bir ayol berishi mumkin bo'lgan

hamma narsani berdi, deb tasavvur qiling, yigit esa mana shu qaynoq, so'g'ir muhabbatni haqoratlatadi, sevgan ayolni taqdir hukmiga tashlab ketdi. Yana shu narsani tasavvur qilingki, Aleksandr Petrovich, mana shu ayol o'z joniga qasd qilishga yoki telba bo'lishga juda yaqin qolganida, ha-ha, ayran mana shunday vaqtda minglab odamlarning ko'nglini chog' qilishga to'g'ri keladi!

– Ana shunaqa! Xuddi o'ylaganimdek bo'lib chiqdi, – gapni ilib ketdi betoqat antreprenor. – Siz to'g'ridan to'g'ri mendan izoh talab qila olishingiz mumkin bo'lgan vaqtda bu yerda shama va pisandalarga hojat ne edi? Sizga sevishimni chin yurakdan aytgan edim, ya'ni xuddi sizga o'xshab – bunga shubha bo'lishi mumkin emas, deb o'ylayman. Bordi-yu mendan ko'nglingiz qolgan bo'lsa, g'amga botib yurmagan, sizdan sevgi talab qilmagan bo'lar edim! Bordi-yu ishq izirobi menga og'irlik qilguday bo'lsa, o'zimni teatrning birinchi to'siniga osib qo'ya qolar edim. Agar raqibimga qarshi rashk va g'azab alangasida kuyguday bo'lsam, qarab o'tirmas edim, ko'nglim nimani xohlasa shuni qilar edim; masalan, mana shu grafin bilan bitta-yarimtani boshiga urib yorgan bo'lar edim...

– Aleksandr Petrovich, – e'tiroz bildirdi Golskaya, – siz mening ayol kishi ekanligimni unutingiz chog'i...

– E-ey, nima farqi bor! Ba'zi yaramas „kuydim-yondim“chilarning, modomiki, erkak va ayol bir-biriga ko'ngil qo'ydimi, ular o'rtasida qandaydir o'zaro axloqiy majburiyat paydo bo'ladi, degan gaplariga o'la qolman ishongim kelmaydi. Ha, to'g'risini aytamanki, tushunmayman ularni, Lidiya Nikolayevna! Erkakning bir so'ziga ishonib, uni nikoh kursisigacha olib borish bokira qizlarga xos va buni kechirsa bo'ladi. Men sizga yoqib qoldim, siz menga yoqib qoldingiz, – xo'sh, buni siz ta-

biy deb o'ylaysizmi? Sizni yoqtirmay qo'yganimni-chi, nahotki bu tabiiy bo'lmasa?

— Aleksandr Petrovich! Ontlaringiz, va dalarangiz-chi? Siz uchun muborak bo'lgan nimaiki qolgan bo'lsa, barchasini muhabbatigiz guvohligiga chaqirgan siz emasmingiz?!

— Nima bo'libdi shunga? Yoki meni yog'ochdan yasalgan sanam deb o'ylaganingiz? Meni ham, sizni ham birdek kuydirgan ehtiros o'rminida bo'lgan har qanday odamni menday ont ichishga majbur qilgan bo'lardi! Xo'sh, durust, faraz qilaylikki, men bu ontlarimga vafo qilishim kerak edi; sizdan ko'nglim qolganini lo'nda qilib, ochiqchasiga aytganimdan keyin ham sevgimga ishonning deb boshqatdan yaliniy-yolvora boshlasam, nahotki siz bundan huzurlansangiz? Siz esa o'z ixtyorimcha nozik hissiyotlarimni chorlay olmasligimga iqrar bo'lmog'ingiz kerak va shart!

Mana shunday nochor holatida ayol yigitga shunaqangi yaxshi ko'rinish ketadiki, bundan antreprenyer ham istisno emasdi, binobarin, uning ko'nglidan bir fikr yilt etib o'tadi: men hali ham uni ko'ndirishim mumkin, bir sinamoqchi edim, deyman. Ammo bu bir lahzagina ro'y berdi, ikkinchi lahzada u vasvasali fikrni haydab yubordi-da, sovuq ohangda javob berdi:

— Nima qilibman? Qonuniy tarzda bolaning hayotini ta'minlashing kerak, deysizmi? Siz shuni xohlaysizmi? Bajon-u dil...

Antreprenyer jumlani oxirigacha tugatolmadi. Tahqirlangan ayol oromkursidan turti-da, g'azabdan bo'g'ilib, deyarli shivirlab dedi:

— Yo'qol!

Bu „yo'qol“ har qanday qichqiriqdan ham kuchliroq edi. Hech qachon, hech bir holatda o'zini yo'qotmagan odam boshini eggancha indamay chiqib ketdi.

Lidiya Nikolayevna yopilgan eshikka uzoq qarab qoladi va deyarli holsiz oromkursiga cho'kdi. Miyasida og'ir fikrlar uyasi buzilgan aridek g'ujg'on o'ynardi, shu bilan birga qandaydir dahshatli qaror vujudga kelib, pishib yetilmoqda edi.

— Siz chiqasiz, Lidiya Nikolayevna, — birmuncha mudaddatdan keyin komik Valsoving chiyilidoq ovozi yangradi. Uni Anempodistov zaharxandalik bilan har ishga mohir ustasi farang deb atagan edi. — Tezroq bo'ling, iltimos.

Lidiya Nikolayevna hayajonini yenga oldi. Ajoyib artist, deb aytishlari bejiz emas-da. Qurug'ima, qat'iy ohangda javob berdi:

— Boryapman!... Ayting, kelyapti deng.

Salnada havo dim edi. So'nggi parda ketardi, unda nevgan yigiti (bu rolni antreprenyer jiro etardi) aldagan va nohoq ta'na-malomatga qolgan bir qiz zahar ichib o'tadi, uni qattiq sevgan yigitiga nisbatan nafrat-u qarg'ishlarini o'zi bilan qabriga olib ketadi. Golskaya o'z chiqishini kutib, kulisaga suyanib turardi, rangi bo'zday ogarib, yuragi duk-duk urardi. Kimdir uning qo'lidan tutib silkiy boshladi. Qulog'iga rejissorning mehribonlik bilan aytgan gaplari chalindi:

— Judayam ogarib ketibsiz, Lidiya Nikolayevna, suv ichasizmi?

Lidiya Nikolayevna „yo'q“ degandek xomush bosh chayqadi.

„Boshlanyapti, boshlanyapti, — qo'rquv ichida o'yladi u, — so'nggi marta so'rayman va u javob berishi kerak, begonalarning so'zlaridan mening azoblarimni tushunishi kerak... Oh, yuragimning urishini!... Manavi manfaat Anempodistov esa qiyshanglab qichqirgani-qichqirgan!“

U kuta-kuta oxiri g'azabini ifoda etishi kerak bo'lgan talvasali harakatlarda qiyshanglagancha, Anempodistov

gumburlagan bosiq tovushda falakdagi barcha momaqal-diroqlarni kimningdir sho'rtlik boshiga chaqirib, kulisalar ortiga ketgan pallada rejissorning keskin shivirlagani qu-log'iga urildi:

– Siz chiqasiz, Lidiya Nikolayevna.

– Intizor bir holatda aktrisa sahna tomon odimladi.

Ana u – qayg'u-g'anda ham bemisli go'zal va ulug'vor buyuk xilqat, uning bir bora ko'rinishining o'ziyoq yuzlab qablarni larzaga solib, vujudlarni titratib yuboradi.

U sahna o'rtasida turgan bahaybat qiyofadan bosh-ga hech narsani ko'rmasdi va bu qiyofa unda qanday tuyg'u uyg'otganini ham bilmasdi: oldingi ezgu muhabbat tuyg'usini yoki chuqur nafrat tuyg'usini...

„U nima derkin? – xayolidan kechdi uning. – Nahotki, bu muzday yurak erish nimaligini bilmasa? Ayt, seni se-vaman, de, avvalgidek meni quch, men hamma narsamni senga baxshida etgaman-ku, axir, men seni behad, begidir sevar edim... Ammo bu qanaqasi bo'ldi? Nahotki tariqcha ham umid qolmagan bo'lsa?... Ana, u nimadir deyapti... Yo'q! U hamon unga sovuq, beshafqat so'zlar edi, bu unga jon oluvchi, yuragini poralovchi kinoya edi...“

Ayol qo'llarini qirillatgancha ingranib yig'lar, muhab-batini qaytar, o'zimga shafqat qil, deb yolvorar edi. Ayol uni bandasi-yu Rahmonning hukmiga havola etar ekan, yana telbalarcha achchiq-achchiq ko'zyosh to'kardi...

Nahotki u ma'shuqasining ahvolini tushumasa, uning majruh yurak faryodiga javob qaytarmasa?!

Ayol qalbini tushunolmagan mingta oshiqdan bittasi bo'lib, yigit (ya'ni antrepremer) aktrisa ortidagi sevgi tim-solini ko'ra olmadi; ayol yuziga zaharolud kek ila bir qarab qo'ydi-da, gavdasini mag'rur tutgancha uni xiyonatkorona tashlab ketdi.

Suyukli ma'shuga bir o'zi qoldi.

Hamma yuragini hovuchlab olgandi. Har bir tomosha-binning badanidan sovuq ter chiqdi.

Taajjub ichida sufiyor kitobni tap etib yopdi – unda muna bunga o'xshagan, mung va qayg'uiga to'la so'zlar yo'q edi.

Sozining ovozini pasaytirishga chog'langan skripkachi bir to'xtadi-da, dahshatdan ko'zlarini katta-katta ochgan-cha tosh qotdi.

Ma'shuga esa qandaydir xasta ovoz bilan o'zining halok bo'lgan sho'rtlik muhabbati dostonini hikoya qilardi – os-monga tavallo qilib, undan ajal so'rar, uning hayotini bar-bod etgan odam uchun duoyibadlar o'qib, boshiga ming-turli balolar yog'ilishini tilardi. Tanobiyda go'riston jim-ligi hukm surardi – har bir so'z haddan tashqari aniq-tiniq eshitilib turardi.

Birdan Golskaya to'xtadi va asta rampa<sup>1</sup> oldiga keldi. Endi u yig'lamayotgandi, qo'llarini asabiy qirillatmasdi, chehrasida oshkora xotirjamlik hukmron edi. Qo'lida qora quyuglik solingan shisha idishcha yiltillardi.

„Shunaga ham yoqimsiz hid bo'ladimi?... Qo'rqib ketyapman... O'zimni qo'lga olishim kerak... Achchiq... Ichim yonib ketyapti...“

U katta-katta, hayrat to'la ko'zlari bilan tomoshabinlar-ni kuzatdi... Yuzlari ogarib ketdi, bir chaygaldi-da, qo'r-qinchil, yurakni tilkalovchi qichqiriq bilan farshga quladi. Tomoshabinlarning oppoq chehralarida hayajon va alla-qanday sarosimali hayrat aks etdi. Go'riston jimligi ostida parda asta-sekin tusha boshladi, biroq shu zahoti gulduros qursaklardan teatr larzaga keldi.

– Golskaya! Golskaya! – degan ovozlar har tomon-dan yangrar, eng yuqori qavatdagi joylarda tomoshabinlar

<sup>1</sup> Rampa – sahnaning old qismi.

shovqin solib, yerni dup-dup tepar, talvasali qichqiriqlar eshitilardi. Parda burchagi silkindi, kimdir sahnadan jur'at-siz bosh sug'ib qaradi-da, yana g'oyib bo'ldi.

— Golskaya! Golskaya! Ofarin! — qichqiriqlar tinimsiz yangrar edi. Parda yana chayqalib keldi, sahnaga gul va gulastalar yog'ildi.

Iye, bu qanaqasi? Rampa yonida qo'rqqanidan yuzi devorday oqarib ketgan bir kishi paydo bo'ldi. U yoshdan xiralangan ko'zlarini asta tanobiy bo'ylab yugurtirib chiqdi-da, titroq ovoza eshitilar-eshtilimas qilib dedi:

— Janoblar, Golskayadan ayritib qoldik...

*Rus tilidan*

*Amir FAYZULLA tarjimasi*

## **Konstantin PAUSTOVSKIY** (Rossiya)

### **USTARA**

Tun bo'yi qor aralash yomg'ir yog'di. Shimol tomondan esgan shamol makkajo'xorining iringan poyalarida hushtak chalar, nemislardan sado chiqmasdi. Qirg'oq yaqinida turgan qiruvchi kema onda-sonda to'plaridan Mariupol tomonga o'q o'tib qo'yardi. Shunda qora bir guldarak cho'lni larzaga solar, snaryadlar boshingiz tepasida tarang tortilgan bo'z yirtilganday tovush chiqarib, qorong'ilikqa r'iga uchishardi.

Yomg'ir ta'sirida yaltiroq bo'lib qolgan kaska kiygan ikki jangchi tongda mayor istiqomat qiladigan loysuvuq uyga keksa, past bo'yi bir kishini olib kelishdi. Uning ho'l katak kamzuli badaniga yopishib qolgan, oyoqlarida kat-takatta loy bo'laklari osilib yotardi.

Jangchilar mayor oldidagi stolga tintuv chog'ida qari-yaning yonidan topilgan narsalar — pasport, ustara va soqol qirishda ishlatiladigan cho'tkachani jimgina qo'ydi-lar-da, chol jarlikdagi quduq oldida qo'lga olinganini ayttilar.

Qariya so'roq qilindi. U Mariupol teatri sataroshi ar-mani Avetis ekanini aytdi va keyinchalik qo'shni qism-larda ham uzoq vaqt tildan tilga ko'chib yurgan vogeani hikoya qilib berdi.

Satarosh nemislar kelguncha Mariupoldan qochib ketishga ulgurmadi. U qo'shnisi — yahudiy ayolning ikki o'g'lichasi bilan birga teatr yerto'lasiga yashirindi. Qo'shni

ayol bundan bir kun oldin non olib kelish uchun shaharga ketgan ko'yi qaytib kelmadi. Aftidan, u bombardimon paytida halok bo'lgandi.

Sartarosh yerto'lada bolakaylar bilan bir kecha-kunduzdan ko'proq vaqtni o'tkazdi. Bolalar bir-birlarining pinjlariga tiqilib o'tirishar, uxlashmas, nuqul nimagadir quloq tutishardi. Tunda bolalarning kichiklari baralla yig'lab yubordi. Sartarosh unga do'q-po'pisa qilgandi, bolakay jimib qoldi. Shunda sartarosh kamzuli cho'ntagidan iliq suvli shishani olib, bolaga ichirmoqchi bo'ldi, lekin u ichmadi, labini chetga burdi. Sartarosh bolakayning iyagidan ushladi – uning yuzi ho'l, issiq edi – unga zo'rlab suv ichirdi. Bola hiqillab, yutoqib ichar, loyqa suv bilan qo'shib ko'zyoshlarini ham yutmoqda edi.

Ikki kecha-kunduz deganda nemis yefreytori hamda ikki askar bolalar va cholni yerto'ladan chiqarib oldilar-da, o'z boshliqlari – leytenant Fridrix Kolberg huzuriga olib keldilar.

Leytenant tish vrachi tashlab ketgan xonadonda yashardi. Qo'porib olingan oyna romlari taxta bilan bekitilgan, xonalar qorong'i, sovuq – Azov dengizi ustidan rutubatli bo'ron o'tmoqda edi.

– Qanaqa tomosha bu o'zi?

– Uch juhudni tutib oldik, janob leytenant! – axborot berdi yefreytor.

– Yolg'onning nima hojati bor, – dedi leytenant muhojirlik bilan. – Bolakaylar juhud, to'g'ri, lekin mana bu qari mayib borib turgan grek, ellinlarning buyuk avlodi, polepones maymuni, garov o'ynayman. Nima deding! Sen armanimisan? Menga buni nima bilan isbot etasan, iringan mol go'shti?

Sartarosh indamadi. Leytenant etigining uchi bilan oltin romning oxirgi bo'lagini pechkaga tiqdi va asirlarni bo'sh

turgan qo'shni xonadonga olib borishni buyurdi. Kechga tomon leytenant do'sti, xo'ppa semiz uchuvchi Erti bilan shu yerga keldi. Ular qog'ozga o'rog'liq ikkita katta shisha olib kelishgandi.

– Ustara yoningdami, – so'radi leytenant sartaroshdan. – Shunaqami? Unday bo'lsa, bu farishtasurat juhudvachelarning boshlarini tarashlab qo'yl!

– Nima keragi bor, Erti? – erinchoqlik bilan so'radi uchuvchi.

– Bolakaylar juda chiroyli, – dedi leytenant. – Shunday emasmi? Men ularning chiroyini biroz buzmoqchiman. Ana shunda ularga kamroq achinamiz.

Sartarosh bolalarning sochini tap-taqir qilib oldi. Ular boshlarini eggancha yig'lab o'tirishar, sartarosh esa kulmistrab qo'yardi. Doimo boshiga baxtsizlik tushsa, u shunaga qiyshiq jilmayardi. Bu jilmayish Kolbergni aldadadi, – leytenant o'zining beozor hazili qari armadini zavqlantiriyapti deb o'yladi. Leytenant bolalarni stol atrofiga o'tqazdi, shishaning og'zini ochdi va to'rt stakanga to'ldirib araq quydi.

– Senga araq bermayman, Axilles, – dedi u sartaroshga, – kechqurun soqolimni qirishingga to'g'ri keladi. Sizlarning go'zal jononlaringiznikiga mehmonga bormoqchiman.

Leytenant bolakaylarning tishlarini kuch bilan ochib, har qaysisining og'ziga bir stakandan araq quydi. Bolakaylarning aftlari burishar, nafaslari tiqlar, ko'zlaridan yosh oqardi. Kolberg stakanni uchuvchi bilan urishtirib, araqni ichdi va shunday dedi:

– Men doimo yumshoq usullarning tarafdori edim, Erti. – Senga, axir, bekorga ajoyib Shillierimizning nomini berishmagan-da, – javob berdi uchuvchi, – hozir ular raqs tusha boshlashadi.

– Bo'lmasan-chi!

Leytenant bolalarning og'ziga yana bir stakandan araq quydi. Bolakaylar o'zlarini himoya qilishdi, lekin leytenant va uchuvchi qo'llarini qisib, araqni sekin-asta quyib, boyaqishlar oxirigacha ichishini kuzatishar, qiyqirib kulishardi:

— Xo'sh! Ana shunday! Shirimmi? Qani, yana bir marta! Juda zo'r!

Bolalarning kichigi qayt qila boshladi. Uning ko'zlari qizarib ketgandi. U o'rindiqdan sirg'alib tushdi-yu, yerga yotdi. Uchuvchi uning qo'ltig'idan ushlab, o'tirg'izib qo'ydi va og'ziga yana bir stakan araq quydi. Shunda bolalarning kattasi birinchi marta chinqirib yubordi. U quloqni teshgudek qichqirar, qo'rquvdan dum-dumaloq bo'lib qolgan ko'zlarini leytenantdan uzmasdi.

— Jim bo'l, itvachchal — bagirdi leytenant.

U bolalardan kattasining boshini orqaga tashlab, shishadan to'ppa-to'g'ri og'ziga araq quydi. Bola o'rindiqdan qulab tushdi, devor tomonga emaklab ketdi. U eshikni axtartar, aftidan, ko'r bo'lib qolgandi, shuning uchun boshi bilan kesakiga urildi, oh tortdi va jimib qoldi...

— Kechga tomon, — dedi sartarosh bo'g'ilib, — bolakaylarning ikkalasi ham o'ldi. Ular xuddi yashin urgan-dek qop-qora, g'ujanak bo'lib yotishardi.

— Keyin nima bo'ldi? — dedi mayor va stolda yotgan buyruqni yoniga tortdi. Qog'oz baland ovoz chiqarib shig'illadi. Mayorning qo'llari titardi.

— Keyinni? — so'radi sartarosh, — maylingiz — keyin leytenant sog'olini qirib qo'yishini buyurdi. U mast edi, bo'lmasa bunday ahmoqlikka bormasdi. Uchuvchi ketdi. Biz leytenant bilan uning isitilgan uyiga bordik. U oyna oldiga o'tirdi. Temir shamondagi shamni yoqdim-da, uning yuzini sovuqlay boshladim. Shamdonni oyna oldidagi o'rindiqqa qo'ydim. Siz bunaqa shamdonlarni ko'rgan bo'lishingiz kerak: sochlari yovilgan ayol qo'lida gul

ushlab turibdi, shu gul kosasiga sham qo'ndirilgan. Men mag'zavali cho'lkani leytenantning ko'zlariga bosdim. U qichqirdi, lekin men temir shamdonni olib, bor kuchim bilan nemisning chakkasiga urishga ulgurdim.

— Til tortmay o'ldimi? — so'radi mayor.

— Ha, til tortmay o'ldi. Keyin men sizlar tomonga o'tib olish uchun ikki kun yo'l bosdim.

Mayor ustaraga nigoh tashladi.

— Nega ustaraga qaraganingizni tushunib turibman, — dedi sartarosh. — Siz ustardan foydalansa bo'lmasmidi, demogchisiz. Shunday qilsam ma'qulroq edi. Ammo bilasizmi, ustarani ko'zim qiyimadi. Bu eski ingliz ustarasi. O'n yildan beri shu bilan ishlayman.

Mayor o'rmiidan turib, sartaroshga qo'l uzatdi.

— Bu kishining qormini to'yg'azinglar, — dedi u jangchilarga, — va quruq engil-bosh topib beringlar.

Sartarosh eshikka chiqdi. Jangchilar uni dala oshxonasi tomon olib ketishdi.

— Eh, og'ayni, — dedi jangchilarning biri va qo'limi sartaroshning yelkasiga qo'ydi, — ko'zyoshlari yurakni holsizlantiradi. Buning ustiga, mo'ljani ham ko'rib bo'lmaydi. Ularni bitta qo'ymay qirib tashlash uchun ko'zlarda nam bo'lmasiligi kerak. To'g'rimmi gapim?

Sartarosh bosh qimirlatib uning fikriga qo'shildi.

Qiruvchi kema to'plardan o't ochdi. Qo'rg'oshinrang suv to'q'inlandi, qoraydi, lekin shu onning o'zida osmon aksini — tumanli yashil rangiga qaytdi.

Ivan VAZOV  
(Bolgarriya)

So'nggi tipu

SABOQ

Yurakni siqadigan g'ijirlashi bilan qadimiy xaloskor podshoh yodgorligi atrofidagi xiyobonni aylanib o'tgan Knyazev tramvayi tag'in to'g'ri janubi-g'arbiy tomonga qarab g'irillab jo'nab ketdi.

Ufq etagida Vitoshning ulug'vor, g'oyat salobati qiyofasi va yashil tekisliklarning butun jozibali manzarasi ko'z oldimda qayta chiroy ochdi.

Necha martalab ko'rgan bo'lsam-da, yuragim uchun hamon o'shandoq yangi va qadri bu g'aroyib mo'jizadan har safar ko'z uzolmay qolaman.

Takrorlanmas bolgar tabiatini kuyga solayotgan tuyg'ularimning nafs ohangiga qo'pol nemischa g'o'ng'ir-g'o'ng'irlar favqulodda bostirib kirib, xayollarimni besar qildi. Shundagina men tramvay vagonining birinchi klasida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan o'rindiqlarda ketayotgan hamrohlarni payqadim. Yaqinroqda uch xonim: biri yoshi o'tinqirab qolgan ayol va zamonaviy yozgi kiyimlarda oriq, rangi-quti o'chgan qorasoch ikki yosh bolgar qizlari menga teskari o'tirishardi. Ularni hech qachon uchratmaganman, ammo xulq-atvori va egnidagi liboslarining g'oyatda nafsligiga ko'ra, poytaxtning saralangan jamiyatiga mansub ekanliklari sezilardi.

Hamrohlari singari did bilan kiyingan malla mo'ylovli, qizil yuzli, moviy ko'zli, yosh yigit, qizlarning qarshisida

joylashgandi. U nemis edi – erkin do'stona munosabatga qaraganda u xonimlarning yaqin tanishi yo qarindoshi. Konduktor bilan qisqa suhbatidan yigitning bolgar tilini yaxshi egallaganini sezdim. Ularning oyog'i ostida sho'x o'yinqaroq oq kuchukcha aylanib yurardi.

Qo'shni o'rindiqlarda o'tirgan bolgarlarga tushunaksiz va yot nemis tilida yigiti bilan chakagi orom olmay, tinimsiz chug'urlashib kelayotgan bu ikki xonim o'zlaricha madaniyatli xalqning tilida ajirayotganliklari bilan mag'rurlanish tuyg'usini tuyib, atrofdakilarga go'yo mensimay ko'z g'irlarini tashlab qo'yishardi, haytovur menga shunday tuyuldi. Ular bolgarchada nemis tilini tushunmaydigan qari xonimga nisbatan itga murojaat qilganday so'zlashishardi.

Bir qarashda, bunda hech qanday odamni taajjubga soladigan narsaning o'zi yo'q. Biroq o'z tilini nazariga olmaydigan shunday dimog'dor va takabbur yevropalashgan bolgar qizlarini tinglab, va ularni kuzata turib, qalbimda allaqanday yiqimsiz tuyg'ular uyg'ondi, negadir xonimlarning qiliqlari menga erish tuyuldi. Bu tannoz oyimchalar go'zal bo'lganlarida-ku mayli edi, balki, ularning o'zini tutishiga ahamiyat bermay, manmanligini kechirarmidim? Afsus, go'zallik ko'p gunohlarni yuvib ketardi! Magarda tasodifan ushbu satrlarga ko'zlari tushib qolsa va hali hamon bolgarchada o'qishni unutmagan bo'lsalar bu ochiq iqrorimni aybga buyurmay, ulardan kamini oliyanoblik qilib kechirishlarini so'rayman...

Yangi bog'lar va dala hovlilar boshlanadigan joyda tramvay bir daqiqaga dalaning o'rtasiga to'xtadi. Birdan bir bolgarlyalik yurib ketayotgan tramvayga sakrab chiqdi va nemisning yonginasiga cho'kdi. Bu oftoabda yuzi qoray-

gan, kambag'allarga xos tarzda juldur kiyingan mo'ysafid edi. Tuproqda iflos bo'lgan ust-boshiga qarab, unda dehqonning to'pori raftorini ko'rish mumkin edi.

Nemis salgina siqilib qoldi. Yosh bolgariyalik qizlar bunday yoqimsiz qo'shniçilikdan burunlarini jiyirib, yigitga nemis tilida:

– Biz bilan o'tiring! – deyishdi.

Agar yigit xonimlarning taklifiga ko'nib, undan qochganida bechora bolgariyalik qanday xijolat tortib qolishini o'zimcha tasavvur qildim. Biroq nemis tabassum bilan:

– Biz axir siz bilan go'yo demokratiya tarafdorlarimizku? – deya javob qildi va joyidan jilmadi.

Bu hazil ko'rinishida aytilgan kinoyadan jindak iz-zat-nafsi ozor chekkan xonim istamaygina jilmayib qo'ydi. Uning dugonasi esa jahl bilan yana nemischalab:

– Manavi qishloq, bu birinchi klass ekanligini bilmasligi shundog ko'rinish turibdi. Ikkinchi klassda ham bo'sh joylar ko'p-ku...

Bir vaqtlar otalari baqqollik do'koni rastasi orqasida turgan yo bo'lmasam omoch ortidan yurgan aslzodalarga xos tarzda tarbiyalangan bolgariyalik oyimchalalar bir xorijilik oldida, balki, chindan ham vijdonli bo'lgan va bolgar yerlariga bor mehr-u kuchini sarflagan, unga ruhan va galban begona mana shu havoyi, puch qo'g'irchoqlardan ko'ra, jamiyatga foydasi ko'proq tegayotgan o'z vatandoshiga bo'lgan nafratini oshkora bildirayotgani menga alam qilib ketdi. Yagona sabab – yo'likiraga pul to'lagani tufayli, ularning yoniga o'tirishga-da jur'at qilgan, soch-sogoliga ustara tegmagan mehnatkash bolgariyalikning qo'pol ko'rinishi xonimchalarning nozik didini haqorat qilayotgandi. Uning bu tarbiyasizligi uchun qora

ko'zlar nafrat to'la nigohlarning o'tkir nazarlarini sanchib, qanday qasos olayotganini ko'rdim.

Bolgariyalik esa xuddi hech narsani sezmayotganday sukut saqlab o'tirardi. Uning nemis tilini tushunmasligi kunday ravshan, bechora suhbat o'zi haqida borayotganligidan ham bexabar... Kim biladi, balki, fahmlayotganidir? Boshida xonimlarning sovuq so'zlaridan uning yuzi biroz asabiy titraganini sezdim. Balki, bu shunchaki tasodif bo'lgandir? Biroq keyin u butun yo'l bo'yi derazadan dalalarga ko'z tikib keldi.

Men esa uzoq vaqt ayol kishining nozik tabiatiga mos bo'lgan nazokat va mehribonlikni topolmaganim sabab, qalbimda paydo bo'lgan g'azab o'tini so'ndirolmadim va tag'in o'ylay boshladim: ular bunchalar xunuk! Balki, ana shu jihat ularni qahri bo'lishga undayotgandir? Axir, aksar holatda go'zal oraz ichki chiroy va oliyanoblikdan so'zlaydi! Aftidan jismoniy va ruhiy uyg'unlik haqidagi nazariya yana bir karra o'z isbotini topgandek.

Bir necha daqiqalik chekinishdan so'ng tag'in boshlangan quvnoq nemischa safsata Pavlovga dovur davom etdi. O'sha yerda tramvay to'xtadi. Bolgariyalik tushish uchun o'rindan qo'zg'alganida uni „qishloq“ deb atagan xonim bexosdan o'zining qizil soyabonini tushirib yubordi. Bolgariyalik uni yerdan olib, iltifot bilan xonimga tutqazarkan, dona-dona qilib, nemischasiga:

– Frauleine, bitte, nehmen Sie ihren Schirm! – dedi.

Yosh bolgariyalik qiz va dugonasi sochlarining ildizlarigacha loyullab duv qizarib ketishdi, u qaltirayotgan qo'llari bilan soyabonni olarkan, notanishga hatto minnatdorchilik bildirishni faromush qildi.

<sup>1</sup> Marhamat, xonim, soyaboningizni oling. (nem.)

Nemis yigit xonimlarni noqulay vaziyatdan qutqarish uchun suhbatni bog'lashga behuda urinardi, uyatdan qizarib ketgan xonimlar Kryajevoga yetguncha lom-mim deyslmadi.

Haligacha o'sha bolgariyalikni qayta uchratish va „madaniyati“ bolgariyalik qizlarga insoniylik sabog'ini bergani uchun chin yurakdan qo'lini qattiq siqib qo'yish menga nasib qilmadi...

*Rus tilidan*  
*Shahnoza RAHMONOVA tarjimasi*

*Vasilij SHUKSHIN*  
(Rossiya)

## QUYOSH, CHOL VA QIZ

Chol qimirlamaydi. Ofobdan qorayib, ellari tirishgan qo'llar tizza ustida bemajol. Yuzi ham bujmaygan, namlangan ko'zlari nursiz. Ingichka bo'yni ustidagi kichkina oppoq kalla qimirlamaydi. Ko'k chit ko'ylak ositidan yelka suyaklari bo'rtib turibdi.

Bu hol har kuni takrorlanadi. Shunday kunlardan birida chol orqa tomondan ovoz eshitib qoldi:

– Salom, buvajon!  
Chol bosh iring'adi.

Uning yoniga yassi chamadoncha ko'targan qiz o'tirdi.

– Dam olyapsizmi?

– Dam olyapman, – bosh iring'adi chol, qiz tomonga qayrilib ham qo'ymay.

– Men sizni chizsam maylimi? – so'radi qiz.

– Qanaqasiga?

– Rasmingizni chizsam? Chol quyoshga termilgancha bir muncha muddat jim qoldi, kipriksiz qizg'ish qovoqlari uchib qo'yardi. So'ng:

– Chizadigan joyim qolibdimi mening? – dedi.

– Nega endi? – Qiz biroz o'ng'aysizlandi. – Ko'rinishingiz bir chiroyli, buvajon.

– O'lay deb turgan bo'lsam.

Qiz cholg'a ancha tikilib tirdi. Keyin yumshoq baromqlari bilan cholning quruqshagan jigarrang qo'lini asta silab dedi:

– Yo'q, siz juda ham chiroylisiz, buvajon. Rosti Chol bema'jol jilmaydi.

– Unaga bo'lsa, chizsang chizaver. Qiz chamadonini ochdi.

Chol kaftini og'ziga qilib yo'talib oldi.

– Shaharlik bo'lsang kerak-a?

– Ha, shaharlikman.

– Bu ishingga haq to'lashga kerak?

– Yaxshi chiqsa, to'lashadi.

– Harakat qilish kerak.

– Harakat qilyapman.

Jim qolishdi.

Qiz choling yuziga tikila-tikila chizyapti.

– Buvajon, siz shu yerlikmisiz?

– Shu yerlik.

– Shu yerda tug'ilganimisiz?

– Shu yerda, shu yerda.

– Necha yoshga boringiz?

– Saksonga.

– Oh-ho!

– Ha, yetishib qoldim, – yana behol iljaydi chol. – Sen nechaga kiring?

– Yigirma beshga.

Yana jim qolishdi.

– Quyosh qanday-a?! – sekin xitob qildi chol.

– Qanday? – tushumadi qiz.

– Kattako-on.

– Ha-a, bu yerda manzara juda chiroyli ekan.

– Suvga qara, qaragin. Narigi qirg'oqqa qara.

– Ha, ha.

– Xuddi jon qo'shilganday.

Darhaqiqat, shunday. Qiz narigi qirg'oqqa nazar tashladi.

– Ajoyib!

Quyosh Oltoy cho'qqilarini yoritib, asta-sekin uzoq ko'kimir olanga botib borardi. U cho'kkan sari, tog' qoyalari yaqqolroq ko'rinadi. Ular go'yoki oldinga surilib kelayotgandek edi. Daryo bilan tog' oralig'idagi vodiyning qora-qizg'ish tusi so'nib bormoqda. Tog' tomondan yumshoq soya tushib kelmogda. Quyosh Boburxon tizmasining ortiga yashiringan zahotiyog, o'sha tomondan ko'kimir osmonga yorqin alanga nurlari taraldi. Ko'p davom etmadi – alanga ham so'ndi. Xuddi shu onda o'sha tomonlarda tong nurlari charaqlagan.

– Quyosh ketdi, – xo'rsindi chol.

Qiz qog'ozlarini chamadonchasiga joyladi.

Birmuncha vaqt jim o'tirgancha mayda to'liqlarning qirg'oq bo'ylab taralayotgan shildirashini tinglashdi.

Vodiy uzta parcha-parcha tuman suza boshladi.

Yaqindagi o'rmon tomonda qandaydir qushning ovozi eshitildi. Unga javoban daryoning narigi tomonidan ham qushlar ovozi keldi.

– Yaxshi, – deb qo'ydi chol bosiq ovoz bilan.

Shu damda qiz, tez kunlarda qadrdon shahriga qaytib ketishini va o'zi bilan bir talay rasmlarni olib borishini o'yladi. Shu jumladan, mana shu buvaning rasmini ham. Uni kutib olajak do'sti, iqtidorli, haqiqiy rassom yana ko'yidi: „Yana shu bujmaygan basharalar. Kinga kerak? Siyirliklar, sovuq iqlim va og'ir mehnatdan hammasi shu naqaligini barcha biladi-ku!“

Qiz o'zining iqtidor bobida maqtanadigan joyi yo'qligini yaxshi biladi. Lekin u ro'parasida munkayib o'tirgan choling mashqatli o'timishini ko'z oldiga keltira olgandi. Uning qo'llari shundan darak emasmi?.. Ajinlar ham!

Islash kerak! Islash, ishlash!

– Bu yerga etraga ham kelasizmi, buva? – so'radi qiz.

– Kelaman.

Qiz o'rtidan qo'zg'alib, qishloq tomon yo'l oldi.

Chol esa yana biroz sohilda o'tirdi. So'ng u ham ketdi.

Uyga kelib, odatdagidek o'zi o'rganib qolgan burchakka, pech yoniga o'tirdi va jimgina kuta boshladi – qachon o'g'li ishdan qaytib kelishini va kechki ovqatga o'tirishlarini.

O'g'il doimo charchab kelar va g'am-shikoyatdan boshqa gapi yo'q edi. Kelin ham o'shqirib, taqir-tuqur qilgani qilgan. Nabiralar voyaga yetib, shaharga ketib qolishgan. Ularsiz uy – g'urbatxona.

Kechki ovqat. Sutga bo'lka to'g'rab, cholning oldiga qo'yishadi. Stol chetida o'tirgancha, qoshiqni taraqlatmaslik uchun ehtiyokkorlik bilan ovqat icha boshlaydi chol. Hamma jim. So'ng uyquga yotishadi. Gaplashgani gap yo'q. Hamma gap allagachon gapirib bo'lingan.

Chol pech ustiga chiqadi. O'g'il bilan kelin esa ichkari xonaga kirib ketishadi.

\*\*\*

Ertasi kuni kechki payt chol bilan qiz yana to'nka yonida o'tirishardi. Qiz qiziqish bilan chizar, chol esa quyoshga tikligancha hikoya qilardi.

– Yaxshi yashardik, noshukrlik qilmayman. Men duradgorlik qilardim, ish doimo yetarli. O'g'illarim ham duradgorlik qilishardi. To'rttasini urush yedi. Ikkitasi qoldi. Hozir bittasi bilan turaman. Stepan bilan. Vanya esa shaharda, Biyskda yashaydi, yangi qurilishda proirab. Yozishicha, tuzuk yashayotgan emish. Mehmonga kelib ketishdi. Nabiralar bir talay. Hammasi meni yaxshi ko'rishadi. Lekin barchasi u shahar-bu shaharda.

Qiz cholning qo'llarini chizmoqda, shoshilib-shoshilib. Asabiylashadi, o'chirib, qayta-qayta chizadi.

– Qiynchilikda yashagan bo'lsanglar kerak? – o'ylanib so'radi u.

– Nima? Qiynchilik? – chol hayron bo'ladi. – Ayt-dim-ku senga, yaxshi yashaganniz deb.

– O'g'illaringizni yo'qotganingizga achinasizmi?

– Achinish gap ekanni? – Yana hayron bo'ladi chol. – To'rtta azamatni berib qo'yish – hazilmas-ku!

Shuncha yo'qotishga qaramay, chol o'zini xotirjam tutishiga qiz ham hayron.

Quyosh yana tog'lar ortiga cho'kmoqda. Yana jimgina alanga ufqda taralmogda.

– Yomg'ir yog'adi ertaga, – deb qo'ydi chol.

Qiz yorug' osmonga boqib:

– Qayerdan bidingiz?

– Hamma a'zolarim zirqirab og'riyapti.

– Ko'kda bulut yo'q-ku?

Chol indamadi.

– Ertaga ham kelasizmi, buva?

– Bilmadim, – o'ylanibrog javob gildi chol. – Hamma

yerimda og'riq.

– Buva, mana bu toshning nomi nima? – Qiz kamzullining cho'ntagidan tillasimon oq tosh chiqardi.

– Qanaga tosh? – so'radi chol, hamon tog' tomon tikilgancha.

Qiz unga toshni uzatdi. Chol qayrilib ham qaramay qo'l cho'zdi.

– Buni? – chol qarab-qaramasdanog ko'rib, qaqshagan barmoqlarida toshni aylantirarkan, – Chagmoqtosh. Urush yillari gugurt yo'q edi, nuqul shunda olov chiqarardik.

Qizning miyasiga yalt etib, ko'rmaydi shekilli, degan gumon keldi. U nima deyishini bilmay cholga yon tomondan boqib turib qoldi. Chol esa hamon quyosh botgan tomon termilardi. O'ychanlik bilan tikilardi.

– Ma, toshingni olib qo'y, – qizga qaytardi chol. – Bundan ham chiroyliari uchraydi. Ba'zan oppoqlari, tiniq ranglilari uchraydi, shunday tiniq, ichidagi dog'lari ham ko'rinish turadi. Yana, tuxumsimonlari ham bo'ladi, hakaning tuxumiga o'xshash, yonlari xol-xol. Maynanikiga o'xshaganlari ham uchrab qoladi, ko'm-ko'k, ular ham sepkilli. Qiz hamon cholg'a tikilganча turardi. So'ragani jur'at qilolmadi: ko'zlari ojizmi yo...

– Buvaion, qayerda yashaysiz?

– Uncha uzoqmas. Manavi Ivan Kolokolnikovniki, – darvo qirg'og'idagi uyini ko'rsatdi chol. – Orqasida Volokitinlarniki, keyin Zinovbevlarniki, ana undan keyin, muvulishdan keyin bizniki. Biror zarurat bo'lsa – kiraver, bernalol. Nabiralar oldimizdaligida qanday gavjum edi-ya.

– Rahmat.

– Men ketdim endi, hamma yog'im zirqirab ketyapti.

Chol o'rmidan turib, so'qmoq bo'ylab ketdi.

Qiz uning ortidan, tor ko'chaga burilib ketmaguncha qarab turdi. Chol biror marta ham qoqilmay, bir tekis borardi. U shoshilmay, oyog' ostiga qarab qadam bosardi.

Yo'q, ojiz emas, – tushundi qiz. – Sal-pal xiralashgan bo'lsa kerak ko'zi.

Ertasi kuni chol sohilda ko'rinnadi. Qiz yolg'iz, chol haqida o'ylandi: Uning hayoti oddiy, ayni paytda sodda kechmagan. Bir ajib narsa bo'lsa kerak, qandaydir idrok etib bo'lmaydigan. Quyosh ham oddiy ko'rinnadi, ertalab chiqadi, oqshom botadi. Ammo bu oddiylik ortida qandaydir joziba bor edi. U chizmalarini ko'zdan kechira boshladi. Yuragida g'ashlik sezdi.

Chol keyingi, ikkinchi, uchinchi kunlar ham ko'rinnadi. Qiz uning uyini qidirib bordi. Topdi. Kattagina uyning hovlisida, bostirma salqinida ellik yoshlar chamasidagi bir erkak taxta randalardi.

– Salom, – so'rashdi qiz. Odam qaddini tiklab, qizga tikilib, boshmaldog'i bilan peshona terini artarkan, bosh iring'adi:

– Salomat bo'li.

– Haligi... Bir buva bor edi, shu yerda turadi shekilli.

Erkak qizga g'alati qilib razm solgach:

– Ha, shu yerda yashardi, – deb ishini davom ettirdi. Birozdan so'ng qo'shimcha qildi: – Mana, unga uy yasayapman.

– Nima, vafot qildimi?

– O'ldi. – Odam randasini bir-ikki yurgizib, yana tiklandi. – Biror ishing bormidi?

– Men... Men uning rasmini chizgandim.

– Ha-a, shunagami, – ishini davom ettirdi erkak.

Ancha sukutdan so'ng qiz so'radi.

– U ko'rmiydi?

– Ko'r edi.

– Ancha bo'lganmidi?

– O'n yilcha. Nimaydi?

– Shunday o'zim.

Qiz tashqariga yurdi. Ko'chaga chiqib, beixtiyor chetan devorga suyanib yig'lab yubordi.

Rus tilidan

O'kir HOSHIMOV tarjimai

*Jeys JOYS*  
(Irlandiya)

EVELINA

U deraza yonida oqshom shaharni o'z qo'yiniga olishini kuzatar, pardaga suyangan ko'yi o'tirar, dimog'iga chang bosgan kretomning isi urardi. U nihoyatda toliqdi.

Ko'chada o'tkinchilar kam. Mana, oxirgi uyda yashovchi odam ham uyiga qaytapti; beton yo'lkada qadamining taqillagan tovushi, so'ng, yangi tushgan qizil uylar bo'ylab yotqizilgan toshloq yo'lda nimadir g'ichirlagan qulog'iga chalindi.

Bir paytlar bu yerda dala bo'lardi, har kech bolalar shu dalada o'ynashar edi. Keyin esa bir beltastik odam dalani sotib olib, unda qator uylar ko'tardi; ularnikidek pastak qora-qura uylar emas, tomlari yargiragan qip-qizil g'ishtin uylar. Mahalla-ko'y bolalari – Divaynlar, Uoterslar, Dannlar, mitti Keou cho'loq, o'zi, aka-singillari – barchasi shu dalada o'ynar edilar. Ha, Ernest o'ynamas edi, katta bo'lib qolgandi u. Otasi doim kaltagi bilan uni oldiga solib daladan olib ketardi, ammo mitti Keou doim ko'z-quloq bo'lib turar, otasining qorasi ko'ringan zahoti qichqirib ovoz berardi. Shunday bo'lsa ham, u mahallar juda baxtli yashashardi. Otasi ham u paytlar bunchalar yomon emasdi, undan keyin onasi ham hayot edi. Shundan beri qancha suvlar oqib o'tdi, aka-singillari ulg'aydi, onasi olandan o'tib ketdi. Tizzi Dann ham vafot etdi, Uoterslar Angliyaga qaytib ketishdi... Hamma narsa o'zgarar ekan. Endi u ham boshqalarga o'xshab uyini tashlab ketapti.

Uy! U necha yillardan beri, buncha chang qayerdan kelar ekan-a, deya o'ylab, haftada bir artib-surtadigan sinashta buyumlar osha xonaga ko'z yugurtirdi. Ehtimol, qechondir ayro tushishi mumkinligini hech o'ylamagan bu tanish buyumlarni qaytib ko'rmas. Shuncha yillar o'tganiga qaramay, buzug' fsgarmoniya<sup>1</sup> tepasiga – devorga muqaddas Margarita-Mariya Alakok<sup>2</sup>ka atalgan rangli gravyurasi yonida ilingan sarg'aygan suratdagi ruhoniyning ismini bila olmadi ham. U otasining maktabdosh o'rtog'i edi. Otasi suratni mehmonlarga ko'rsatayotib, „U hozir Melburn-da“, deb qo'yar edi.

U ketishga, uyini tark etib ketishga rozi bo'ldi. Bu noldammikan? Masalaning har ikki tomonini taroziga solib ko'rishga urinardi. Bu yerda har qalay boshpanasi, osh-nomi bor, atrofida bir umrlik sinashta odamlar. To'g'ri, uyda ham, ishda ham qattiq ishlashga majbur. Savdo do'konidagilar uning bir yigit bilan qochib ketganidan xabar topganlarida nima deyisharkin? Balki, esini yeb qo'yibdi deyishar. Reklama berib, o'rniiga odam topishadi. Miss Geyvenning boshi ko'kka yetadi. Doim unga tirg'alib yurardi, ayniqsa, o'zgarlar huzurida.

– Miss Xill, ko'rmayapsizmi, xonimlar kutib qolishdi.

– Miss Xill, chehrangizni oching, baraka topgur.

U do'kondan ketayotganiga ko'zyosh to'kmaydi.

Ammo o'lis yot o'lkadagi yangi uyida bu yerdagiday bo'lmaydi. Unda u, ya'ni Evelina erli ayolga aylanadi. Atrofdagilar unga hurmat ko'zi bilan qaraydi. Unga onasiga bo'lgan munosabatda bo'lmaydilar. Hatto hozir ham, garchi o'n to'qqizdan oshgan bo'lsa-da, ba'zan otasining

<sup>1</sup> Fsgarmoniya – dam berib chalinadigan klavishli musiqqa asbobi.

<sup>2</sup> Margarita-Mariya Alakok (1647–1690) – rohiba, katolik chekovining muashhur ibodati ta'sischi.

zug'umidan dahshatga tushadi. Buni yuragi o'ynay boshlaganidan biladi. Ulg'aya boshlagach, qiz bola bo'lgani uchun otasi u tomon Xarri yoki Ernestga tashlangandek bostirib bormaydigan bo'ldi, ammo yaqindan beri marhum onangning yodi hurmati senga tegmayapman, deya do'q urishga o'tib olgandi. Uni himoya qiladigan esa endi yo'q. Ernest vafot etdi, chekovlarni bezash ishlari bilan shug'ullanadigan Xarri hamisha qayerlardadir yuradi. Ustiga ustak har shanba oqshom pulning ustidan bo'ladigan jallardan ta'rifiab bo'lmaz darajada toqati toq bo'lgandi. U butun maoshi – yetti shillingning barini otasiga tutqazar, Xarri ham topganini jo'natardi, ammo muammo – otasidan bir chaga ham o'lmastligida edi. Otasi uning pulni isrof qilayotganini aytar, miyasi yo'q der, ne mashaqqatlar bilan topgan pulini yelga sovurishiga qo'yib qo'ymastligi va yana xiyala sabablarni javrab, shanba oqshomlari quyushqondan chiqib ketardi. Axiri qiziga pul tutqazardi-yu, tutqazayotib yakshanba tushligi uchun u-bu nima sotib olish niyati bormi-yo'qligi haqida so'rar edi. So'ng, Evelina oyog'ini qo'lga olib xaridga yugurishi, qora charam hamyonini mahkam tutib, olomon orasidan turtinib-surtinib o'tishi va nihoyat qosh qorayganda oziq-ovqat to'la yuk bilan uyga qaytishiga to'g'ri kelardi. Uning bo'ynida ro'zg'or yuritish, qaramog'idagi ikki go'dakni nazorat qilishdek mashaqqatli vazifalar ham bor. Og'ir edi, hayoti og'ir kechardi, ammo endi jo'nab ketish arafasida turganida esa, hayoti ko'ziga u qadar ham yomon ko'rinnayotgandi.

U Frenk bilan boshqacha bir hayotni kashf etish ostonasida. Frenk yaxshi yigit, dovyurak, so'dil. Uning rafiqasi bo'lish uchun, Evelinaning qadamiga intizor bo'lgan Buenos-Ayresdagi uyida oshig'i bilan umr kechirishi uchun bugun tungi kemaga o'tirib jo'nab ketishi zarur. Yigini ilk bor uchratgan kunini qanchalar yaxshi eslaydi – u qiz

doim borib turadigan katta ko'chadagi uyga kelib joylashgan edi. Bunga bor-yo'g'i bir nechta hafta bo'lgandek go'yo. Darvoza yonida turar, shapkasi orqaroq surilgan, bir tutam sochi bug'doyrang yuziga tushib turardi. So'ng tinib oldilar. Yigit qizni har oqshom do'kon oldida kutadigan, uyiga kuzatib qo'yadigan bo'ldi. Birda „Lo'li qiz“ga olib tushdi. Teatrning o'zi odatlanmagan qismida yigiting yonida o'tirar ekan, dili g'ururga to'ldi. Frenk musiqaning ashaddiy shaydosi edi, o'zi ham oz-moz xirgoyi qilib turardi. Hamma ularning uchrashib turishlarini bilardi. Yigit bir dengizchini sevuvchi go'zal qiz haqida kuylaganida, ko'ngliga xush yoqib, yonoqlari qizarar edi. Frenk uni hazillashib, Kulcha non deb atardi. Boshda, hayotida oshiq yigiting paydo bo'lgani ko'ngliga xush kelgan bo'lsa, so'ng uni o'zi ham yoqtira boshladi. Yigit unga olis o'lkalar haqida so'zlab berardi. Xizmatni Kanadaga yo'l olgan Allen Lavn kemasida oyiga bir funt evaziga shogird sifatida boshlaganini aytib, o'zi bo'lgan bir-biriga o'xshamagan kema nomlari-yu turli-tuman vazifalarni tilga olardi. U bir paytlar Magellan bo'g'ozini suzib o'tgan edi, Evelinaga u yerdagi qo'rqinchli patagonlar haqida ham so'zlab berdi. Endilikda, o'zining aytishicha, Buenos-Ayres tuproqlarida qo'nim topgan, vatanga esa shunchaki ta'tili orasida kelgan ekan. Shubhasiz, qizning otasi bu ishlardan xabar topib, unga yigit haqida hatto xayol qilishni ham taqiqlab qo'ydi.

– Men bunday dengizchi yigitlarni yaxshi bilaman, – dedi u.

Bir kuni otasi Frenk bilan janjallashib ham oldi, shundan keyin u yigit bilan yashirincha uchrashadigan bo'ldi.

<sup>1</sup>Lo'li qiz – Irland kompozitori va opera kuychisi – Maykl Uilyam Balftning (1808–1870) M. Servantes qalamiga mansub shu nomdagi hikoyasiga ishlagan operasi.

Tashqarida qorong'ilik quyuvqlashdi. Tizzasida oqarib turgan bir juft maktab ham xira tortdi. Ulardan biri Xar-riga, boshqasi otasiga atalgan edi. Uning Ernestga mehri bo'lakcha, ammo Xarini ham sevardi. Shu kunlarda otasi ko'ziga keksayib qolgandek ko'rinar. Qizini sog'inib qoladi. Ba'zan otasidan yaxshi odam yo'q. Qaysi kuni Evelina bir kun to'shakda yotib qolganida, otasi arvohlar haqida kitob o'qib bergandi, olovda non qizitib ham bergandi. Yana bir kuni, onasi hayotligida, hammasi yig'ilib, Xaut-Xill'ga – tabiat qo'yniga sayrga chiqishgandi. Yodida, o'shanda otasi onasining shlapasini kiyib, bolalarini rosa kuldirtgandi.

Vaqt tugab borardi, ammo u hanuz boshini pardaga suyab, chang bosgan kreton isini yutganicha, deraza yonidan jilmay o'tirar edi. Huv, olisda – ko'chani e'tagidan sharmanka tovushi qulog'iga chalindi. Bu tanish kuy, aynan shu kechada, onasiga bergan va'dasini, iloji boricha uzog'roq uyd qolishga bergan so'zini yodga solgandek taralardi go'yo.

U onasining eng so'ngi oqshomini xotirladi.

Evelina dahlizning narigi tomonidagi tor qorong'i xonada o'tirar, tashqarida ma'yus italiyancha kuy taralardi. Sharmankachiga olti pens berishib, nari ketishni buyurgandilar. Otasi mag'rur qiyofada bemor yotgan xonaga qaytib kirib:

– La'nati italiyaliklar! Shu yergacha kelibdi, – degani hali-hamon yodida.

U onasining ayanchli qiyofasini, qurbonliklarga to'la, alal-oqibat aqldan ozdiruvchi tussiz hayotni o'ylab, xayolga cho'mdi. Onasining telbalarcha mutasil Derevaun

Seraun! Derevaun Seraun!<sup>1</sup> deya takrorlagan ovozi qulog'i ostida jaranglab, vujudini titroq bosdi.

U qo'qis paydo bo'lgan dahshat shiddatidan otilib o'midan turdi. Qochish kerak! U qochishi shart! Frenk uni qutquradi. Frenk unga hayot baxsh etadi, ehtimol, muhabbat ham berar. Ammo u yashamoqni istaydi. Nega endi baxtsiz bo'lishi kerak ekan? Uning ham baxtli bo'lishga haqqi bor. Frenk uni quchoq'iga olib, bag'riga bosadi. Xalos qiliadi uni.

U Nort-Ullidagi pristanda, tinimsiz tebrangan olovmon orasida turardi. Frenk uning qo'lidan tutib olgan, u esa yigining o'tish haqida hadeb nimalaridir ta'kidlab yotgani o'ziga qaratilganini bilib turardi. Pristan jigarrang kalta ortmoqlab olgan askarlarga to'la edi. U shiyponing keng eshiklari ortida, qirg'oq devori yonida turgan illyuminatorlari charog'on kemanding qoramtir haybatiga ko'z tushladi. U javob bermadi. Rang qoqarib, junjikkani ni sezib, chorasizlik bosimidan to'g'ri yo'l ko'rsatishini so'rab, Xudoga yolvordi. Kema tuman ichra cho'ziq va huzin gudok berdi. Agar ketadigan bo'lsa, ertaga dengizda, Frenkning yonida Buenos-Ayresga suzib borayotgan bo'ladi. Chiptalar sotib olingan. Frenk qiz uchun shuncha ish qilganidan keyin ortga chekinishi insofdanmikan? Chorasizlikdan ko'ngli behuzur bo'ldi, lablari esa tinimsiz duo o'qib, sassiz pichirlardi.

Qo'ng'iroq sadosi naq yuragida jarang sochdi. Frenk uning qo'lidan tutganini sezdi.

– Keldik!

Bütün olam dengizi yig'ilib, yuragida tug'yon urardi. Frenk uni shular tomon tortib boryapti.

– Frenk, axir g'arq qilib yuboradi. – U temir panjaraga qo'shmoq'lab yopishib oldi.

<sup>1</sup> Dublin ko'rfazi bo'yidagi pastak tog'lar.

<sup>1</sup> Rohat oxiri – azob! Rohat oxiri – azob! (tr.)

— Ketdiki!

Yo'q! Yo'q! Bu imkonsiz. U telbalarcha panjara-ni mahkam tutib olgandi. Dengiz uzra uning alamlari nolas-i taraldi.

— Evelinal Evil!

Frenk to'siqning narigi tomoniga o'tilib, unga ergashi-shini aytdi. Kimdir Frenkning ortidan siljishini so'rab g'ichqirdi, ammo u hanuz qizni chaqirardi. U bo'zdek oqar-gan yuzini nochor jonivor kabi Frenk tomon burdi. Yigitga yo'nalgan nigohlarida na muhabbat, na vido va na e'tirof-dan asar bor edi.

*Ingliz tilidan*

*Munira NOROVA tarjimasi*

*Fridrix DYURRENMATT*  
(*Shveysariya*)

**SAK**

Shaharga kelgan dastlabki kunlarim edi. Ratusha ol-didagi kichik maydondan o'tib borayotgandim, to'planib turgan odamlarga ko'zim tushdi. Ular eski, juldur kiyim kiygan, qattiq ovoz bilan Tavrotidan nimalarnidir o'qib berayotgan bir kimsani o'rab olishgandi. Uning oyoqlari ostida bir it cho'zilib yotardi. Shunday ulkan va dahshatli hayvoni nega avvalroq payqamaganimga o'zim ham hay-ron bo'ldim, chunki uning rangi im qora bo'lib, ter bosgan junlari mayin edi. Ko'zlari olingugurt kabi sap-sariq, ul-kan og'zini ochgan paytda ko'rinib ketgan qo'rqinchli tish-lari ham xuddi shu tusda, gavdasi esa shunday ediki, uni hech qaysi bir jonzor bilan qiyoslay olmasdim. Bahaybat jonivorga uzoq qarab turolmadim, nigohim beixtiyor va'z o'qiyotgan kishiga qadaldi, u to'ladan kelgan, miqti gav-dasi uzra yiritiq kiyim parchalari osilib turar, yoriqlar orasi-dan yillirab ko'rinib turgan badani toza, juldur libosi ham pok-pokiza edi. Va'zgo'y qo'lidagi mugovasi oltin hamda olmos bilan zartallangan Tavrot noyob va qimmatbaho kitobdek tuyular, ovozi esa vazmin, sokin, qat'iy va dadil jaranglardi. Uning so'zlarida favqulodda bir tinqlik mu-jassam, nutqi sodda, biroq shunday ishonchli va ta'sirchan ediki, uni hech bir mugovasa bilan ifodalab bo'lmardi. U Tavrot oyatlarini vazminlik bilan, nomtassiblaricha taf-sirlab berar, bordi-yu kalomi kindadir ishonch uyg'ot-mayotgan bo'lsa, bunga sabab uning oyoqlari ostida qimir

etmay, tinglovchilarni sariq ko'zlari bilan kuzatib yotgan itning vajohati edi. Shunday qilib, voiz bilan jonivor o'rta-sidagi g'alati, g'aroyib bog'lanish meni butkul o'ziga jalb etdi va kamina uni har doim shahardan qidirib topadigan bo'ldim. U har kuni shahar maydonlarida va ko'chalarda va'z o'qir, biroq uni topish, garchi u bu ish bilan kech turga qadar mashg'ul bo'lsa-da, oson bo'lmadi, chunki shahar oddiy va qulay qurilgan bo'lishiga qaramasdan, unda adashib qolish ham hech gap emasdi. Aftidan, u yudan turli xil vaqtda chiqar va mashg'ulotini hech qanday rejasiz olib borar, chunki uning chiqishlarida qoida-poida degan narsaning o'zi yo'q edi. Ba'zan bir maydonning o'zida butun kun bo'yi ma'ruza qilsa, gohida esa har chorak soatda joyini o'zgartirib turguvchi edi. Ko'chalarda bo'ylab yurarkan, unga har doim iti hamrohlik qilar, u va'z boshladi deguncha ulkan va qop-qora bu jonivor yerga og'ir cho'kib yotvolardi. Odatda, uning tinglovchilari uncha ko'p bo'lmadi, ko'pincha u o'zi yolg'iz qolar, biroq o'zim kuzatganimdek, bunga parvo qilmas, aksincha, maydonni tark etmasdan, so'zida davom etardi. Ko'pincha uning kichkinagina ko'cha o'rtasida turgan ko'yi qattiq ovoz bilan ibodat qilayotganiga, sal narida, kengroq ko'cha bo'ylab esa odamlar unga e'tibor ham bermay o'tib borishayotganiga ko'zim tushardi. Uni qidirib topishning biron ishonchliroq yo'lini topolmasdan, buni men hamisha tasodifga yo'yardim, nihoyat, uning yashash manzili bilvolishga urinib ko'rdim, biroq bu haqda menga hech kim ma'lumot berolmadi. Shu bois bir kuni uning ortidan izma-iz yurdim, shu tarzda yana bir necha kun ovora bo'lishimga to'g'ri keldi, chunki kech tushdi deguncha har gal uni ko'zdan yo'qotib qo'yaverardim, negaki o'zinni sezdirib qo'ymaslik uchun undan yashirib yurishga majbur edim. Nihoyat, kunlardan bir kun kech oqshom payti uning bir

uyga kirib ketayotganini ko'rib qoldim. Bu joy, bilishimcha, shaharning boy-badavlat xonadonlar joylashgan qismi edi, bundan o'zimcha taajjubga ham tushdim. Shundan e'tiboran, unga bo'lgan munosabatim o'zgardi, endi undan ortiq yashirilmaydigan bo'ldim. Menga ko'zi tushsin, deb muy shundoq yonginasida paydo bo'ldim, ammo u bunga e'tibor bermas, faqat yaqin borganimda it har gal menga qarab irillab qo'yardi. Shu yo'sinda oradan haftalar o'tdi. Bir kuni, o'shanda yoz oxirlab qolgan paytlar edi, voiz Yohannes injili tafsirini tugatgandan so'ng, menga yaqin kelib, uyiga o'qib qo'yishini so'radi; biroq bir qancha ko'chalardan o'tib, to uyiga yetgunimizcha ham u menga bir og'iz gapirmadi. Biz kirib borgan uy qorong'i, katta xonani chiroq yoritib turardi. Xona ko'cha sahidan pastroq joylashgan, shuning uchunmi, bir necha zina quyí tushib bordik, hatto devorlari ham ko'rinnas, ular kitoblar bilan to'sib tashlangandi. Chiroq turgan qoragarag'ay yog'ochidan yasalgan kattagina, oddiy stol atrofida bir qiz kitob o'qib o'tirardi. Egnida to'q-havorang ko'ylak. U qizcha biz kengunda burilib ham qaramadi. Yerto'laning pardalar bilan to'silgan ikki darchasidan biri ostida matras, ro'paradagi devor tagida karavot va stol atrofida ikkita stol bor edi. Eshik yonida esa pechka. Qizga yaqinlashgandik, boshini ko'tarib qaradi, shunda uning yuzini ko'rdim. Qiz menga qo'l uzatdi va stulga ishora qildi, shundagina hamrohlim to'shakka cho'zilganini payqadim; uning oyoqlari ostida it ham muk tushib yotardi.

— Bu mening otam, — dedi qiz menga, — u endi uxlayapti, gaplashsak ham eshitmaydi. Anavi yotgan katta qora it esa nomsiz. Otam va'zgo'ylikni boshlagan kezlar edi, bir kuni oqshom, eshikni tamalamagan edik, shu bois oyoq panjalari bilan tutqichni surib, uyimizga o'zi kirib kelgan.

Men qiz oldida hayron bo'lib turib qoldim va sekingina otasining kimligini so'radim.

— U boy odam bo'lgan, ko'plab fabrikalari bor edi, dedi qiz va boshini quyi soldi. — Odamlarga haqiqatni aytilish uchun onam bilan akalarimni tashlab keldi.

— Otang aytayotgan narsaning haqiqat ekanligiga o'zing ishonasammi? — so'radim men qizdan.

— Ha, men buning haqiqat ekanligini bilaman, — dedi qiz. — Shuning uchun ham u bilan birga yuritib, mana shu yerto'lada yashab kelmogdaman. Biroq men haqiqat so'zlar aytila boshlagach, itning ham kirib kelishini aslo kutmagandim.

Qiz jim bo'lib qoldi, so'ng bir nimani ayitishga jur'at qilolmayotgandek, uztxohlik bilan menga qaradi.

— Itni haydab yuborsang bo'lmaydimi?

— Yo'q, bo'lmaydi, chunki u nomsiz, — dedi qiz boshini sarak-sarak qilib.

Mening nima deyshini bilmay, hardamxayol turib qolganimni ko'rib, qiz stol atrofidagi stullardan biriga cho'kdi, men ham o'tirdim.

— Nima, itdan qo'rqasammi? — so'radim men.

— Men undan har doim qo'rqaman, — javob qildi qiz. — Bundan bir yil oldin onam va akalarim advokat bilan ke-  
lib, otamni olib ketishmoqchi bo'lishganda, ular ham mana shu nomsiz itimizdan qo'rqishgan, chunki u otam oldiga yotvorib, irillab bergan. Karavotda yotgan paytimda ham undan qo'rqib turaman. Endi esa yo'q, chunki mana sen kelding va men endi jonivor ustidan faqat kulishim mumkin. Men bilardim, axiyr bir kun kelishingni. Albatta, tashqi qiyofang qandayligini bilmasdim, lekin kunlardan bir kun, ko'chalarga sokin ogshom cho'kib, chiroqlar yongach, uyimizga otam bilan birga kirib kelishingni bilardim. Mana endi, shu yarim yerto'la xonamizda, ko'plab kitob-

lar yonida turgan karavotimda yonna-yon yotib, er-xotin bo'lib, birga to'y ogshomini o'tkazsak ham ajabmas. Natijasi tarafdin, hov anov to'shakda, qorong'ilik qat'ida otam bola misol uxlab yotadi, ulkan qora it esa bizning oddiy muhabbatimizni qo'riqlab chiqadi.

O'shal muhabbatli visol ogshomini unutilib bo'larimidi! Xonaning allaqayerida derazalar torgina to'g'ri burchak shaklida qorayib ko'rinar, bir yostiqqa qo'ygan boshlarimiz uztra oy o'z nurlarini sochib turardi. Bizlar yonna-yon yotardik, ko'cha shovqini quvonchimizning xomush, parihon sadosi-la qorishib ketgan, dam-badam tentirab yurgan mast-alastlarning bo'g'i ovovlari, fohishalarning mayda qadam tashlab, pildirab yurishlari, saf-saf bo'lib, birday odimlab borayotgan askarlarning qadam tovushlari eshitilar, gohida esa arava g'ildiraklarining tarq-turg'i, ot tuyuqlarining jarangdor ovozlari bilan almashinib turardi. Biz qorong'i, biroq iliq haroratga cho'mgan yerto'lada yotarkamimiz, hech narsadan qo'rqmasdik. Xonaning bir burchida, qariya o'likdek tosh qotib uxlayotgan joyda, it bir juft oynadek yaltiragan, oltinugurtisimon sarg'imtir ko'zlari bilan bizlarni kuzatib, muhabbatimizni poylab yotardi.

Yondiradigan issiq kuz boshlandi. Hamma yoq sarig va qizg'ish rangga bo'yangan. Bu yil kechikibroq kelgan qish ham iliq, oldingi yillardagi qattiq sovuqlardan asar ham yo'q edi. Biroq shunday bo'lsa ham, qizni kulbasidan tashqariga olib chiqish qo'limdan kelmadi; men uni do'stlarim bilan tanishtirmoqni istardim, uni teatrlarga olib tushmoqchidim yoki bo'lmasan tepaliklar uztra cho'zilib kelgan, shaharni to'ldirsinmon tarzda gir aylana o'rab olgan g'ira-shira, nimqorong'i o'rmonlar bo'ylab u bilan birga sayr qilmoqchi edim: u esa doim uyda, qoragarag'ay yog'ochidan ishlangan o'sha eski stol atrofiga uzzukun

o'tirgani-o'tirgan edi. O'rasi kattakon it bilan kirib kelgandan so'ngina, u meni derazalar osha tushib turgan sarg'ish nurlar og'ushida o'z bag'riga chorlardi.

Ko'klam yaqinlashib qolgan bo'lishiga qaramasdan, shaharda qor ko'p edi, ayniqsa, ofob nurlari tushmaydigan soya joylarda kir va namchil qor hamon uyulib yotardi. Shunday kunlarning birida, qiz kutilmaganda bir o'zi xonamga kirib keldi. Derazadan quyosh nurlari qiyva tushib turardi. Kech kirib qolayozgan, pechkaga o'tin tashlab qo'ygandim. Qizning rangi oqarib ketgan, sovqotgan bo'lsa kerak, tinimsiz qaltirar, chunki paltosiz, egnida hamishagidek o'sha to'q havorang ko'ylak bor edi. Poyafzalini esa sira ko'rmagan ekanman, ular qizil rangda, ichiga mo'ynali astar qoplangandi.

— Sen imni o'ldirishing kerak, — dedi qiz nafasi ichiga tiqilib, hali ostonaga hatlab ulgurmasdan. Uning sochlarini yoyilgan, katta ochilgan ko'zlari g'alati boqar, sharpa yanglig' g'avdasini ko'rib, unga qo'l tegizishga ham jur'at qilolmadim. Javon oldiga borib, to'punchamni qidirib topdim.

— Bilardim, bir kunmas-bir kun shunday iltimos bilan kelishingni, — dedim unga, — shuning uchun qurol sotib olgandim. Xo'sh, qachon?

— Hoziroq, — dedi qiz ohista ovozda. — Otam ham qo'rqib o'tiribdi, o'zi undan har doim qo'rqib kelgan, buni bilaman.

Men qurolimni ko'zdan kechirib, paltomni kiydim.

— Ular yerto'lada, — dedi qiz boshini quyi solib. — Otam qo'rqqanidan kun bo'yi to'shakda qimirlamay yotibdi, ibodat ham qilolgani yo'q, it esa eshik oldiga muk tushib yotib olgan.

Biz daryo tomon quyi tushib bordik va toshko'prikdan ham o'tdik. Osmomni xuddi yong'in paytidagi kabi quyuvq,

tahlilakali qizg'ish rang qoplab olgan. Hozirgina quyosh botdi. Shahar odatadagidan ko'ra gavyum, odamlar va ulovlar bilan to'lib-toshgan, ular go'yo qon dengizi uzra suzib borayotgandek, ularning derazalari va devorlari ham shom yog'dusiga cho'mgan edi. Biz tirband olomon va tobora tig'izlashayotgan qatnov orasidan shoshiilib o'tib borardik. Yon-atrofimizda avtomobillar chiyillab tormoz berar, avtobuslar xira, tussiz, yovuz ko'zli bahaybat maxluqlar singari chayqalar, kulrang dubulg'a kiyvolgan politsiyachilar asabiy qo'l silkitishardi. Men ancha ilgari, qiz orqada qolib ketdi; paltomning bari ochiq, hansirab, halloslab, borgan sayin gunafsharang tus olayotgan, tobora kuch-qudrat kasb etayotgan g'ira-shira qorong'ilik tomon, nihoyat, ko'chadan yuqori chiqib bordim: biroq afsuski, kechikkan edim. Qo'limda qurol, eshikni tepib ochib, yerto'laga sakrab tushishim hamon qo'rqinchli hayvonning ulkan soya-sini ilg'ab qoldim, u oynani chil-chil sindirib, derazadan tushib qochib qoldi. Yerdada esa, qop-qora ko'lmak uzra katta g'avda oqarib ko'rindi, u qariya edi, it uni shunagayam burdalar tashlagandiki, aft-angorini tanib bo'lmay edi.

Qaltirab devorga, kitoblarga behol suyanib qoldim, tushqarida motor tovushlari eshitildi. Nosilka olib kelishdi. Murda oldida soyaga o'xshab turgan shifokorga, ranglari oqarib ketgan, tish-tirmog'igacha qurollangan politsiyachilarga, odamlarga ko'zim tushdi. Qizni chaqirdim, javob bo'lmadi. Yana shaharga, toshko'prik osha xonamga shoshildim, u yerda ham yo'q edi. Ma'yus, umidsiz bir alfozda, tuz ham totmay, tinim bilmay qizni qidirishga tushdim. Ulkan hayvon xatari edi, shuning uchun politsiya ham oyoqqa turdi, kazarmadagi askarlar ham turnaqator tizilishib, o'rmonlarni kezib chiqdilar. Odamlar qayiqqlarga o'tirib, ifos, sarig suvli daryoni uzun tayoglar bilan tit-pit qilib, tekshirib ko'rdilar. Bahor boshlanib, qattiq sel, jala

quygan, ko'p narsalarni oqizib ketgandi, shu bois odamlar mash'ala yoqib, baqir-chaqir qilib, tosh konlaridagi karyer (ochiq sayoz kon)larning g'orlariga ham bosh suqib chiqdilar. Hatto kanalizatsiya (chiqindi suvlarni oqizish tarmog'i) quvurlari-yu, kafedral soborning chordog'ini ham ko'zdan kechirishdi, biroq na qiz topildi, na it.

Uch kun deganda horib-charchab, yarim kechasi xonamga qaytib keldim. Uni topishdan umidimni uzgan edim. Ko'ylagimni ham yechmay, o'zimni o'ringa tashladim. Shu payt nogoh ko'cha tараfdan qadam tovushlari eshitildi. O'rnimdan sapchib turib, derazani ochdim, boshimni chiqarib, tashqariga tikildim. Tun yarmiga qadar yog'gan yomg'irda yo'l qop-qora tasma yanglig' yargirab ko'rinar, ko'cha chiroqlarining aksi u yer-bu yerda jilva qilardi. Shunda bexosdan... qizni ko'rib goldim, u daraxtlar oralab asta borar, egnida qoramirtus ko'ylak, oyog'ida qizilrang poyabzal, uzun patila-patila sochlari tun yog'dusida yaltirardi. Yonida esa sharpa yanglig' qo'zichoqdek yuvosh va unsiz qora ko'lanka, yumaloq, sarig' ko'zlari yiltirab, it ohista qadam tashlardi...

Nemis tilidan  
Mirzaali AKBAROV taryimasi

Sergey YEsENIN  
(Rossiya)

## BOBIL VA DO'ST

Keksa Bobil qishloq chekkasida yashardi, uning iti bor edi. U dunyo kezib, nonini tergilab yedi, och qolmadi. Bobil hech qachon sevimli iti Do'stdan ayrimadi. Bobil qishloq bo'ylab yuradi, derazalarni chertadi, Do'st esa uning yonida nasibasini kutganday dumini likillatib turardi. Odamlar Bobilga kuchugingni qo'y, Bobil, axir, o'zingning qorningni to'yg'izolmayapsan-ku... deyishsa, ulardan og'rinsa-da, bir so'z demasdi. Do'stni chaqirib, derazadan uzog'lashardi, bir burda nonni ham olmasdi.

Bobil tundfe'l edi, odamlar bilan kam gaplashardi.

Qish keldi, bo'ron jahl bilan esar, yerni supurar, kat-katta qor uyumlarini uchirib yuborardi.

Bobil qor uyumlari orasidan hassasini tirab, u hovlidan bu hovliga o'tar, Do'st esa uning yonida yugurardi. U Bobilning pinjiga kirib, yuziga mehr bilan qarab, aytmoqchi bo'lardi: Bizlar hech kimga kerak emasimiz, hech kim bizga issiq joy, non bermaydi, ikkimiz ham dunyoda yolg'izmiz. Bobil ham unga qarar, qarardi-yu, itining o'ylarini uqgan day sekin-sekin so'zlay boshlardi:

— Seni qara-yu, Do'st, men qariyani tashlab ketma.

Bobil iti bilan uchasiga yetib keldi, kulba eski va sovuq. U pechka orqasi, burchaklarni titkilab chiqdi — bir dona ham o'tin qolmabdi. Bobil Do'stga boqdi, it xo'jasi nima deyishini kutganday tik turdi. Bobil mehribonlik bilan dedi:

– Do'st, men seni chanağa bog'layman, o'rmonga boramiz, u yerdan shox-shabba, o'tinlar terib kelamiz, uyimizni isitamiz. Keyin issiqgina pechka ustida yotamiz.

U itini chanağa bog'lab, o'tinlar keldirdi, pechkaga o't yog'di. Itini quchoqlab, silab-sypaladi, pechka ustida yotib, o'tgan umirini esladi. U Do'stga hayotini qayg'uli erakday aytib berdi, tugatgach, o'kindi:

– Do'st, bir so'z demaysan, javob berolmaysan, tiling yo'q, ammo ko'zlaring kulrang, aqlli... bilaman, bilaman... sen barisini tushunasan...

Bo'ron bo'zlab charchadi, izing'irin ham pasaydi, toshday qattiq tomchilar jaranglab tusha boshladi.

Qor erimogda. Bobil qish ketayotganini ko'rdi. Do'stga shivirladi:

– Ko'klamga yetib olsak bo'ldi, o'lmaymiz.

Quyoshning qizg'ish nurlari o'ynadi, qo'ng'iroq irimoglar chopqillab qolishdi. Bobil derazadan tashqariga tikildi – yer qorayibdi.

Daraxtlarda kurtaklar bo'rtidi, borliqni bahor bo'yi tutdi. Yillar esa Bobilni aldashdi, loygarchilik qariyanning oyog'idan ushladi.

Uning oyog'lari chalkashib ketdi, yo'tal tutdi, belida sanchiq turdi, ko'z oldi qorong'ilashdi.

Qor eridi. Yer quridi. Deraza ortida butoqlar barg yozdi. Faqat qariya uychasidan har zamonda bir chiqadi. U so'rida qimirlamay yotardi.

Bobil bor kuchini yig'ib, o'midan turdi, polga tushdi, yana yo'tali zo'raydi. Do'stga izitirob bilan so'z qotdi:

– Hali erta edi, Do'st. Biz buni avvaldan bilgandik. Mening vaqt-soatim yetganga o'xshaydi. Faqat o'lishni, seni tashlab ketishni istamayman.

U betob bo'lib qoldi, na turadi, na qimirlaydi. Do'st

esa so'ridan nari ketmaydi; qariya yaqinlashib kelayotgan ajal qadamlarini sezadi, sezadi-yu, itini quchoqlab oladi, zorillab yig'laydi:

– Men seni kimga tashlab ketaman, Do'st. Odamlar bizga begona. Sen bilan bir umr birga yashadik, o'lim esa bizni ayirmogda. Alvido, Do'st, azizim, so'nggi damlarim kelayotganini ko'rib turibman, nafasim ko'ksimda qolib qoldi. Alvido!... Qabrimga borib, eski do'stingni eslab tur!..

Bobil Do'sting bo'ynidan quchdi, yuragiga qattiq bosdi, titrab ketdi – yuragi chiqib ketdi.

U jon berdi. It xo'jasi o'lganini tushundi. Burchakdan burchakka bordi-keldi, uni sog'indi. Do'st qariyani hidlab-hidlab ko'rardi-da, zor-zor uvullardi.

Odamlar bir-biridan nega Bobil chiqmay qo'ydi, deb so'rashga tushdi. Birgalashib kelishdi, eshikni ochib ko'rishdi, ko'rishdi-yu, ortga tisarilishdi. Marhum so'rida yotar, uyni bo'g'iq, achchiq badbo'y is tutgan, so'rida o'tirgan iti kuyib, qorayib ketgan edi...

Odamlar o'likni ko'tarishdi, uni, xonani tozalashdi, yuvishdi, tobutga solishdi. It esa uning yonidan siljimasdi. Odamlar tobutni cherkovga olib ketishdi. Do'st ham u bilan yonna-yon ketardi. Uni cherkovga kiritishmadi, haydab solishdi. Do'st cherkovning atrofini chir aylanar, uvullar, alam va ochlikdan oyog'lari chalkashib, yiqilay-yiqilay derdi.

Marhumni qabristonga olib kelishdi. Go'r qazib, ko'mishdi. Bobil o'ldi, hech kim ko'zyosh to'kmadi.

Faqatgina Do'st qabr ustida hamon uvlar, qo'llari bilan qabrimi kovlardi. Qarddon do'sting qabirini ochib, u bilan yonna-yon yotgisi kelardi. It qabrdan nari ketmadi, hech nima yemadi, do'stini sog'indi. Do'st qabrga tiki-

lar, tikilardi-yu, yurakni ezguday izitrob bilan uvullardi. U yana qabrni gazgisi kelar, ammo qo'llarini ko'tarolmasdi. Do'sting yuragi qisildi... Yelkasi bo'ylab titroq yoyildi, sekin boshini tushirdi, qaltiradi... va qabr ustida joni uzildi.

Qabr ustidagi gullar shunday sadogatti, vafoli do'stlar, ajoyib do'stlikni go'zal etakday qushlarga so'zlab berishdi. Qabrga kakku uchib keldi. Majnunolga qo'ndi, o'tir-di-yu, qayg'uga botdi. Kakku qabr ustida hazin tovushda ku-kuladi...

*Rus tilidan*  
**O'ygul SUYUNDIQOVA tarjimasi**

**Riam-ENG**  
(Tailand)

**TO'Y KUNI**

Grong xonasiga quvnab kirib keldi, karavot ustidagi oq ko'ylakni yulqib olib ko'ksiga bosdi, tamanno bilan ko'zgu qarshisida yura boshladi.

„Mening to'y kunim, – o'yladi u, – bir necha soatdan so'ng Chitning rafqasiga aylanaman, oppop uyga ko'chib o'taman, hashamatli avtomobilning sohibasi bo'laman. Ni-hoyat, bu vayronani tark etib, darslardan va bola-baqrarga qarashdan bir umrga qutulaman. Singillarimning xarxasigasiga ham nuqta qo'yiladi!“

Grong quvonch bilan joyida aylandi va maroq bilan ko'zguga boqdi. Bu ko'ylak uning nozik belini, qaddi-qomatini boshdan oyoq qanchalik bo'rtirib ko'rsatadi! U karavot chetiga o'tirib, tezda ko'ylakni kiydi va yana ko'zgu yoniga shoshildi: „Panilarda rostdan ham yomon tikishmaydi. Ko'ylak xuddi quyib qo'ygandek“.

Grong nari keta olmay, ko'zgu oldida chir aylandi va bexosdan titrab ketdi: „Voy Xudoyim-ey, axir bu behayollikning o'zi-ku! U shunchalik tor...“

Ko'ylak aslo tor emasdi, biroq old yoqasi shu qadar chuqur o'yilganki, hatto kangak ko'rinish turardi, orqasi esa belgacha yalang'och. Oyoqlar ham juda bo'rtirilgan – xuddi estrada qo'shiqchilarinikidek. Grong hech qachon o'zini bu holda ko'rmagandi. Balki, to'y uchun atay tikilgan mana shu ko'ylak bunga aybdordir.

„Mehmonlar nima deb o'ylaydi?“ – bu narsa xayoliiga kelganda Grong uyatdan lola bo'lib ketdi. U nikoh marosimida kuyov yonida o'tirgani, ko'plab nigohlar o'ziga qaratilganini tasavvur qildi va mehmonlar chehrasida hozirdanoq ta'na alomatlarini ko'rdi.

Boshqa tараfdan olganda, ko'ylakni tanlagan, bir necha soatdan so'ng uning eri bo'ladigan Chit barchasini zimmasiga olgan ekan, nima uchun u xavotirlanishi kerak? Agar nikoh ko'ylagi kimgadir ma'qul kelmasa, unga nima? Axir u mehmonlarni deb turmushga chiqayotgani yo'q-ku.

Yana bir necha fursat Grong shularni o'yladi. So'ng xayoliiga, agar Chitga – millioner Chitga, Pxuketedagi konlar sohibiga – turmushga chiqmay, o'z qo'shim, bo'lalikedagi do'stim Dedga chiqqanida ne bo'lardi, degan fikr keldi. U nima degan bo'lardi?

Ded, albatta, bunaqa ko'ylak kiyishiga rozi bo'lmasdi – axir u tay urf-odatlariga og'ishmay amal qiladi. Bir necha marta: „Yevropacha udumdan esi og'ib qoladigan, yarimyalang'och yuradigan yengiltabiat xonimlarni ko'rgani ko'zim yo'q, ular ayolning asl latofati kantarlik va oqilalikda, iffatini saqlashida, yevropacha raqslarda qabul qilingandek, duch kelgan birinchi odamga o'zini quchishga yo'l qo'ymaslikda ekanligini tushunmaydilar!“ – degandi.

Grong tanish do'stlari uyida udumga kirgan Yevropa raqslarini qunt bilan o'rganayotib, Ded bilan bo'lib o'tgan so'nggi subbatini ikir-chikirigacha esladi. Axir, o'shanda u bu narsa Dedni g'azablantirishini, deyarli yigirma yil davom etgan oralaridagi do'stlikni o'ldirishini xayoliiga ham keltira olmasdi! Ortga-da yo'l yo'q – buning uchun har ikkisi ham keragidan ortiq g'ururli!

So'ng esa taqdir Grongni Chitga duch qildi. U deyarli yarim yil barcha urf-qoidalarni maromiga keltirib, Grongga xushomad qilib yurdi va qizga Chitni sevib qolgandek tuyula boshlagandan so'ng, oila qurishga kelishdilar.

Grong ko'zguga orqa o'girib, chuqur xo'rsindi.

„Bugun to'yim, men esa miyamni bo'lmag'ur narsalar bilan band qilib o'tiribman. O'timish allaqachon orda qolgan. Ded biron idorada yelkasi bukchayib ishlab o'tirgandir, men esa mayin charm qoplangan yumshoq o'rindiqli, hashamati avtomobilda kezib yuraman. Erim meni muhtojlik va qismatning barcha ko'rgiliklaridan himoya qiladi, oydin kechalari ikkimiz dengiz bo'ylab yaxtada sayr qilamiz, mashhur „o'n mingtalikka“ kiruvchi oliy tabaqa-ga qabul qilinaman“.

Grong ushbu manzarani barcha tafsiloti bilan ko'z oldiga keltirdi va yomg'irdan qutulib qolgan parvonadek baxti his etdi o'zini.

U devor soatiga ko'z tashladi. O'zini tartibga solish payti kelibdi. Ko'ylakni yana kiydi. Balki, haligina chomilganidanni yoki keskin qo'l harakatidanni, ko'ylak bexosdan chap tараfdan chok-chokidan so'kilib ketdi. Uning yuragi yorilgudek bo'ldi, uni bir lahzada xavotirli o'ylar chulg'ab oldi: u shunchalik ishonch bilan o'zini tayyorlagan narsalarning bari ro'yobga chiqadimi?

Grong nogahon tushunib qoldi: har qanday oilali ayolning hayoti ushbu ko'ylakka monand. Yangiligida chiroyli va nima qilib bo'lsa-da uni avaylash kerak. Biroq ertami-kechmi ohorini yo'qotadi va bari istalgan paytda chippakka chiqishi mumkin. Bo'salar va Chit unga aytgan nazokatli so'zlarning butun umr ka-folat bo'lishiga ishonish qiyin. Yangi narsaga oshuftalik o'tgach, ishq olovi so'ngandan so'ng nima bo'ladi?

O'shanda ham Chitring muhabbati va sadogatiga su-  
yansa bo'ladimi?

Grongning xayollari yana Dedga qaytdi. Turmush-  
ga chiqqanini qanchalik og'ir qabul qiladi, uni bu uyda  
boshqa ko'rmay, qanchalar qayg'uga botadi! Kim – kim,  
ammo u Dedga butkul ishonishi mumkin edi – u hamma-  
sini kechira olardi, har qanday, hatto eng be'mani qitg'i-  
ni ham!

Tushlikdan so'ng nikoh marosimi o'tadigan uyiga olib  
ketish uchun Chit uning ortidan kelishi kerak. Biroq, avto-  
mobil signali yangraganida Grong har doimgidek deraza  
tomon otilmadi. U nikoh ko'ylagini beparvogina egnidan  
yechdi va xayoli parishon holda mayda-mayda qilib qiy-  
qimladi. So'ng karavotga o'zini tashlab, yostiqqa boshini  
tiqgancha, achchiq-achchiq yig'ladi.

*Rus tilidan*  
*Ibrohim CHORIYEV tarjimasi*

*Anil CHANDRA*  
*(Hindiston)*

## SHABNAM

Men uni birinchi marta Mumbydagi sohil bo'yida  
uchratgandim. U qumdan saroy yoki shunga o'xshash  
nimadir yasash bilan ovora, ko'zlari esa dengizga boqib  
chagnardi.

– Salom, – u birinchi bo'lib gap boshladi.

Men boshimni irtg'ab javob qaytargan bo'ldim. Kayfi-  
yatim yo'qligi uchun jilmayib qo'yishga ham yaramadim.

– Men qurish bilan bandman, – davom etdi u.

– Ko'rib turibman. Nima bu? – so'radim e'tiborsizlik  
bilan.

– Eh, bilmasam. Shunchaki qummi juda yaxshi ko'raman.

Bu yaxshi, o'yladim men va qumda sirpanib uning  
shippagini o'ynay boshladim.

– Bu tomchi-yu shabnamlardan qurilgan uy! Qarang, u  
qaldirg'ochning uyasiga o'xshaydi, – dedi qizcha quvonib.

– Nima deding, tomchi...

– Ha, bu baxt shabnammi. Onanning ayitishicha, shab-  
namlar o'zida baxt olib yurar va uni bizga ulashar ekan.

Xayr, baxt, – pichirladim o'zinga o'zim, – Salom,  
qayg'u.

Yo'limda davom eta boshladim. Mening asabim bu-  
zilgandi, chunki u qizning hayoti to'la-to'kis, hech qanday  
dardi yo'q edi.

– Ismingiz nima? – u meni to'xtatdi.

– Prabxa. Mening ismim Prabxa Ativil.

– Meniki esa Nutan. Yoshim oltida.

– Xursandman, Nutan.  
U kulib yubordi.

– Sen quvnoq ekansan, – dedim men ham jilmayib.  
So'ng bu yerdan ketdim. Ketgunimcha uning hayotbaxsh  
kulgisi meni ta'qib etib bordi.

– Yana keling, Prabxajon, – dedi u ortimdan. – Baxtli  
kunlarimizni davom ettiramiz.

Kunlar, haftalar bir-biriga egizakdek o'tib borardilar.  
Otanning azoblari-yu onanning dard chekishlari bunga  
hamohang bo'lardi. Quyoshli tonglarning birida, men de-  
yuzi burguti qurib ketgan, shudring tomchilarini eslatuvchi  
deya dengizga shoshdim.

Dengiz bo'yida uni kuta boshladim. Uzoqdan ko'rini-  
shi bilan negadir g'alati bo'lib keldim.

– Salom, Prabxajon, – gap boshladi u – Men bilan  
o'ynagingiz keldimi?

– O'ynashimni istaysanmi? – dedim qandaydir alam  
bilan.

– O'zingiz bilasiz, ayta qoling.

– Yolg'izlik o'yiniga nima deysan? – davom etdim is-  
tehzoli kulib.

Biroq Nutan gapimdan kulib yubordi:

– Bu o'yinni bilmas ekaman.

– Unda yur, shunchaki sayr qilamiz, – dedim uning  
yuzidagi samimiylikni ko'rib.

– Qayerda yashaysan? – so'radim undan.

– Shu atrofdan, – u naritroqdagi uylarni ko'rsaldi. Yo'l  
bo'yi faqat Nutan gapirib ketdi, mening xayolim esa bosh-  
qa yerlarda kezardi. Biz Nutanning uyiga yetgach, u bugun  
kunni juda maroqli o'tkazganini aytdi. Qiziq, o'shanda bi-  
rinchi marta unga qarab chin qalbimdan kulib qo'ydim.

Oradan uch haftalar o'tgach, biz yana sohilda uchrash-  
dik. Mening hatto Nutan bilan salomlashishga ham xo-  
hishim yo'q edi.

– Bugun mendan xafa bo'lma, – dedim men. – Yolg'iz  
qolmoqchiman.

Nutanning ichidan dardli xo'rsiniq eshitildi:

– Nega unday deysiz?

Mening jahlim chiqib, unga o'shqirdim:

– Chunki mening onam o'ldi!

Ichimda esa nega bu gapni unga aytayapman, deb  
o'yladim.

– Oh, – dedi Nutan. – Unda baxtsiz kun bo'libdi-da...

– Ha, kecha ham, undan oldingi kun ham, umuman, har  
kunim baxtsiz... endi ket.

– Og'ridimi?

– Nima?

– Joni og'ridimi? Onangiz o'layotganida...

– Og'rimay bo'ladingmi? – men bazo'r shivirladim.

Bir oylardan so'ng men yana sohilda hozir bo'ldim. Bi-  
roq Nutan negadir ko'rinmasdi. O'zimni aybdor sezib, qiz-  
chani sog'inayotganimni angladim. Nutanni izlab, uning  
uyiga yo'l oldim. Eshikni ko'zlari shishgan bir yosh ayol  
ochdi.

– Salom. Mening ismim Prabxa. Qizingiz bugun sohil-  
ga kelmadi, uyda bo'lsa kerak?

– Oh, Prabxaj, sizmisiz? Uyga kira qoling... Nutan siz  
haqingizda juda ko'p gapirgandi. Agar u sizni bezor qilib  
yuborgan bo'lsa, iltimos, kechiring.

– Unchalik emas, u juda quvnoq qiz ekan. Hozir  
qayerda?

Ayol xo'rsinib gap boshladi:

– Nutan o'tgan hafta vafot etdi. U oqgon dardi bilan  
ko'p kurashdi, sizga bu haqida aytmaganimmi?

Men zo'rg'a stolga suyanib, o'zimni tutishga harakat qildim.

— U sohilni juda sevardi, — davom etdi ayol. — Shuning uchun u yerga borishiga to'sqinlik qilmasdim. Sohilda u dardini unutardi, qo'lidan hamma ish kelishiga ishonardi. Baxti kunlarining maskani edi u yer. Biroq so'nggi kunlarda ahvoli og'irlashib qoldi... — ayolning ovozi titradi. — Sizga bir narsani berib qo'yishimni tayinlagandi. Biroz kutib turalasizmi, topib chiqay...

Mening esa boshim gangib qolgan, quloqlarimga ishonmas, hamma eshitganlarim tushga o'xshardi. Bu bechora ayolni esa nima deb ovutishni bilmasdim.

Ayol menga konvert tutqazdi, uning ustiga qing'ir-qiyshiq harflar bilan „Prabxajonga“, deb yozilgandi. Ichini ochdim. Bu bo'yoq bilan bolalarcha chizilgan surat edi. Unda sap-sariq keng sohil, ko'm-ko'k dengiz, oq-qora qushlar tasvirlangan, ostiga esa „*Sizga shabnamlar baxt olib kelsin*“, deb yozilgandi. Ko'zlarim yoshga to'ldi, yuragim anglab bo'lmas tuyg'ular iskanjasida qoldi. Ayolning qo'llaridan tutdim:

— Meni kechiring, kechiring...

*Ingiliz tilidan*  
**Nodirabegim IBROHIMOVA** tarjimasi

## MUNDARIJA

|                                                      |    |
|------------------------------------------------------|----|
| Nashriyotdan .....                                   | 3  |
| <b>Ye Shen-Tao. A-fen</b>                            |    |
| Rus tilidan T. Yunusxo'jayeva tarjimasi .....        | 5  |
| <b>Dobri Jotey. Yaxshi odam</b>                      |    |
| Bolg'ar tilidan Tohir Malik tarjimasi .....          | 12 |
| <b>Xusrav Shohoniy. Qarz</b>                         |    |
| Rus tilidan Abdumurod Ko'chiboyev tarjimasi .....    | 15 |
| <b>Frans Mora. Bechora sarboz</b>                    |    |
| Rus tilidan Haydar Ibrohimov tarjimasi .....         | 22 |
| <b>Ivan Bunin. Sovuq kuz</b>                         |    |
| Rus tilidan Abdulla Sher tarjimasi .....             | 27 |
| <b>Ryunoske Akutagava. O'rgimchak tolasi</b>         |    |
| Dilshod Nurulloh tarjimasi .....                     | 33 |
| <b>Somerset Moem. Luiza</b>                          |    |
| Ingiliz tilidan Alisher Otaboyev tarjimasi .....     | 38 |
| <b>Umar Sayfiddin. Jasorat</b>                       |    |
| Turk tilidan Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi ..... | 46 |
| <b>I Chol Xuan. O'lis yulduz</b>                     |    |
| Koreys tilidan Malohat G'ajforova tarjimasi .....    | 55 |
| <b>Elizabethta Brassington. „Genri“</b>              |    |
| Ingiliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi .....    | 60 |
| <b>O. Genri. Yigirma yildan so'ng</b>                |    |
| Rus tilidan Amir Fayzulla tarjimasi .....            | 64 |
| <b>Irene Dishe. „Alisa“</b>                          |    |
| Nemis tilidan Mirzaali Akbarov tarjimasi .....       | 69 |

|                                                              |     |
|--------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Eliza Myuller.</b> Daraxt                                 |     |
| <i>Ingliz tilidan Shahnoza Rahmonova tarjimasi</i> .....     | 76  |
| <b>Gerbert Franke.</b> Uyingizga xush kelibsiz               |     |
| <i>Ingliz tilidan Mirislom Baddolov tarjimasi</i> .....      | 79  |
| <b>Teodor Drayzer.</b> Qoracha Jef                           |     |
| <i>Ingliz tilidan Qandilati Yusupova tarjimasi</i> .....     | 82  |
| <b>Gektor Xyu Munro.</b> Ochiq derazalar                     |     |
| <i>Ingliz tilidan Ibrohim Yo'ldoshev tarjimasi</i> .....     | 87  |
| <b>Najib Mahfuz.</b> Qalampir                                |     |
| <i>Rus tilidan Asqad Muxtor tarjimasi</i> .....              | 93  |
| <b>Ernest Xeminguey.</b> Juda qisqa hikoya                   |     |
| <i>Ingliz tilidan Shuhrat Markarim tarjimasi</i> .....       | 97  |
| <b>Alan Marshal.</b> Quyosh qo'shig'i                        |     |
| <i>Ingliz tilidan Qandilati Yusupova tarjimasi</i> .....     | 100 |
| <b>Aleksandr Kuprin.</b> So'nggi ijro                        |     |
| <i>Rus tilidan Amir Fayzulla tarjimasi</i> .....             | 103 |
| <b>Konstantin Paustovskiy.</b> Ustara                        |     |
| <i>Rus tilidan Jo'ra Fozil tarjimasi</i> .....               | 113 |
| <b>Ivan Vazov.</b> Saboq                                     |     |
| <i>Rus tilidan Shahnoza Rahmonova tarjimasi</i> .....        | 118 |
| <b>Vasiliy Shukshin.</b> Quyosh, chol va qiz                 |     |
| <i>Rus tilidan O'kir Hoshimov tarjimasi</i> .....            | 123 |
| <b>Jeyms Joys.</b> Evelina                                   |     |
| <i>Ingliz tilidan Munira Norova tarjimasi</i> .....          | 130 |
| <b>Fridrix Dyurrenmatt.</b> Sak                              |     |
| <i>Nemis tilidan Mirzaali Akbarov tarjimasi</i> .....        | 137 |
| <b>Sergey Yesenin.</b> Bobil va do'st                        |     |
| <i>Rus tilidan Oygul Sayundigova tarjimasi</i> .....         | 145 |
| <b>Riam-Eng.</b> To'y kuni                                   |     |
| <i>Rus tilidan Ibrohim Choriyev tarjimasi</i> .....          | 149 |
| <b>Anil Chandra.</b> Shabnam                                 |     |
| <i>Ingliz tilidan Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> ..... | 153 |

*Adabiy-badiiy nashr*

**ALEKSANDR KUPRIN**

**SO'NGGI IJRO**

*Hikoyalari*

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2020

Muharrir *Abdurahmon Jo'rayev*  
Badiiy muharrir *Nasiba Ergasheva*  
Musahhah *Gulnardon Umarova*  
Sahifalovchi *Umarjon Qodirov*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
04.05.2020 da boshiga ruxsat etildi. Qo'g'oz bichimi 84x108 1/32.  
Ofset qog'oz. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 93-20.  
Buyurtma raqami 394-20.

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
www.credoprint.uz

Kuprin, Aleksandr  
So'nggi ifro. [Main]: hikoyalar / A. Kuprin: tarjimonlar:

O' . Hoshimov va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6342-7-5

UO•K: 821.161.1-3  
KBK 84(2Ros)

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402

084.100/402